E. Sariqov, B. Xaydarov

IQTISODIY BILIM ASOSLARI 8

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik sifatida tavsiya etilgan

Toshkent — 2019

www.idum.uz сайтидан юклаб олинди

UO‘K 37.015.6(075)
BBK 65.01ya7
S-32

Taqrizchilar:

A.N.Sattarov – Respublika ta’lim markazi «Iqtisodiy bilim asoslari» fani metodisti;
X.T.Jumanov – Nizomiy nomidagi TDPU «Iqtisodiy bilim asoslari fanini o‘qitish metodikasi» kafedrasi dotsenti.

Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan ijara uchun chop etildi.

© **«Huquq va Jamiyat» MCHJ** shaklidagi nashriyot, 2019

ISBN 978-9943-5874-0-3

www.idum.uz сайтидан юклаб олинди

M U N D A R I J A

Darslikdan foydalanish bo‘yicha umumiy ko‘rsatmalar.....5

I bob. Iqtisodiyotga kirish

1- mavzu. Iqtisodiyot bilan tanishuv 8
2- mavzu. Cheklanganlik muammosi.....12
3- mavzu. Tanlov va uning muqobil qiymati.....16
4- mavzu. Ishlab chiqarish va uning omillari.....20
5- mavzu. Mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv.....24
6- mavzu. Iqtisodiy tizimlar.....28
I bobni takrorlash uchun savol va topshiriqlar.....34

II bob. Bozor

7- mavzu. Ayirboshlash va pul.....38
8- mavzu. Bozor va uning turlari.....42
9- mavzu. Bozorlar va narxlar.....46
10- mavzu. Bozor qatnashchilari.....50
II bobni takrorlash uchun savol va topshiriqlar.....56

III bob. Oila-uy xo‘jaliklari iqtisodiyoti

11- mavzu. Iste’molchilarning daromadlari va xarajat turlari.....60
12- mavzu. Mulk va xususiylashtirish.....64
13- mavzu. Daromad va boylik.....68
14- mavzu. Jamg‘arish va sug‘urta.....72
15- mavzu. Iqtisodiy qaror qabul qilish.....76
16- mavzu. Iste’molchilarning huquqlari va majburiyatlari.....80
III bobni takrorlash uchun savol va topshiriqlar..... 84

www.idum.uz сайтидан юклаб олинди

IV bob. Talab va taklif

17- mavzu. Talab va talab qonuni..... 88
18- mavzu. Talabga ta'sir etuvchi boshqa omillar..... 92
19- mavzu. Taklif va taklif qonuni..... 96
20- mavzu. Taklifga ta'sir etuvchi boshqa omillar..... 100
21- mavzu. Tovarning bozor narxi 104
22- mavzu. Talab va taklif qonunlariga doir amaliy mashg'ulot.....108
23- mavzu. Talab va taklif o'zgarishining bozor narxiga ta'siri..... 110
IV bobni takrorlash uchun savol va topshiriqlar..... 113

V bob. Raqobat va bozor iqtisodiyoti

24- mavzu. Raqobat..... 116
25- mavzu. Monopoliya va monopollashgan bozorlar.....120
26- mavzu. Bozor iqtisodiyoti..... 124
27- mavzu. O'zbekiston bozor iqtisodiyoti sari..... 128
V bobni takrorlash uchun savol va topshiriqlar..... 132

VI bob. Soliq tizimi

28- mavzu. Soliqlar va ularning turlari..... 136
29- mavzu. Soliqqa tortish asoslari..... 140
30- mavzu. Soliq to'lovchilarning huquqlari va majburiyatlari..... 144
VI bobni takrorlash uchun savol va topshiriqlar..... 148
Bilimingizni sinab ko'ring..... 152

www.idum.uz сайтидан юклаб олинди

DARSLIKDAN FOYDALANISH BO‘YICHA UMUMIY KO‘RSATMALAR

Mavzularga oid material quyidagi bandlarga bo‘lingan va ma’lum tartib asosida darslik sahifalariga joylashtirilgan. Ba’zi bandlar esa muayyan belgi ostida ajratib ko‘rsatilgan:

1. Darsning tartib raqami va mavzu nomi.
2. Dars mavzusini yoritishga yordam beruvchi muammoli vaziyatga oid ko‘rgazmali ma’lumot, rasm, jadval, diagramma va boshqa materiallar.
3. Mavzuga oid, asosan uyda mutolaa qilishga mo‘ljallangan asosiy matn.
4. O‘quvchilarni faollashtiruvchi hamda muzokaraga chorlovchi savol va topshiriqlar.
5. Dars davomida qo‘llaniladigan tayanch atamalarning ta’rifi.
6. O‘zlashtirilgan bilimlarni chuqurlashtirish, takrorlash va o‘z-o‘zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar.
7. Hisob-kitob ishlarini va iqtisodiy tafakkurni talab qiladigan, amaliyot bilan bog‘liq topshiriq va mashqlar.
8. Izlanish va kichik tadqiqot olib borish uchun har bir o‘quvchiga alohida-alohida beriladigan mustaqil ish topshiriqlari.
9. O‘zlashtirilgan bilimlarga tayangan holda mantiqiy fikrlash yoki guruhda ishlash uchun berilgan topshiriqlar.
10. Mavzudagi yodda saqlash lozim bo‘lgan g‘oya va fikrlar.
11. Yurtimizga xos sharqona qadriyatlar, fan tarixiga oid asarlardan iqtiboslar, ularga oid savol va topshiriqlar.
12. Iqtisodiy tafakkurni o‘stirishga, iqtisodiy madaniyatni shakllantirishga va dunyoqarashni kengaytirishga mo‘ljallangan qo‘shimcha ma’lumotlar.
13. Iqtiboslar.
14. Iqtisodiy tushunchalarni o‘zaro bog‘laydigan formulalar.
15. "Mustaqil faoliyat" rukni ostidagi qo‘shimcha materiallar.

www.idum.uz сайтидан юклаб олинди

Darslikda Iqtisodiy bilim asoslari 8- sinf kursi 30 ta mavzuga bo‘lib berilgan. Har bir mavzuga oid materiallarni bitta dars davomida va uyda o‘rganish lozim.

Yangi mavzuni yoritishda, asosan yuqorida tushuntirilgan 2 — 5- band materiallari bilan ishlash kerak.

3- bandda berilgan materiallardan, asosan uyda o‘qish va o‘rganish uchun foydalanish lozim.

Dars mavzusini mustahkamlashni 6- banddagi savol va topshiriqlar hamda 7- banddagi topshiriqlar va mashqlar yordamida amalga oshirgan ma’qul.

8- banddagi topshiriqlar kichik izlanish va tadqiqot sifatida o‘quvchilarga mustaqil ish qilib berishga mo‘ljallangan. Bunda, zarur hollarda o‘quvchi kattalar bilan hamkorlik qilishi ham lozim bo‘ladi.

9 — 12- banddagi savollar, jumlalar va qadriyatlar mustaqil mushohada yuritish, bilimlarni boyitish, amaliyotda qo‘llab ko‘rish va o‘z-o‘zini tekshirish maqsadida ishlatilishi maqsadga muvofiq.

O‘quvchilar diqqati 4- banddagi kalit atamalar va 10- banddagi mavzuning g‘oya va fikrlariga qaratilishi lozim.

Uyga vazifalar dars davomida foydalanilmagan 9 — 10- band savol va topshiriqlari asosida berilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Har bir bob oxirida berilgan takrorlash uchun savol va topshiriqlardan o‘tilganlarni mustaqil ravishda takrorlab borish hamda oraliq nazorat ishlariga tayyorlanish maqsadida foydalanish tavsiya etiladi. Berilgan testlar esa oraliq nazoratni amalga oshirish uchun testlar tayyorlashda namuna sifatida xizmat qiladi.

Darslikdan, shuningdek, "Mustaqil faoliyat" rukni ostidagi materiallar ham o‘rin olgan. Bu materiallarni o‘quvchilar darsdan tashqari vaqtlarida o‘rganishlari maqsadga muvofiq. Bu materiallar o‘quvchilarni mustaqil fikrlash, izlanish, tadqiqotga undaydi. Ularga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar haqida ma’lumot beradi. Bu materiallar bilan ishlashda, albatta, ustozlarning hamda ota-onalarning yordami va maslahatlaridan foydalanish lozim.

Biz faqat faol tadbirkorlik, tinimsiz mehnat va intilish orqali taraqqiyotga, farovon hayotga erisha olamiz.

Shavkat Mirziyoyev

1

I bob. Iqtisodiyotga kirish

2

3

4

5

6

7

8

www.idum.uz сайтидан юклаб олинди

1- MAVZU IQTISODIYOT BILAN TANISHUV

FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. So‘nggi yillarda mamlakatimizda ro‘y berayotgan iqtisodiy o‘zgarishlar yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Bu o‘zgarishlarga bir nechta misollar keltiring.
2. “... mamlakatimizni taraqqiy toptirish uchun, avvalo, iqtisodiyot sohasini rivojlantirish kerak” deganda nimani tushunasiz? Fikringizni asoslashda yuqoridagi rasmlardan foydalaning.

Biz muttasil o‘zgarib, rivojlanib borayotgan olamda yashamoqdamiz. Atrofga sinchiklab nazar solsangiz, yangi tovarlar va xizmat turlarining paydo bo‘layotganligi, odamlarning istak va xohishlari o‘zgarib borayotganligi, ko‘chalar, shahar va qishloqlarning yangicha ko‘rinish olayotganligining guvohi bo‘lasiz. Ushbu yangilanib borayotgan olamda yashar ekansiz, siz ham har bir o‘zgarishga o‘zingizning munosabatingizni bildirishingiz, yangi sharoitga moslashib borishingiz zarur bo‘ladi.

Iqtisodiyot jamiyat hayoti sohalaridan eng o‘zgaruvchanidir. Chunki odamlarning yaxshi yashashi uchun zarur shart-sharoitlarni har kuni yaratib borish zarur. Tabiatda tayyor holda non, kiyim-kechak, uy-joy yo‘q. Inson ehtiyoji uchun kerakli, tabiatda tayyor holda uchramaydigan barcha narsalarni o‘zi yaratishga majbur. U shu maqsadda tabiat qo‘ynida *iqtisodiyot* deb atalmish ulkan xo‘jalikni barpo etdi. Endilikda iqtisodiyot xo‘jalik yuritish tizimi sifatida — insonning yashashi va kamol topishining birdan bir vositasiga aylangan.

Iqtisodiyotning eng asosiy tarkibiy qismi — odamlardir. Odam o‘z mehnati, aql-idroki evaziga iqtisodiyotni harakatga keltiradi, boshqaradi. Iqtisodiyotning ikkinchi tarkibiy qismi — tabiatdir. Tabiat iqtisodiyotning xom ashyo ombori hisoblanadi. Iqtisodiyotning uchinchi bo‘lagi — bino va inshootlar, zavod va fabrikalar, yo‘l va ko‘priklar, asbob-uskunalar, mashina va mexanizmlar hamda boshqa qator inson qo‘li bilan yaratilgan narsalardan tarkib topgan sun’iy muhitdir.

Iqtisodiyot — odamlarning ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo‘lgan har xil ne’matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash va iste’mol qilish vazifalarini bajarishga yo‘naltirilgan faoliyatlar tizimidir.

Iqtisodiyotning shu uch tarkibiy qismlarining birikishi natijasida iqtisodiy jarayon vujudga keladi. Iqtisodiy jarayonlar to‘rt bosqichda kechadi. Birinchi bosqichda, inson ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qiladigan ne’matlar, ya’ni tovar va xizmatlar yaratiladi, ishlab chiqariladi. Ikkinchi bosqichda, yaratilgan tovar va xizmatlar taqsimlanadi. Keyingi bosqichda, ular ayirboshlanadi va nihoyat oxirgi bosqichda iste’mol qilinadi.

Iqtisodiyotni yuritish, ya’ni iqtisodiy jarayonlarni boshqarish muammosi bilan odamzot qadimdan tanish bo‘lgan. Yunonistonda ikki ming yil oldin *“Ekonomikos”* (o‘zbek tilidagi ma’nosi — *“uy xo‘jaligini yuritish san’ati”*) deb nomlangan iqtisodiyotga oid birinchi kitob Ksenofont tomonidan yozilgan. “Ekonomika” (o‘zbek tilida “iqtisodiyot”) so‘zi shu kitob nomidan kelib chiqqan.

Hozirda iqtisodiyot fani nafaqat birgina uy xo‘jaligini, balki butun bir davlat, hatto dunyo xo‘jaligini yuritish yo‘l-yo‘riqlari haqidagi fan sifatida tushuniladi. Shunday qilib, *iqtisodiyot fani* odamlarning, korxonalarning va hatto butun davlatlarning iqtisodiy ne’matlarni yaratish, taqsimlash va iste’mol qilish jarayonidagi faoliyatini, o‘zaro munosabatlarini o‘rganadigan fan ekan.

Iqtisodiyot fani — odamlarning iqtisodiy ne'matlarni yaratish jarayonidagi faoliyatini va o'zaro munosabatlarini o'rganadigan fan.



Ksenofont (miloddan avvalgi 430 – 356 yillarda yashagan) – grek tarixchi va faylasufi. Ksenofont iqtisodiyot faniga oid bir nechta asarlar yozgan.

Ksenofont iqtisodiy tafakkur tarixiga mehnat taqsimotining ahamiyatini, uning bozor o'lchamlariga bog'liq ekanligini, tovarning qiymati uning nafliligiga va almashuvchanligiga bog'liq ekanligini, pulning jamg'arish mumkin bo'lgan maxsus tovar ekanligini birinchi bo'lib ta'kidlagan shaxs sifatida kirgan.

Zamonaviy iqtisodiyot fani mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyot deb nomlangan bo'limlarga bo'linadi. *Mikroiqtisodiyot* — alohida olingan oila, korxona va tarmoq iqtisodiyotini o'rganadi. *Makroiqtisodiyot* esa mamlakat va jahon miqyosidagi iqtisodiyotni o'rganadi. Biz iqtisodiyot fani bilan tanishuvni uning mikroiqtisodiyot qismidan boshlaymiz.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan olamshumul islohotlarning katta qismi iqtisodiyot sohasiga taalluqlidir. Iqtisodiyot sohasini keskin ravishda erkinlashtirish, davlatning iqtisodiy faoliyatga aralashuvini qisqartirish, har bir shaxsning iqtisodiy faoliyat yuritishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratilishi mana shu islohotlarning natijasidir. Bu islohotlar mamlakatimiz iqtisodiyotini jahon iqtisodiyotiga uyg'unlashtirishni ham nazarda tutadi. Natijada vatanimiz rivojlanishning tamoman yangi bosqichiga qadam qo'ymoqda.

Bunday tub o'zgarishlar iqtisodiy munosabatlarning murakkablashuviga olib kelishi tabiiy, albatta. Bundan bir necha yil oldin innovatsiya, raqamli iqtisodiyot, blokcheyn, kriptovaluta, klaster kabi iqtisodiy atamalar qulog'imizga chalinsa, bu bizga dahli yo'q, faqatgina chet el iqtisodiyotiga taalluqli atamalar deb qabul qilinar edi. Bugungi kunga kelib esa shu va shunga o'xshash murakkab atamalar va tushunchalarning mohiyatini anglash va ularni hayotga tatbiq qilish siz kabi ertangi kun kadrlari uchun o'ta dolzarb vazifaga aylanib qolmoqda. Siz kelajakda qanday kasb egasi bolmang xoh tadbirkor bo'lasizmi, xoh shifokor yoki o'qituvchi, xoh rahbarlik lavozimida ishlaysizmi, yoki oddiy xizmatchi bo'lasizmi iqtisodiy ta'limni mukammal o'zlashtirishga majbursiz. Chunki

iqtisodiy tafakkur sizning kelajakdagi farovon hayotingizga zamin bo‘lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizning har bir fuqarosi, jamiyatimizning har bir a’zosining farovonligi o‘z navbatida butun mamlakatimizning, jamiyatimizning rivojlangan davlatlar safidan joy olishiga olib keladi.

Aziz o‘quvchi!

Yuqorida aytilganlardan iqtisodiy bilimlarning asoslarini o‘rganishingiz, o‘zingizda iqtisodiy tafakkurni tarkib toptirishingiz, iqtisodiy madaniyatni shakllantirishingiz nechog‘lik zarurligini his qilgan bo‘lsangiz kerak.

Siz fanni o‘zlashtirish mobaynida kitobdagi nazariy materiallarni o‘zlashtirish bilan qanoatlanib qolmang. Har bir o‘zlashtirilgan bobni atrofingizdagi iqtisodiy voqelik bilan uyg‘unlikda o‘rganishga harakat qiling.

Imkoniyat topilishi bilanoq turli iqtisodiyot obyektlariga boring, u joydagi faoliyat bilan jonli ravishda tanishing, o‘rganing, o‘z amaliy kompetensiyalaringizni shakllantiring

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

1. Iqtisodiyot xo‘jalik yuritish tizimi sifatida nimalardan tarkib topgan?
2. Iqtisodiyot fanining kelib chiqishi haqida qisqacha so‘zlab bering.
3. Iqtisodiy jarayon bosqichlarini sanang va biror misol asosida ularni izohlang.
4. Har bir fuqaro uchun iqtisodiyotni o‘rganish hayotiy zarurat ekanligini uchta dalil yordamida asoslang.
5. Kundalik turmushda iqtisodiy bilimlar qachon va qanday vaziyatlarda kerak bo‘ladi?
6. Iqtisodiyot fani nimani o‘rganadi?
7. Iqtisodiyot qanday qismlardan tashkil topgan?

Buni yodda tuting!

- Iqtisodiyot — insonning yashashi va kamol topishining birdanbir vositasi.
- Iqtisodiyotning tarkibiy qismlari: tabiat, odamlar va odamlar tomonidan yaratilgan barcha narsalar.
- Iqtisodiy jarayon bosqichlari: ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash va iste’mol.
- Mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyot – iqtisodiyot fanining bo‘limlaridir.
- Iqtisodiy ta’lim – kelajakdagi farovon hayotingiz kalitidir.

2- MAVZU CHEKLANGANLIK MUAMMOSI

FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Inson Yer yuzida yashab, to‘laqonli hayot kechirishi uchun o‘zida nimalarga muhtojlik va ehtiyoj sezadi? 3 daqiqa ichida bu ehtiyojlar ro‘yxatini tuzing. Agar vaqt yetarlicha bo‘lganda bu ro‘yxatni yana qanchagacha davom ettirishingiz mumkin edi? Umuman olganda, inson ehtiyojlarining poyoni va cheki bormi?
2. 1- rasmda tasvirlangan pillakorning qanday ehtiyojlari bo‘lishi mumkin?
3. 2- rasmda tasvirlangan otaxonning, uning fermer o‘g‘lining va jajji nevarasining qanday ehtiyojlari bor deb o‘ylaysiz?
4. 3- rasmda tasvirlangan maktab o‘quvchilarining qanday ehtiyojlari bor va ularni qondirish uchun nimalar kerak bo‘ladi?
5. 4- rasmdagi chaqaloq ulg‘ayib voyaga yetgunicha unga qanday narsalar kerak bo‘ladi?
6. Dunyodagi eng boy odamlarning ehtiyojlari bormi yoki yo‘qmi? Dunyodagi ayrim qashshoq mamlakatlarda ocharchilik bor. Bunga sabab nimada deb o‘ylaysiz?

Inson — ongli mavjudot. U har doim yaxshi yashashga intilib kelgan. Ayiqning qorni to‘ysa, iniga kirib uxlaydi. Inson esa erishgan narsasi

va mavqei bilan qanoatlanmaydi. U yaxshiroq ovqatlanish, yaxshiroq kiyinish, yaxshiroq turmush sharoitiga ega bo‘lish, yaxshiroq martabaga erishish, yaxshiroq bilim olishga va hokazolarga intilib yashaydi. Insonga har doim nimadir yetishmaydi. Shu bois, inson ehtiyojlarining poyoni va cheki yo‘q deb aytamiz.

Ehtiyoj — insonning muayyan sharoitda yashashi va kamol topishi uchun zarur bo‘lgan narsalarga muhtojligi.

Inson ehtiyojlari ma’lum shaxs yoki guruhga tegishli bo‘lishiga ko‘ra, *shaxsiy ehtiyojlar* va *ijtimoiy ehtiyojlar* kabi turlarga bo‘linadi.

Shaxsiy ehtiyojlar deb alohida olingan shaxsgagina tegishli bo‘lgan shaxsiy gigiyena vositalari, kiyim-kechak, gazeta o‘qish kabi ehtiyojlarga aytiladi. Ijtimoiy ehtiyojlar esa kishilarning yonma-yon, hamjihatlikda hayot kechirishi bilan bog‘liq, birgalashib qondiriladigan, xususan, maktabda bilim olish, jamoat transportidan foydalanish kabi umumiy ehtiyojlaridan iborat bo‘ladi.

Fan tarixiga oid asarlardan iqtiboslar

“Hayvon tabiat ne’matlariga qanoat qiladi. Odamlarga esa tabiat ne’matlari kamlik qiladi. Ular ovqat, kiyim-kechak, uy-joyga ehtiyoj sezadilar. Hayvon tabiat ne’matlarini tayyor holda o‘zlashtirib oladi. Odam esa o‘z mehnati bilan o‘ziga ovqat, kiyim, turar joy yaratadi. Shu maqsadda inson dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug‘ullanishi kerak.”

(Abu Ali ibn Sino)

Inson ehtiyojlarini qondirishi uchun unga turli xil ne’matlar zarur bo‘ladi. Bu ne’matlarning ba’zilari (havo, suv, quyosh yorug‘ligi, issiqligi va hokazolar)ni insonga tabiat tekin in’om etadi. Ularni *erkin ne’matlar* deb ataymiz. Qolganlarini esa inson o‘z mehnati, iqtisodiy faoliyati orqali yaratishi va ishlab chiqarishi lozim bo‘ladi. Ularni *iqtisodiy ne’matlar* deb ataymiz. Inson ehtiyojlari biror-bir moddiy narsa — ne’matni iste’mol qilish yoki biror-bir xizmatdan foydalanish evaziga qondirilishi mumkin. Bunday ne’matlarni yaratish uchun xom ashyo, insonning jismoniy kuchi, bilimi, turli xil mashina va mexanizmlar, asbob-uskunalar, bino va inshootlar zarur bo‘ladi. Bu narsalarning barchasi *resurslar* deb ataladi.

Resurslar o‘z tabiatiga ko‘ra turli-tumandir. Lekin ularni umumlashtirib tabiiy, mehnat va kapital turlarga bo‘lish qabul qilingan.

Resurslar — mahsulot va xizmatlar yaratish uchun asqotadigan barcha narsalar.

Erkin ne'matlar — insonga tabiat in'om etgan tekin ne'matlar.

Iqtisodiy ne'matlar — inson iqtisodiy faoliyati orqali yaratiladigan ne'matlar.

Tabiiy resurslarning manbasi – bu bevosita tabiatning o'zi. Tabiiy resurslarga yer va yer osti qazilma boyliklari, o'rmonlar, suv, havo, quyosh nurini misol qilib keltirish mumkin.

Bunday resurslarning ayrimlari tiklanmaydi (neft, gaz, ko'mir, temir rudasi va h.k). Ayrimlari esa tiklanish xususiyatiga ega. Masalan, yerdan foydalangandan keyin unga yaxshi ishlov berilsa va o'g'itlansa u unumdorligini nafaqat tiklashi , xatto oshirishi ham mumkin.

Mehnat resurslari – bu aholining mehnatga layoqatli qismidir. Bu odamlar ne'matlar yaratish jarayonida o'zlarining jismoniy va ma'naviy qobiliyatlarini jalb qilgan holda qatnashadilar. Aholining bu qismi – aholining iqtisodiy faol qismi deb ham yuritiladi.

Zamonaviy sharoitda mehnat resurslariga qo'yiladigan talablar oldingi davrlardagilarga nisbatan keskin oshib ketgan. Jumladan, ularning bilimi, madaniyati, kasbiy tayyorgarligi, zamonaviy texnologiyalar bilan tanishligi, sog'ligi va h.k.

Uchinchi tur resurslar – bu kapital deb umumiy nom berilgan resurslar bo'lib, unga binolar, inshootlar, texnika vositalari, xom ashyo resurslari, yo'llar va aloqa vositalari kabi moddiy narsalar bilan bir qatorda moliyaviy mablag'lar ham kiradi. Kapital resurslarga oid moliyaviy mablag'lar o'z ichiga ne'matlar yaratilishi jarayoniga jalb qilish mumkin bo'lgan chet el valutasi, qimmatbaho metallar, aholining va korxonalarning pul mablag'lari kabilarni oladi.

Zamonaviy iqtisodiyotda ma'lumot va vaqt kabi o'ziga xos resurslarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, axborot kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanayotgan sharoitda bunday resurslarning roli beqiyosdir.

Biz yuqorida ta'kidlaganimizdek inson ehtiyojlarining chegarasi yo'q. Ular ko'payib va turli-tumanlashib boraveradi. Resurslar miqdori esa, afsuski, chegaralangan. Shu bois, insonning hamma yetishmovchiliklari va ehtiyojlarini to'la qondirishning iloji yo'q. Iqtisodchilar bu muammoni *cheklanganlik muammosi* deb yuritishadi va u iqtisodiyotning asosiy muammosi hisoblanadi.

Odamlarning cheklangan resurslardan foydalanib, poyonsiz ehtiyojlarini to‘laroq qondirishga qaratilgan oqilona xo‘jalik yuritish yo‘l-yo‘riqlarini iqtisodiyot fani o‘rganadi.

Cheklanganlik muammosi — cheksiz ehtiyojlar va cheklangan resurslar o‘rtasidagi nomutanosiblik.

Cheklangan resurslardan qay tarzda foydalanish insonning ma’naviyatiga ham bog‘liq. Ma’naviy jihatdan qashshoq odam o‘z ehtiyojlarining moddiy jihatini e’tiborga oladi, xolos. Bu esa oxir-oqibat, insonning turmush tarziga, uning jamiyatdagi mavqeiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, har bir inson o‘z ehtiyojlarining ma’naviy va moddiy jihatiga ahamiyat berishi lozim. Yuksak ma’naviyatli inson o‘z moddiy ehtiyojlarini qondirar ekan, atrofdagi odamlarga va umuman, jamiyatga ziyon-zahmat yetkazmaslikka intiladi.

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

1. Nega inson ehtiyojlarining poyoni yo‘q? Cheksiz ehtiyojlar qanday qondiriladi?
2. Qishloqda va shaharda yashayotgan oilalar ehtiyojlarining turlicha bo‘lish sabablari nimada?
3. Cheklanganlik muammosining mohiyati nimada? Unga 5 ta misol keltiring.
4. Oila bo‘lib yashashning qanday iqtisodiy afzalliklari bor?
5. Har bir resurs turiga uchtadan misol keltiring va ularning bir-biridan farqlarini ayting.
6. Sizga yana qancha pul ajratilsa, sizning ehtiyojlaringiz to‘lig‘icha qondiriladi deb o‘ylaysiz?
7. Nima sababdan sizga istaganingizcha pul ajratilmaydi? Javobingizni resurslarning chegaralanganligi bilan asoslang.

Buni yodda tuting!

- Inson tirik ekan, u doimo o‘zida ma’lum ne’matlarga muhtojlikni — ehtiyojni his qilib yashaydi.
- Inson ehtiyojlari cheksizdir.
- Biror ne’matni yaratish uchun bizga ishlab chiqarish resurslari zarur bo‘ladi.
- Ishlab chiqarish resurslari ehtiyojlardan farqli o‘laroq chegaralangandir.
- Iqtisodiyotning asosiy muammosi — inson ehtiyojlarining cheksizligi va bu ehtiyojlarni qondirish uchun ishlab chiqarish resurslarining yetishmasligidadir.
- Iqtisodiyot fani cheklangan resurslardan foydalanib insonning cheksiz ehtiyojlarini to‘laroq qondirish yo‘llarini o‘rganadi.

3- MAVZU TANLOV VA UNING MUQOBIL QIYMATI

FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

Shohjahonning tug‘ilgan kuniga dadasi o‘ziga yoqqan biror narsa olishi uchun 100 000 so‘m pul berdi. U anchadan beri futbol formasi, yangi oyoq kiyimi (krossovka) va futbol to‘pi sotib olmoqchi bo‘lib yurgan edi. Shohjahon do‘konlarni aylanib yurib, bu pulga o‘zi xohlagan narsalardan faqat bittasini olish imkoniyati borligini aniqladi va nima olsam ekan, deb o‘ylanib qoldi. Shohjahon uchta imkoniyatdan faqat bittasini tanlashga majbur. Iqtisodiyotda bunday imkoniyatlar muqobil imkoniyatlar deb yuritiladi.

Aytaylik, Shohjahon uchun bu narsalarni sotib olish quyidagi tartibda qoniqish hissini beradi: 1) krossovka; 2) futbol to‘pi; 3) futbol formasi. Shu bois, u krossovkani sotib oldi, chunki unga bu eng katta qoniqish hissini beradi. Shohjahonning bu tanlovi futbol to‘pi ola olmasligi bilan unga “qimmatga tushadi”. Iqtisodchilar buni — tanlovning muqobil qiymati deb atashadi. Demak, Shohjahon tanlovining, ya’ni krossovkaning muqobil qiymati — futbol to‘pi bilan o‘lchanadi.

1. Aytingchi, Shohjahon nima sababdan uch imkoniyatdan birini tanlashga majbur bo‘ldi?
2. Shohjahon nima sababdan krossovkani tanladi?
3. Nega Shohjahon tanlovining muqobil qiymati futbol formasi bilan o‘lchanmayapti?
4. Siz Shohjahonning o‘rnida bo‘lganingizda bu uch imkoniyatdan qay birini tanlagan bo‘lar edingiz? Nega?
5. Tanlovingizning muqobil qiymatini aniqlang.

Insoniyat ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo‘lgan barcha tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishning imkoni yo‘q. Chunki iqtisodiy resurslar cheklangan. Shu bois, nafaqat alohida olingan shaxs, balki korxonalar va firmalar, davlat va jamiyat miqyosida ham cheklanganlik muammosiga duch kelinadi. Har qanday firma ham o‘z faoliyatini kengaytirish payida bo‘lib, ko‘proq sifatli mahsulot turlarini ishlab chiqarishga intiladi. Davlat ta’lim, sog‘liqni saqlash sohalariga va atrof-muhit muhofazasiga imkoni boricha ko‘proq mablag‘ ajratishni xohlaydi. Lekin afsuski, imkoniyatlar, to‘g‘rirog‘i, ishlab chiqarish resurslari cheklangan. Cheklanganlik muammosi bor ekanki, mavjud imkoniyatlardan birini tanlashga, ya’ni cheklangan resursni nimaga sarflash haqida bir qarorga kelishga to‘g‘ri keladi. *Tanlov* deb cheklangan resurslardan foydalanish imkoniyatlari orasidan birini tanlashga aytiladi.

Tanlov — cheklangan resurslardan foydalanish imkoniyatlari orasidan birini tanlash.

Bankdan qarz olmoqchi bo‘lgan firma oldida bu pullarga yangi dastgohlar sotib olib, ishlab chiqarishni kengaytirish yoki eski dastgoh va binolarni ta’mirdan chiqarib, ishchilarining mehnat sharoitlarini yaxshilash muammosi turadi. Davlatdan 10 gektar yer olgan fermer xo‘jaligi oldida esa, bahorda yerga qaysi ekinlarni ekish muammosi ko‘ndalang turadi. Shahar hokimligi o‘z ixtiyoridagi ma’lum miqdordagi mablag‘ni yo‘llarni ta’mirlash yoki yangi maktab qurishga sarflash haqida bosh qotiradi. Davlat miqyosida esa sog‘liqni saqlash sohasiga ko‘proq pul ajratish kerakmi yoki neftni qayta ishlash zavodini qurish kerakmi, degan muammoga duch kelinadi.

Yuqorida keltirilgan misollarda bir nechta imkoniyatdan bittasini tanlashga, qolganlaridan esa voz kechishga to‘g‘ri keladi. Tanlov natijasida voz kechilgan imkoniyatlar ichidan eng katta naf keltiruvchi imkoniyatga *tanlovning muqobil qiymati* deb aytiladi.

Muqobil imkoniyatlar — birini tanlaganda qolganlaridan voz kechiladigan imkoniyatlar.

Tanlovning muqobil qiymati — tanlov natijasida voz kechilgan imkoniyatlar ichidan eng katta naflisi.

Tanlov amalga oshirilayotgan hamma hollarda ham imkoniyatlarning biri tanlanib, qolganlaridan voz kechilmaydi. Shunday hollar ham bo‘ladiki, tanlov amalga oshirilayotgan vaqtda hamma imkoniyatlar bilan

ham murosa qilishga to‘g‘ri keladi, ya’ni barcha imkoniyatlardan ham qisman-qisman foydalaniladi. Aytaylik, tijorat bilan shug‘ullanuvchi xususiy do‘kon egasi Abdullayev 10 800 000 so‘mga ulgurji savdo firmasidan krem va shampun sotib olmoqchi. Shampunning narxi 27.000 so‘m bo‘lib, 10.800.000 so‘mga undan jami 400 dona sotib olish mumkin. Kremning narxi esa 18.000 so‘m bo‘lib, 10.800.000 so‘mga jami 600 dona krem olish mumkin. Lekin Abdullayev shampun ham, krem ham xarid qilishi kerak. Shu bois Abdullayev yarim puli — 5.400.000 so‘mga 200 dona shampun, qolgan yarmiga esa 300 dona krem sotib olishga qaror qildi. Ya’ni har ikkala imkoniyati bilan ham murosaga borib, ulardan qisman-qisman bo‘lsa-da foydalandi. Bunday tanlov usuli iqtisodiyotda *murosali (yoki aralash) tanlov* deb yuritiladi.

Shampun miqdori	Krem miqdori
0	600
100	?
?	250
200	300
400	0



1. Abdullayev 10.800.000 so‘m pulning hammasiga yana qanday miqdorlarda shampun va krem sotib olishi mumkin edi? Bunday imkoniyatlarning 4- 5 tasini aniqlab jadvalni to‘ldiring.
2. Jadvaldan foydalanib, koordinatalar tekisligida nuqtalarni belgilab, tutashtirib chiqing. Koordinata o‘qlari va bu chiziq bilan chegaralangan soha *ishlab chiqarish imkoniyatlari sohasi* deyiladi.
3. Ushbu soha nima sababdan bunday nom bilan ataladi?
4. Bu soha ichida yotgan (150; 250) nuqtaga mos kelgan imkoniyatni tavsiflab bering. Bu holatda pul mablag‘idan samarali foydalanilyaptimi? Javobingizni asoslab bering.
5. Bu soha tashqarisida yotgan (250; 350) nuqtaga mos kelgan imkoniyat haqida nima deya olasiz? Bu holat Abdullayevning imkoniyat doirasidami? Javobingizni asoslab bering.
6. Pul mablag‘idan to‘liq foydalanilgan imkoniyatlarga mos kelgan nuqtalardan bir nechtasini ko‘rsating va grafikda belgilang.

Murosali tanlov— bir vaqtning o‘zida bir necha imkoniyatlardan qisman-qisman foydalanish.

Qadriyatlar!

1. Mashhur ma’rifatparvar Abdulla Avloniyning “Iqtisod deb, pul va mol kabi ne’matlarning qadrini bilmoqqa aytilur. Mol qadrini biluvchi kishilar o‘rinsiz yerga bir tiyin ham sarf qilmas, o‘rni kelganda so‘mni ham ayamas”, degan so‘zlarini sharhlang.
2. Ota-bobolarimizning “bir kam dunyo” degan naqli nima haqida ekanligi bo‘yicha o‘z fikringizni bildiring.
3. “Rizq” va “nafs” so‘zlarini qanday tushunasiz?

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

1. O‘quv qurollari do‘koniga kirdingiz. Cho‘ntagingizda 1000 so‘m pul bor. Pulingiz bitta umumiy daftar yoki bitta ruchka olishga yetadi. Siz bu narsalarning qaysi birini sotib olgan bo‘lar edingiz? Nima sababdan bunday tanladingiz? Tanlovingizning muqobil qiymati nimadan iborat bo‘ladi?
2. Nima sababdan odam uchun tanlovning muqobil qiymatini bilish zarur?
3. Aytaylik, tumaningiz markazida bo‘sh yer maydoni bor. Hokimiyat bu yerga kasalxona, bozor, tennis korti yoki maktab qurishi mumkin. Afsuski, bu maydonga faqat bitta muassasani qurish mumkin. Ikkinchi tomondan esa, hokimiyatning faqatgina bitta muassasani qurishga mablag‘i bor. Tanlash imkoniyati sizga berilsa, siz nimani qurishga qaror qilgan bo‘lar edingiz? Tanlovingizni asoslang va uning muqobil qiymatini aniqlang.

Buni yodda tuting!

- Cheklanganlik muammosi odamlardan ehtiyojlari uchun zarur tovar va xizmatlar orasidan ba’zilarini tanlashni taqozo etadi.
- Xuddi odamlarga o‘xshab, butun davlat va jamiyat ham tanqislik sezadi, chunki ularning ham ehtiyojlari cheksiz, resurslari esa cheklangan bo‘ladi.

4- MAVZU ISHLAB CHIQARISH VA UNING OMILLARI

1

2

3

4

5

6

FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Qaysi rasmlardagi ne'matlar tabiat tomonidan, inson ishtirokisiz vujudga kelgan?
2. 2- rasmdagi nonlar tayyor bo'lgunicha qanday bosqichlardan o'tgan?
3. 3 — 6- rasmlardagi narsalarning qaysi birining vujudga kelishida inson ishtiroki ko'proq talab qilinadi deb o'ylaysiz?
4. Rasmdagi narsalarning vujudga kelishida inson ishtirokidan tashqari yana nimalar bo'lishi talab qilinadi.

Insonlarning o'z ehtiyojlarini qondirish maqsadida iqtisodiy ne'matlar yaratish jarayoni *ishlab chiqarish* deb yuritiladi. Iqtisodchilar iqtisodiy ne'matlarni ishlab chiqaruvchi korxonalarni — *ishlab chiqaruvchilar*, ularni iste'mol qiluvchilarni esa *iste'molchilar* deb ataydilar.

Sut, non, avtomobil, poyabzal, koptok, kitob, mehmonxona yoki sartarosh xizmati kabilar hozirgi zamonda iqtisodiyot sohasi tomonidan ishlab chiqarilayotgan tovarlar va ko'rsatilayotgan xizmatlarning bir qismi, xolos. Ishlab chiqarilayotgan tovarlar va ko'rsatilayotgan xizmatlarning turi shu qadar ko'p va xilma-xilki iqtisodchilar ularni bir necha yo'l bilan quyidagi turlarga ajratadilar:

1. Ishlab chiqarish iqtisodiyotning qaysi sohasida ro'y berayotganligiga qarab:

— iqtisodiyotning birlamchi sohasida foydali qazilmalar, suv, gaz, neft, yog‘och kabi tabiiy ne’matlar xom ashyo sifatida tabiatning o‘zidan bevosita olinadi. Bu ne’matlarni biz ishlab chiqarishning tabiiy omili deb aytgan edik.

— iqtisodiyotning ikkilamchi sohasida xom ashyo qayta ishlanadi va kiyim-kechak, konfet, daftar, velosiped kabi tayyor mahsulotga aylantiriladi.

— iqtisodiyotning uchlamchi yoki xizmat ko‘rsatish sohasida esa turizm, teatr tomoshalari, tibbiy va shu kabi xizmatlar ko‘rsatiladi.

2. Ishlab chiqarish kim tomonidan amalga oshirilayotganiga qarab:

— davlat sektoridagi ishlab chiqarish;

— xususiy sektordagi ishlab chiqarish.

3. Ishlab chiqarilgan mahsulot kimga mo‘ljallanganligiga qarab:

— iste’molchilar uchun tayyor mahsulot ishlab chiqarish;

— ishlab chiqaruvchilar uchun mahsulot ishlab chiqarish.

4. Ishlab chiqarish omillaridan foydalanish darajasi bo‘yicha:

— kapitaldan ko‘p foydalaniladigan ishlab chiqarish. Masalan, kimyo, neft va gaz, avtomobil sanoatida inshoot, dastgoh, asbob-uskunalardan ko‘p foydalaniladi va ularning ishlab chiqarish omillaridagi ulushi kattadir.

— ishchi kuchidan ko‘p foydalaniladigan ishlab chiqarish. Masalan, turizm, chakana savdo, teatr tomoshalari kabi xizmat ko‘rsatish sohalarida ishchi kuchining ishlab chiqarish omillari tarkibidagi ulushi kattaroq.

Ishlab chiqarish — inson ehtiyojlarini qondirish maqsadida iqtisodiy ne’matlar yaratish jarayoni.

Ishlab chiqaruvchilar, odatda, *moddiy* va *nomoddiy* ishlab chiqarish sohalariga bo‘linadi. Moddiy sohada moddiy ko‘rinishdagi mahsulotlar, tovarlar ishlab chiqariladi. Moddiy ishlab chiqarish sohasiga sanoatdagi zavod va fabrikalarni, qishloq xo‘jaligidagi fermer va dehqon xo‘jaliklarini misol qilib keltirish mumkin.

Ishlab chiqaruvchilar — iqtisodiy ne’matlarni yaratuvchi korxonalar yoki shaxslar.

Iste’molchilar— iqtisodiy ne’matlarni iste’mol qiluvchilar.

Ishlab chiqarishning nomoddiy sohasida esa, asosan, turli ko‘rinishdagi xizmatlar ko‘rsatiladi. Bular jumlasiga ta’lim, sog‘liqni saqlash, yo‘l

xavfsizligi, mudofaa, davlat boshqaruvi, madaniyat kabi sohalar kiradi.

Xizmatlarning moddiy ko‘rinishdagi mahsulotlardan farqi, ularni moddiy narsalarni jamg‘argan kabi omborda jamg‘arib bo‘lmaydi. Xizmatlar ishlab chiqarish jarayonining o‘zidayoq iste’mol qilinadi, ya’ni ulardan foydalaniladi.



Ma’lumki, biror mahsulotni ishlab chiqarish uchun resurslar kerak bo‘ladi. Ishlab chiqarishga jalb qilingan resurslar faqat manba, zaxira sifatida emas, balki uni harakatga keltiruvchi, unga ta’sir etuvchi omil sifatida ham qaraladi. Shu sababli, ishlab chiqarishga jalb etilgan resurslar boshqacha — *ishlab chiqarish omillari* deb ham ataladi. Ular, odatda, tabiiy, kapital va ishchi kuchi omillariga bo‘linadi. *Tabiiy omillarga* ishlab chiqarishda foydalaniladigan barcha tabiiy resurslar kiradi.

Kapital omillar deb ishlab chiqarish jarayoniga jalb etiladigan kapital resurslarga aytiladi. Iqtisodchilar ularni boshqacha — ishlab chiqarish vositalari, deb ham ataydilar. Ularga bino va inshootlar, asbob-uskuna va mashina-mexanizmlar, turli-tuman dastgohlar va jihozlar, xom ashyolar va boshqa son-sanoqsiz turdagi narsalar kiradi. *Ishchi kuchi omillari* deganda, ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilinadigan mehnat resurslari tushuniladi.

Tabiiy omillar— ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilinadigan barcha tabiiy resurslar.

Kapital omillar — ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilinadigan barcha kapital resurslar.

Ishchi kuchi omillari — ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilinadigan barcha mehnat resurslari.

Keyingi paytlarda ishlab chiqarishning tabiiy, mehnat va kapital omillari qatoriga to‘rtinchi omil — odamlarning iqtisodiy qaror qabul qilishi, ishlab chiqarishni uyushtirishi va tashkil qilishi bilan bog‘liq faoliyati — *tadbirkorlik layoqati*ni ham kiritishmoqda.

Qurilish uchun eng zarur bo‘lgan sement ishlab chiqarishni tashkil qilish misolida ishlab chiqarish omillarini aniqlaylik. Ma’lumki, sement ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun birinchidan, tabiiy resurs — yer maydoni va sement olinadigan tog‘ jinsi bo‘lishi kerak. Ikkinchidan, sement ishlab chiqarish uchun mehnat resurslari — odamlar— ishchi kuchi

talab etiladi. Mehnat omili — odamlarsiz, ularning jismoniy kuchisiz, aqli va malakasisiz hech narsa qilib bo‘lmaydi. Uchinchidan, tog‘ jinslariga ishlov berishda qo‘llaniladigan asbob-uskuna, bino va inshootlar, ya’ni kapital resurslar ham bo‘lishi kerak.

Bu omillarni o‘zaro birlashtirish — to‘rtinchi omil — tadbirkorlik layoqati evaziga amalga oshiriladi. Tadbirkor sement ishlab chiqarish imkoniyatlarini hammadan oldin ko‘rib, tashabbusni qo‘lga oladi. Bu ishni amalga oshirish uchun uchala omilni birlashtiradi. Mavjud resurslarni jalb etadi, kuch-g‘ayrati, bilimini sarflaydi, ma’lum darajada tavakkal qiladi va ishbilarmonligini ishga soladi. Oxir-oqibat uning xatti-harakatlari, tadbirkorligi sement ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishga sababchi omil bo‘ladi. Demak, ishlab chiqarish tabiiy, ishchi kuchi, kapital va tadbirkorlik layoqati omillarining birlashishidan yuzaga kelar ekan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik layoqati omili alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadbirkorlik layoqati — odamlarning iqtisodiy qarorlar qabul qilishi bilan bog‘liq tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish layoqati.

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

1. Tumaningizdagi ishlab chiqarish korxonalarini sanang.
2. Tumaningizdagi biror korxona misolida bu korxonaning qanday resurs turlaridan foydalanayotganini gapirib bering.
3. Tadbirkorlik layoqati va ishchi kuchi omili orasida qanday farq bor?
4. Asaka shahridagi avtomobil zavodining ishga tushirilishi natijasida o‘tgan yillar mobaynida respublikamizda qanday o‘zgarishlar sodir bo‘ldi?
5. Iqtisodchilar ishlab chiqarishni qanday turlarga ajratadilar?
6. So‘nggi yillarda respublikamizda yetishtirilayotgan paxtaning ko‘p qismi qayta ishlanib, tayyor mahsulot shaklida chet elga sotilayapti. Buning mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun qanday afzalliklari bor deb o‘ylaysiz?

Buni yodda tuting!

- Ishlab chiqarish jarayonida iqtisodiy ne’matlar yaratiladi.
- Ishlab chiqarishning tabiiy, kapital, ishchi kuchi va bu uchala omilni birlashtiruvchi tadbirkorlik layoqati omillari mavjud.
- Ishlab chiqarishning bir qancha turlari mavjud.

5- MAVZU MEHNAT TAQSIMOTI VA IXTISOSLASHUV



FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

Yuqoridagi chizmada muzqaymoq ishlab chiqarish uchun zarur resurslar, ularning kelib chiqishi, qaerda tayyorlanishi qisman keltirilgan. Muzqaymoq ishlab chiqarishda yana qanday resurslar jalb etilishi, ularning qaerdan keltirilishini aniqlab sxemani to‘ldiring (lozim bo‘lsa, yana qo‘shimcha kataklar chizing).

Muzqaymoq ishlab chiqarishda o‘nlab odam ishtirok etadi va ularning har biri o‘ziga tegishli bo‘lgan bitta turdagi vazifani bajaradi.

1. Ishning bunday taqsimlanishining qanday afzalligi bor?
2. Bu jarayonga siz qanday o‘zgartirish kiritgan bo‘lar edingiz?

Ishlab chiqarish jarayoni resurslarning o‘zaro birikishi natijasida vujudga keladi. Resurslarning muayyan miqdoridan ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori ushbu resursning *mahsuldorligi* deb ataladi. Har bir korxonaning maqsadi kam resurs sarflab, ko‘p miqdorda mahsulot ishlab chiqarishdan, ya’ni mahsuldorlikni oshirishdan iborat bo‘ladi. Chunki ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmi nafaqat qancha ishchi ishlayotganiga, balki qanday ishlayotganiga ham bog‘liq bo‘ladi. Bu ko‘rsatkich mehnat unumdorligi yordamida aniqlanadi.

Mehnat unumdorligi deb vaqt birligi ichida bir birlik resursdan foydalanib ishlab chiqarilgan tovar va xizmat miqdoriga aytiladi. Ya’ni,

$$U=Q:T$$

bu yerda Q ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori, T—shu mahsulotni ishlab chiqarishga sarflangan vaqt, U—mehnat unumdorligi.

Quyidagi omillar mehnat unumdorligining oshishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi:

— korxonadagi ishchilarning malakasi, ularning kasb mahorati;
— ishlab chiqarish dastgohlari va asbob-uskunalarining sifati;
— ishlab chiqarish texnologiyasining to‘g‘ri tanlanganligi;
— mehnat taqsimotining to‘g‘ri tashkil etilganligi.

Mahsuldorlik — resurslarning muayyan miqdoridan ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori.

Texnologiya— mahsulot ishlab chiqarishda qaysi resurslardan foydalanish, qanday usul va ketma-ketlikda ishlov berish yo‘l-yo‘rig‘i.

Mehnat unumdorligi — vaqt birligi ichida bir birlik resursdan foydalanib ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar miqdori.

Biror korxonaga borib mahsulot yaratish jarayonini kuzatgan bo‘lsangiz, xom ashyoga ishlov berish jarayoni ishchilar orasida taqsimlab olingan bo‘lib, har bir ishchi o‘ziga ajratilgan ishnigina bajaradi. Ishni ishchilarga bunday taqsimlab berishga, o‘z nomi bilan *mehnat taqsimoti* deb ataladi. Mehnat taqsimotining asosida — ishni tezroq bajarish, kamroq resurs sarflab, ko‘proq yaxshi, sifatli mahsulot ishlab chiqarish, ya’ni mahsuldorlikni oshirish yotadi. Mehnat taqsimoti natijasida, odamlar turli xil kasblar bo‘yicha ixtisoslashadi. Bularning hammasi birgina maqsad — mehnat unumdorligini oshirishga qaratilgan bo‘ladi.

Mehnat taqsimoti — mahsulot ishlab chiqarish jarayonining ishchilar o‘rtasida ishni taqsimlash asosida tashkil qilinishi.

MEHNAT TAQSIMOTINING

IJOBIY TOMONLARI:

— odamlar yaxshi uddalaydigan ishga ixtisoslashadi;
— arzon bahoda ko‘proq mahsulot ishlab chiqariladi;
— mashina va dastgohlarni ishlatish imkoniyati tug‘iladi;
— har bir ishchi o‘z ishini yaxshiroq va tezroq bajarish malakasiga ega bo‘lib boradi;
— ishchining bir joydan ikkinchi joyga ko‘chishiga hojat qolmaganligi uchun vaqti tejaladi;
— ishchilarning biror kasbni egallashi osonlashadi.

SALBIY TOMONLARI:

— faqat bir xil ishni bajarish ishchilarni toliqtirishi mumkin;
— hamma tovarlar bir xil qolipda ishlab chiqariladi;
— ishchilarning mahorat darajasi pasayib boradi, chunki ularning ishini mashinalar bajara boshlaydi;
— unumdorlik barcha ishchilarning ishlash tezligiga bog‘liq bo‘lib qoladi;
— ishchilar bir xil ishni bajarishga ixtisoslashgani uchun ishdan bo‘shatilganda ishga joylashish muammosiga duch keladi.

Ishlab chiqarish taraqqiyoti natijasida ba'zi bir mahsulot turlarini yaratish jarayoni murakkablashib boradi. Bitta korxona miqyosida bunday mahsulotlarni ishlab chiqarishning iloji bo'lmay qoladi. Shu sabab, korxonalar o'rtasida bu mahsulotni yaratish jarayoni, ya'ni ish o'zaro taqsimlab olinadi. Natijada, korxonalar o'rtasida mehnat taqsimoti yuz berib, ular bir butun mahsulotni emas, balki uning ma'lum bir qismini ishlab chiqarishga moslashadi, ya'ni ixtisoslashadi.

Shu tariqa bir necha korxonalardan iborat, muayyan mahsulotni ishlab chiqaruvchi tarmoq vujudga keladi. Misol tariqasida avtomobil ishlab chiqarishni olaylik. Ma'lumki, avtomobil yuzdan ortiq katta-kichik detallar, qismlardan tashkil topgan. Uning bitta detali, masalan, g'ildiraklari bitta korxonada ishlab chiqarilsa, oynasi ikkinchi korxonada, motori esa uchinchi korxonada ishlab chiqariladi va hokazo. Xullas, avtomobil qismlarini ishlab chiqarish bilan o'nlab korxonalar shug'ullanadi. Oxiri yig'uv korxonasida bu qismlardan avtomobil yig'iladi. Shu tariqa bu korxonalar birgalikda avtomobil ishlab chiqarish tarmog'ini tashkil qiladi va har biri ma'lum detalni ishlab chiqarishga ixtisoslashadi. Korxonalarning ma'lum bir mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha bitta tarmoqqa birlashishi ham mehnat unumdorligini oshirishga qaratilgan bo'ladi.

O'z navbatida, bir-biriga yaqin turdagi mahsulot ishlab chiqarayotgan tarmoqlar birlashib, ishlab chiqarishning yirikroq tarmoqlarini, ular ham birlashib, ishlab chiqarish sohalarini tashkil qiladi.

An'analar, mahalliy zarurat tufayli bir butun hudud, hatto mamlakatlar ham ko'proq mahsulotlarning ayrim turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashadi. Masalan: Braziliya – qahva, Hindiston – choy ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Bunday ixtisoslashuv *hududiy ixtisoslashuv* deyiladi.

Ixtisoslashuv — biror mahsulot turini yoki mahsulotning bir qismini ishlab chiqarish bo'yicha korxonalar o'rtasidagi mehnat taqsimoti.

Hududiy ixtisoslashuv — sharoit, an'analar, mahalliy imkoniyatlar tufayli butun bir hudud mahsulotning biror turini ishlab chiqarishga moslashuvi.

Ixtisoslashuvning bir qator afzalliklari bo'lsa-da, quyidagi omillar ixtisoslashuvni amalga oshirishga yo'l qo'ymaydi:

1. Har qanday ishlab chiqarishni mayda qismlarga qanchalik ko'p bo'lmang muayyan sondagi bo'linishdan keyin bu qismlarni yanada maydaroq qismlarga yoki jarayonlarga bo'lishning iloji yo'q bo'lib qoladi.

2. Mahsulotni ayirboshlash ham ixtisoslashuvga ta'sir qiladi. Masalan, fermer xo'jaligi kartoshka yetishtirishga ixtisoslashgan bo'lsa va

kartoshkaning bahosi bir necha yil surunkasiga arzon bo‘laversa, fermer o‘z yerida boshqa ekin ekishga o‘tishi mumkin.

3. Ixtisoslashuvga bozordagi talab ham ta’sir qiladi. Masalan, mamlakatimiz avtomobil sanoati “Malibu” avtomobilini “Spark” avtomobiliga qaraganda ancha kam ishlab chiqaradi. Chunki “Spark” tejamkor va arzonligi uchun uni olishni xohlovchilar soni ko‘proq.

4. Mahsulotni katta hajmda bir joyda ishlab chiqarilganda uni iste’molchilarga yetkazish ko‘p xarajat va vaqtni talab qiladi.

5. Iste’molchilar katta zavod va fabrikalarda ishlab chiqarilgan mahsulotga nisbatan hunarmandlar tomonidan mahalliy mahsulotlarni xush ko‘rgan hollar ham ko‘p. Masalan, ayollar ayrim hollarda fabrikalarda tikilgan kiyimlarga qaraganda kichik tikuv atelyesida maxsus buyurtma asosida tikilgan kiyimlarni afzal ko‘radilar.

6. Turizm yoki sartaroshlik kabi xizmat turlarini yirik korxonalardan ko‘ra kichik shaxobchalar amalga oshirgani qulayroq.

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

1. Mehnat unumdorligi nima va unga ta’sir qiluvchi omillarni sanang.
2. Mahsuldorlik va mehnat unumdorligining o‘zaro farqini ayting.
3. Mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvdan ko‘zlangan asosiy maqsad nima?
4. Ixtisoslashuvning afzalliklari hamda kamchiliklarini sanang.
5. Ixtisoslashuvni aniq misollar yordamida tushuntiring.
6. Hududiy ixtisoslashuv nima? Mamlakatimizdagi biror-bir mahsulotni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan viloyat, tuman, hududlarni aniqlang.
7. Ixtisoslashuvni restoran xizmati ko‘rsatishga nisbatan televizor ishlab chiqarishida yo‘lga qo‘yish osonroq ekanligini asoslab bering.
8. “Ixtisoslashuvga bozordagi talab ta’sir qiladi” degan jumlani o‘z so‘zlaringiz bilan tushuntirib bering.

Buni yodda tuting!

- Iqtisodiy rivojlanish zamirida mehnat unumdorligini oshirish yotadi.
- Mehnat unumdorligiga mehnat taqsimoti, ishchi xodimlar malakasi, texnologiya va asbob-uskunalarning holati ta’sir ko‘rsatadi.
- Mehnat taqsimotining bir qator ijobiy va salbiy tomonlari mavjud.
- Ixtisoslashuvning asosiy maqsadi ishlab chiqarish unumdorligini oshirish va ishlab chiqaruvchilar imkoniyatlarini kengaytirishdir.

6- MAVZU IQTISODIY TIZIMLAR

A

Mamlakatda “natural xo‘jalik” deb ataluvchi iqtisodiy tizim hukm suradi. Bunda:

— mamlakat aholisi uchun zarur bo‘lgan barcha mahsulotlar mamlakat hududida ishlab chiqariladi.
— iste’mol uchun zarur mahsulotni har bir oila o‘zi ishlab chiqargan mahsulotga ayirboshlaydi. Chunki bu mamlakatda pul yo‘q.
— mamlakatda ishsizlik yo‘q.
— odamlar kam turdagi ne’matlar bilan qanoatlanadilar.

B

Mamlakatda barcha iqtisodiy munosabatlar qat’iy rejalar asosida amalga oshiriladi. Bunda:

— ishlab chiqarish hajmi, tovarlar va xizmatlar narxlari, ish haqi o‘lchami davlat tomonidan qat’iy belgilanadi.
— mahsulotlar davlat tomonidan taqsimlanadi.
— asosiy mulk davlatga tegishli.
— iqtisodiyot davlat tomonidan buyruqlar asosida boshqariladi.

D

Mamlakatda iqtisodiyot tadbirkorlik asosiga qurilgan. Bunda:

— xususiy mulk keng tarqalgan.
— tadbirkorlikka keng yo‘l berilgan.
— qanday mahsulotni, qanday hajmda ishlab chiqarishni tadbirkorning o‘zi hal qiladi.
— mahsulot narxi bozorda belgilanadi.
— iqtisodiyot bozor omillari orqali boshqariladi.
— davlat iqtisodiyotga minimal darajada ta’sir o‘tkazadi.

FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Mamlakatlardagi iqtisodiy tizimlarni o‘zaro taqqoslang.
2. Qaysi mamlakatda iqtisodiy faollik yuqoriroq? Nima sababdan?
3. Qaysi mamalakatdagi iqtisodiy tizimni hozirgi paytda uchratishning iloji yo‘q? Nima sababdan?
4. Qaysi mamlakatda mahsulotlar sifatliroq bo‘ladi? Bunga sabab nima?
5. Qaysi mamlakatda odamlar uchun yashash yaxshiroq?
6. Siz har qaysi mamlakatning iqtisodiy tizimiga qanday o‘zgartirishlar kiritgan bo‘lar edingiz? Fikringizni asoslang.

Ma'lumki, har qanday davlatda, jamiyatda iqtisodiyotning asosiy vazifasi resurslarning taqchilligi sharoitida mavjud resurslardan foydalanishning eng samarali va oqilona yo'llarini tanlab, mamlakat fuqarolarining ehtiyojlarini to'laroq qondirishdan iborat. Bu maqsadda iqtisodiyotning quyidagi uchta asosiy savoliga javob topish muammosiga duch kelinadi: *Nima? Qanday? Kim uchun?*

Bu uchta savol har qanday *iqtisodiy tizim* — mamlakatdagi (jamiyatdagi) xo'jalik yuritish tizimi uchun umumiy bo'lib, uni har bir tizim o'zicha, turlicha hal qiladi. Tizimlar bu muammoni qanday hal qilishiga qarab *an'anaviy iqtisodiyot*, *bozor iqtisodiyoti*, *markazlashgan rejali iqtisodiyot* va *aralash iqtisodiyot* kabi turlarga ajratiladi.

Iqtisodiy tizim — jamiyat (mamlakat) iqtisodiy hayotini tashkil qilish shakli.



An'anaviy iqtisodiyot tizimi — Nima? Qanday? Kim uchun? degan savollarga jamiyatda saqlanib kelayotgan yuz yillik an'analarga muvofiq javob beradi. Mahsulot ota-bobolardan meros bo'lib kelayotgan usullar yordamida ishlab chiqariladi, eski urf-odatlarga ko'ra taqsimlanadi. Bunday iqtisodiyot turi juda qadimgi bo'lib, natural xo'jalik paydo bo'lishi bilan boshlangan. Hozirda esa qoloq, butun dunyodan ajralib yashayotgan, tashqi dunyo bilan aloqa qilish va borish qiyin bo'lgan tundra, Afrika va Amazonka chakalakzorlari, Sibir taygasi, okeanlardagi kichik orolchalarda va baland tog'larda istiqomat qilayotgan jamoa va qabilalarda uchratish mumkin.

An'anaviy iqtisodiyot — iqtisodiyotning asosiy savollariga jamiyatdagi an'analarga asoslanib javob beradigan iqtisodiy tizim.

Markazlashgan rejali iqtisodiyot tizimida deyarli barcha ishlab chiqarish vositalari davlat tasarrufida bo'lib, barcha iqtisodiy yechimlar,

nimani qancha miqdorda, qay tariqa ishlab chiqarish ham oldindan rejalashtirilib, markazda o‘tirgan bir guruh mutaxassislar tomonidan hal qilinadi. Ishlab chiqarilgan mahsulot hukumat tomonidan taqsimlanadi. Ishlab chiqarishdan olingan foyda davlat ixtiyorida qoldiriladi va u ham rejaga asosan taqsimlanadi. Markazlashgan rejali iqtisodiyot tizimi sobiq ittifoq va qator sotsialistik davlatlarda mavjud edi.

Markazlashgan rejali iqtisodiyot — deyarli barcha ishlab chiqarish vositalari davlat tasarrufida bo‘lib, iqtisodiy yechimlar markazlashgan holda davlat tomonidan qabul qilinadigan va rejaga ko‘ra amalga oshiriladigan iqtisodiy tizim.

Bozor iqtisodiyoti tizimida deyarli barcha ishlab chiqarish vositalari xususiy korxonalar, shaxslar qo‘lida bo‘lib, barcha iqtisodiy yechimlar iste’molchi va ishlab chiqaruvchilar tomonidan erkin qabul qilinadi. Nimadan, qancha miqdorda ishlab chiqarish masalasi talab va taklifga asoslangan bozor mexanizmi yordamida aniqlanadi (bu mexanizm haqida keyinroq batafsil to‘xtalamiz). Masalan, iste’molchilarda tamakini sotib olishga bo‘lgan xohish, ya’ni talab bo‘lmasa, fermer xo‘jaliklari tamaki ekmay qo‘yadi, chunki uni hech kim sotib olmaydi va undan foyda yo‘q. Uning o‘rniga esa foydaliroq bo‘lgan don ekinlarini ekadi va hokazo.

Bozor iqtisodiyoti — xususiy mulkchilikka asoslangan, barcha iqtisodiy qarorlar erkin qabul qilinadigan, iqtisodiy ne’matlar esa bozorlar yordamida taqsimlanadigan iqtisodiy tizim.

Aralash iqtisodiyot tizimida ishlab chiqarish resurslarining bir qismi davlat tasarrufida, qolganlari esa xususiy korxonalar va shaxslar qo‘lida bo‘ladi. Ba’zi turdagi tovar va mahsulotlar davlat tomonidan ishlab chiqarilsa, qolganlari xususiy korxonalar tomonidan ishlab chiqariladi. Shuningdek, aralash iqtisodiyotda davlat iqtisodiyotni tartibga solib turuvchi kuch sifatida qatnashadi va shu bilan bir qatorda ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy erkinligi ham ta’minlanadi. Shu bois, aralash iqtisodiyotni bozor iqtisodiyoti va markazlashgan rejali iqtisodiyotning “qorishmasi”dan iborat iqtisodiyot deb atash mumkin. Hozirda dunyoning ko‘plab davlatlarida aralash iqtisodiyot tizimi hukm surmoqda. Bunga misol qilib, Germaniya, Shvetsiya, Norvegiya, Finlandiya, Kanada kabi qator davlatlarni keltirish mumkin. Shunisi qiziqki, bu davlatlarda davlatning iqtisodiyotga aralashuvi borgan sari takomillashib bormoqda.

Aralash iqtisodiyot — barcha iqtisodiy tizimlarning maqbul tomonlarini o‘zida mujassamlashtirgan iqtisodiy tizim.

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

1. Nima? Qanday? Kim uchun? savollari qanday muammolarni o‘z ichiga oladi?
2. Iqtisodiy tizimlar bir-biridan nimasi bilan farqlanadi?
3. An’anaviy iqtisodiyotning afzallik va kamchilik tomonlarini ayting.
4. Markazlashgan rejali iqtisodiyotini tavsiflab bering.
5. Bozor iqtisodiyoti haqida gapirib bering.
6. Har bir iqtisodiy tizimga misollar keltiring va ularni izohlang.
7. Aralash iqtisodiy tizimning vujudga kelishiga nimalar sababchi bo‘lgan deb o‘ylaysiz?
8. Mamlakatimizda qaysi iqtisodiy tizim asoslari yaratilmoqda?
9. Aralash iqtisodiyot sharoitida quyidagi ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarining qaysilarini davlat, qaysilarini xususiy firmalar boshqarsa maqsadga muvofiq bo‘ladi, deb o‘ylaysiz? Javobingizni asoslashga harakat qiling.

a) ta’lim; b) televideniye; d) tez tibbiy yordam;
e) mudofaa; f) elektr tarmog‘i; g) temir yo‘l;
h) avtomobil yo‘llari; i) qishloq xo‘jaligi;
j) atrof-muhitni muhofaza qilish.

Buni yodda tuting!

- An’anaga asoslangan iqtisodiy tizimda ishlab chiqarish va taqsimlash urf-odatlar, ya’ni o‘tmishda amal qilingan usullar bilan belgilanadi.
- Bozor iqtisodiyotida ishlab chiqarish va taqsimlash qarorlari uy xo‘jaliklari hamda firmalar manfaatlaridan kelib chiqqan holda qabul qilinadi.
- Markazlashgan rejali iqtisodiy tizimda asosiy qarorlarni markaziy hukumat qabul qiladi.
- Hozirda har qanday zamonaviy iqtisodiy tizim “aralash tizim” bo‘lib, u o‘zida an’anaviy, markazlashgan rejali va bozor iqtisodiyoti xususiyatlarini mujassamlashtirgan.

MUSTAQIL FAOLIYAT

KLASTER NIMA?

Zamonaviy ishlab chiqarish jarayoniga juda ko‘p resurslar, odamlar, korxonalar jalb qilinadi. Masalan, pecheniy mahsulotini olsak, uning tarkibiga un, shakar, sariyog‘ va boshqa ko‘plab xom ashyolar kiradi. Demak, pecheniyni tayyorlash jarayoni lavlagi, sut yetishtiruvchi fermerlardan tortib, un, shakar, sariyog‘ ishlab chiqaruvchi zavodlarning ishtirokisiz amalga oshmaydi. Yana juda ko‘p korxonalarning mahsulotlari ham pecheniyning xom ashyosi sifatida ahamiyatga ega.

Ishlab chiqarishni samarali tashkil qilish uchun uning barcha bosqichida ishtirok etuvchi korxonalarning faoliyatini muvofiqlashtirish, tizimlashtirish maqsadida iqtisodiy klasterlar tashkil qilish iqtisodiyot amaliyotiga tatbiq qilinmoqda. Iqtisodiy klasterlarga ma’lum bir hududda joylashgan o‘zaro bog‘liq korxona, tashkilot va muassasalar kiritiladi. Ular o‘zaro mahsulotlar yetkazib berish, xizmatlar ko‘rsatish, infratuzilmani tashkil qilish, ilmiy-texnikaviy faoliyat yuritish orqali bir-birlarini qo‘llab-quvvatlab turadilar. Bu bilan klasterning har bir ishtirokchisi va butun klasterning raqobatbardoshligi oshadi va imkoniyatlari kengayadi.

Iqtisodiy klaster — muayyan hududda to‘plangan, mahsulot, butlovchi qismlar, ma’lum xizmatlar, infratuzilma bilan o‘zaro ta’minlovchi tashkilotlar (korxonalar, ilmiy va ta’lim muassasalari va h.k) guruhi bo‘lib, guruh ishtirokchilari bir-birlarining va klasterning raqobatbardoshliligini oshiradi.

1

2

3

4

5

6

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ham iqtisodiy klasterlar keng tarqalmoqda. Tashkil qilinayotgan paxta-to‘qimachilik, baliqchilik, oziq-ovqat klasterlari bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Iqtisodiy klasterning xususiyatlari quyidagilardan iborat: geografik jihatdan o‘zaro yaqinlik; texnologiyalarning turdoshligi; xom ashyo bazasining umumiyligi; innovatsion faoliyatning mavjudligi.

1. Yuqoridagi rasmlar asosida paxtadan har xil tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish bilan bog‘liq korxonalar ro‘yxatini tuzing.
2. Ro‘yxatga yana qanday korxonalarni qo‘shish mumkin?
3. Chigit ekishdan boshlab toki tayyor mahsulotning iste’molchiga borib yetishigacha bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonining zanjirini mantiqiy ketma-ketlikda quring.
4. Birgina erkaklar ko‘ylagini ishlab chiqarishda qanday: a) tabiiy; b) kapital; d) mehnat resurslari ishlatilishini aniqlang.
5. Agar rasmlardagi korxonalarni umumiy tizimga birlashtirilsa, bu qanday afzalliklar berishi mumkinligi bo‘yicha o‘z fikringizni bildiring.

Masala1: Ikkita ishchi birinchi 5 kunlikda 500 ta, ikkinchi 5 kunlikda 750 ta mahsulot tayyorladi. Bitta ishchining birinchi va ikkinchi besh kunlikdagi bir kunlik mehnat unumdorligini toping va o‘zaro taqqoslang.

Yechimi: Sarflangan umumiy vaqt = Ishchilar soni · Har bir ishchi sarflagan vaqt = 2 ishchi · 5 kun = 10 kun

Bitta ishchining birinchi besh kunlikdagi mehnat unumdorligi:

U=Q:T=500:10=50 taga,

Bitta ishchining ikkinchi besh kunlikdagi mehnat unumdorligi esa:

750:10=75 taga teng.

Endi ularni taqqoslaymiz: 75:50=1,5, ya’ni, bitta ishchining ikkinchi besh kunlikdagi mehnat unumdorligi birinchidagiga qaraganda 1,5 baravar ko‘p bo‘lgan.

Masala 2 (mustaqil yechish uchun): Tikuvchilik fabrikasida 120 nafar ishchi xaftasiga 5 kundan ishlaydi. Fabrika 2019- yilning 1- martidan 31- mayigacha 95040 ta ko‘ylak tikdi. Ishlab chiqarish jarayoni 1- iyundan ixtisoslashtirildi, 1- sentabrdan boshlab esa klaster tizimiga o‘tildi. Agar 1- iyundan 31- avgustgacha 117000 ta, 1- sentabrdan 30- noyabrgacha 140400 ta ko‘ylak tikilgan bo‘lsa, bir ishchining ixtisoslashmagan, ixtisoslashgan va klaster tizimi sharoitlaridagi mehnat unumdorliklarini toping va o‘zaro taqqoslang. Masalani yechishda taqvim (kalendar)dan foydalaning. Ba’zi sonlarni yaxlitlashga to‘g‘ri kelishi ham mumkin.

I BOBNI TAKRORLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

A. SAVOLLAR

1. Nima sababdan hozirda iqtisodiyotni o‘rganmoqchi bo‘lganlar soni ko‘payib bormoqda?
2. Iqtisodiyotni faqat iqtisodchilar bilishi kerakmi?
3. Iqtisodiy bilimlar zarur bo‘lgan vaziyatlarga misollar keltiring.
4. Nega inson ehtiyojlarining poyoni yo‘q?
5. Cheklanganlik muammosining mohiyati nimadan iborat?
6. Cheklanganlik muammosiga 5 ta misol keltiring.
7. Tanlov va uning muqobil qiymati nima?
8. Mehnat unumdorligini oshiraverib, cheklanganlik muammosini hal qilish mumkinmi?
9. Mehnat unumdorligini oshirishdan ko‘zlangan maqsad nima?
10. Mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvning mohiyatini tushuntirib bering.
11. Iqtisodiyotning uch asosiy savoli haqida nimalarni bilasiz?
12. An’anaviy va markazlashgan iqtisodiy tizimlarni o‘zaro taqqoslang.
13. Bozor iqtisodiyoti tizimi Nima? Qanday? Kim uchun? degan savollarga qay tarzda javob berishini tushuntirib bering. Bozor iqtisodiyotining asosiy xususiyatlarini sanang.
14. Aralash iqtisodiy tizimning vujudga kelishiga nimalar sababchi bo‘lgan deb o‘ylaysiz?

B. TOPSHIRIQLAR

Quyida avval atamalarning nomlari, so‘ng ularning talqinlari berilgan. Har bir atamaga mos talqinni topib, atama raqami yoniga mos talqin harfini yozib chiqing.

ATAMALAR:

1. Ehtiyoj.
2. Xizmatlar.
3. Tadbirkorlik.
4. Resurslar.
5. Ishlab chiqarish.
6. Cheklanganlik muammosi.
7. Bozor iqtisodiyoti.
8. Tanlovning muqobil qiymati.
9. Ixtisoslashuv.
10. Mehnat taqsimoti.
11. Iqtisodiy tizim.
12. An’anaviy iqtisodiyot.
13. Tanlov.

TALQINLAR:

a) iqtisodiy ne'matlarni yaratish jarayoni;
b) odamlarning foyda olish maqsadida iqtisodiy qarorlar qabul qilishi bilan bog'liq tovar va xizmatlar ishlab chiqarish faoliyati;
d) tanlov natijasida voz kechilgan imkoniyatlar ichidan eng katta naf;
e) cheklangan resurslardan foydalanish imkoniyatlari orasidan birini tanlash;
f) insonning muayyan sharoitda yashashi va kamol topishi uchun zarur bo'lgan narsalarga muhtojligi;
g) ehtiyojlarni to'la qondirish uchun resurslarning yetarli darajada mavjud emasligi;
h) inson ehtiyojlarini qondirish uchun asqotadigan barcha narsalar;
i) moddiy narsa yaratmaydigan, lekin natijasi ehtiyojlarni qondiradigan faoliyat yoki xatti-harakatlar;
j) biror mahsulot turini ishlab chiqarish bo'yicha korxonalar o'rtasidagi mehnat taqsimoti;
k) tovar ishlab chiqarish jarayonini ishchilar o'rtasida ishni taqsimlash asosida tashkil qilinishi;
l) xususiy mulkchilikka asoslangan, barcha iqtisodiy qarorlar erkin qabul qilinadigan, iqtisodiy ne'matlar esa bozorlar yordamida taqsimlanadigan iqtisodiy tizim;
m) jamiyat (mamlakat) iqtisodiy hayotini tashkil qilish shakli;
n) iqtisodiyotning asosiy savollariga jamiyatdagi an'analarga asoslanib javob beradigan iqtisodiy tizim.

D. TESTLAR

Berilgan savolga mohiyati jihatidan eng to'g'ri va to'liq javobni belgilang.

1. Ehtiyojlar — bu ...

A. kundalik ehtiyoj mollari do'konida sotiladigan barcha tovarlar.
B. kishilarning tovar va xizmatlarga ega bo'lish xohishi.
D. insonning muayyan sharoitda yashashi va kamol topishi uchun zarur bo'lgan narsalarga muhtojligi.
E. qondirishning imkoni bo'lmagan inson orzu-istaklari.

2. Cheklanganlik muammosi qaysi vaziyatda to'g'riroq ifodalangan?

A. Har qanday mamlakat iqtisodiyotida har doim nimadir yetishmaydi.
B. Hamma vaqt insonning barcha ehtiyojlarini qondirish uchun resurslar yetarli bo'lavermaydi.

D. Biror resurs qanchalik kam bo‘lsa, u shuncha tanqis bo‘ladi.
E. “Ro‘zg‘or — g‘or”, deganlaridek, oilada har doim nimadir yetishmaydi.

3. Qaysi guruhda keltirilgan misollar faqat ma’naviy ehtiyojlarga tegishli?
A. Daftar, non, kitob, televizor, xat yozish.
B. Muzqaymoq, kompyuter, ta’lim olish, sport.
D. Ta’lim olish, musiqa eshitish, kasb-hunar o‘rganish, oyoq kiyimi.
E. Til o‘rganish, kitob o‘qish, rasm chizish, musiqa eshitish.

4. Qaysi guruhda keltirilgan misollar faqat ijtimoiy ehtiyojlarga tegishli?
A. Yo‘l, jamoat transporti, maktab, kiyim-kechak, qo‘l soati.
B. Mudofaa, sog‘liqni saqlash tizimi, telefon tarmog‘i, kutubxona, muzey.
D. Tarixiy yodgorliklar, kasalxona, xususiy do‘kon, metro, velosiped.
E. Qo‘riqxona, daryo, istirohat bog‘i, soliq xizmati, shaxsiy avtomobil.

5. Fermer dalasiga bug‘doy eksa 40 t, sholi eksa 80 t hosil olishi mumkin. Bir tonna bug‘doyning muqobil qiymati ...
A. aniq emas, chunki qancha bug‘doy yoki sholi ekilgani noma’lum.
B. 0,5 tonna sholiga teng.
D. 4 tonna sholiga teng.
E. 2 tonna sholiga teng.

6. Ishlab chiqarish omillari – bu...
A. mehnat unumdorligi va samaradorligi.
B. mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv.
D. faqat bino, inshootlar, asbob-uskuna va dastgohlar.
E. tabiiy resurslar, mehnat, kapital va tadbirkorlik.

7. Quyidagi guruhlarning qaysi birida ishlab chiqarish resurslarining har uchalasidan misollar keltirilgan?
A. Dala, traktor, paxta.
B. Ofis, menejer, boshliq.
D. Neft, zavod, ishchi.
E. Kompyuter, dasturchi, printer.

8. Har qanday tizim oldida turgan eng asosiy muammo — bu:
A. ishlab chiqarish. B. cheklanganlik.
D. iste’mol E. taqsimot.

9. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ...
A. mulkning asosiy qismi xususiy shaxslar qo‘lida bo‘ladi.
B. davlat yagona mulkdor bo‘lib qoladi.
D. davlat mulkiga ustuvorlik beriladi.
E. mulk o‘z mohiyatini yo‘qotadi.

Biz erkin bozor tamoyillarini o‘rnatmoqchi ekanmiz, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini isloh qilish va rivojlantirish orqali sog‘lom raqobat muhitini yaratishimiz shart...

Shavkat Mirziyoyev

II bob. Bozor

7- MAVZU AYIRBOSHLASH VA PUL

FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

Yuqoridagi rasmda tasvirlangan etikdo‘zga non, novvoyga un, tegirmonchiga bug‘doy, dehqonga o‘roq va temirchiga etik kerak bo‘lsin.

1. Bu holatda etikdo‘z birgina nonga bo‘lgan ehtiyojini qondirish uchun o‘zi tikkan etikni qay tariqa nonga almashtira olgan deb o‘ylaysiz?
2. Bu ayirboshlash jarayonini qanday osonlashtirish mumkin?
3. Yuqorida keltirilgan mahsulotlar ichidan qaysi biriga o‘z mahsulotini bajonidil almashtirishga rozi deb o‘ylaysiz?
4. Yuqorida keltirilgan mahsulotlarning birortasi boshqa mahsulot va xizmatlar uchun to‘lovni amalga oshirishga mo‘ljallangan hammabop almashtirish vositasi sifatida tanlangan bo‘lsa, etikdo‘z o‘zining nonga bo‘lgan ehtiyojini qanday qondirgan bo‘lar edi?
5. Non va bug‘doyning universal ayirboshlash vositasi sifatida qanday ijobiy va salbiy tomonlari bor ekanligini ayta olasizmi?

Qadimda odamlar qabila-qabila bo‘lib yashaganlar. Har bir qabila o‘zi uchun kerakli oziq-ovqat mahsulotlarini, kiyim-kechaklarni va oddiy ish qurollarini o‘zi ishlab chiqargan va iste’mol qilgan. Bunday xo‘jalik iqtisodiyotning eng dastlabki shakli bo‘lib, u *natural xo‘jalik* deb yuritiladi. Natural xo‘jalikning har bir a’zosi asta-sekin muayyan mahsulot turini ishlab chiqarishga moslasha borgan. Vaqt o‘tishi bilan har bir kasb egasi o‘z mahsulotlarini boshqalar bilan ma’lum nisbatda

almashtira boshlagan, ya'ni, ayirboshlagan. Shu tariqa ayirboshlashga mo'ljallangan mahsulot – tovar vujudga kelgan.

Ayirboshlash — bir mahsulotni sotish, sotib olish yoki boshqasiga almashtirish.

Tovar — ayirboshlash maqsadida ishlab chiqarilgan mahsulot.

Odamlar metallni qayta ishlashni o'rganib olganlaridan so'ng metall pullar paydo bo'lgan. Keyinchalik qimmatbaho metallar, oltin va kumushdan yasalgan pullar muomalaga chiqarilgan.

Turli xil og'irlikka ega bo'lgan oltin va kumush bo'laklari pul sifatida ishlatilganda, har safar ularni tarozida tortishga to'g'ri kelgan. Bu noqulaylikni bartaraf etish uchun ma'lum og'irlikka va shaklga ega bo'lgan va turli xil muhrlar urilgan tangalar muomalaga kiritilgan. Vaqt o'tishi bilan tangalarning ham kamchiliklari ko'rinib qolgan. Oltin va kumush tangalar qo'ldan-qo'lga o'tib silliqlashgan va yengillashib qolgan. Bu esa, o'z navbatida, ularning boshlang'ich qiymati, ya'ni boshqa tovarlar bilan ayirboshlash qobiliyatining kamayishiga olib kelgan. Bu muammoni yechishga bo'lgan harakatlar natijasida qog'oz pullar paydo bo'lgan. Birinchi qog'oz pullar 812-yilda Xitoyda zarb qilingan, keyinchalik esa boshqa davlatlarda ham chiqarila boshlangan.

Pul — mahsulot va xizmatlar uchun to'lovni amalga oshirishga mo'ljallangan maxsus ayirboshlov vositasi.

Har qanday mamlakatda tarixan o'z pul tizimi shakllanadi. Pul tizimi – bu pul muomalasining davlat tomonidan tashkil qilinish shaklidir. Pul tizimida quyidagi elementlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

— Pul birligi – bu mamlakatda qabul qilingan pul nomi (so'm, dollar, yena va h.k). Pul birligi – bu tovar narxini belgilash uchun qo'llaniladigan pul belgisidir. AQSH pul birligi dollardir. Pul birligi yana mayda bo'laklarga bo'linishi mumkin. Masalan, 1 dollar – 100 sentga teng.

— Narxlar ko'lami – bu tovarlar qiymatlarini o'lchash usulidir. Boshqacha aytganda, narxlar ko'lami orqali pulning qiymat o'lchovi funksiyasi ifodalanadi.

— Pul turlari va ularni muomalaga chiqarish uslublari. Pul turlari – bu muomaladagi qog'oz pullar va tangalarning nominallaridir. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan chiqariladigan so'm – pul turiga

misol bo‘ladi. Shuningdek naqd (qog‘oz va tanga) va naqdsiz (bank hisob raqamidagi yozuv ko‘rinishidagi) pullarni ham farqlaydilar.

— Pul emissiyasi tizimi – pul belgilarini muomalaga chiqarish va aylanishi tartibidir. Pul emissiyasi Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladi. Markaziy bank pul aylanishini chegaralash va muvofiqlash ishlarini ham amalga oshiradi.

Pul aylanishi – bu tovar oldi-sotdisidagi, tovarsiz to‘lovlardagi va boshqa har xil hisob-kitoblardagi muomalada bo‘lgan pullarning harakatidir.

Pul aylanishining tarkibiy qismlari deb quyidagilarni keltirish mumkin:

— To‘lov aylanishi – bu ish haqi, soliqlar, qimmatbaho qog‘ozlar sotib olish va boshqa majburiy to‘lovlarning amalga oshirilishidir.

— Naqdsiz pul aylanishi – bu pul aylanishining bankdagi hisob raqamidagi yozuvlar orqali naqd pulsiz amalga oshiriladigan qismidir.

— Naqd pul aylanishi – bu jami pul aylanishining muomala va to‘lov vositasi sifatida naqd pul ishlatiladigan qismidir.

Pul sifatida ishlatilgan narsa quyidagi xususiyatlarga, sifatlarga ega bo‘lishi lozim:

— odamlar o‘zlari bilan olib yurishlari uchun qulay, ya’ni ixcham bo‘lishi;

— pishiq, chidamli materialdan bo‘lishi, vaqt o‘tishi bilan o‘z sifatini va qiymatini yo‘qotmasligi;

— kamyob, hammaning unga erishishga bo‘lgan imkoniyati cheklangan bo‘lishi;

— har xil qiymatlarni ifodalovchi xillarining mavjudligi;

— oson taniladigan va uni soxtalashtirish qiyin ekanligi.

Pulning birinchi funksiyasi — pul bu muomala vositasidir. Pul yordamida tovarlar pulga ayirboshlanadi. Natijada, tovar — pul almashuvi amalga oshiriladi. Ikkinchidan, pul — bu tovar qiymatining o‘lchov vositasidir. Har bir tovarning qiymati pul bilan o‘lchanadi. Tovarning pulda ifodalangan qiymati – uning narxini belgilaydi. Uchinchidan, pul boylik jamg‘arish vositasidir. Tovarni pulga almashib, tushgan pulga boshqa tovar olmasdan, uni ma’lum vaqtgacha saqlash ya’ni jamg‘arish mumkin.

Xalqaro savdoda pul – dunyo pullari, tovar uchun pul to‘laganda esa - to‘lov vositasi funksiyalarini ham bajaradi.

Hozirgi zamonda pullarning naqd – tanga va qog‘oz pullar; kredit – veksel, banknota va chek ko‘rinishidagi pullar; naqdsiz pullar; kredit va to‘lov plastik kartalardagi pullar; elektron pullar turlari mavjud.

Pul massasi – bu jismoniy va yuridik shaxslar hamda davlat ixtiyoridagi muomaladagi naqd va banklar hisob raqamlaridagi naqdsiz pullarning umumiy hajmidir. Pul massasi pulning qanday ishlayotganligini ko‘rsatuvchi muhim ko‘rsatkichdir. Zamonaviy pul tizimi sharoitida pulning aylanish tezligi jadallashmoqda, pul massasining o‘sishi esa sekinlashmoqda. Ya’ni, pul yaxshiroq ishlamoqda.

Djon Meynard Keyns bozor iqtisodiyotiga davlatning keng aralashuvining zarurligini asoslab berdi va pul-kredit siyosati bo‘yicha o‘zining modelini taklif qildi. Unga ko‘ra qat’iy soliq siyosati va yengil pul siyosati uyg‘unlikda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi.

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

1. Qadimda mahsulotlarni ayirboshlash jarayoni haqida ma’lumot bering.
2. Oltin tangalar misolida pul o‘z vazifasini qanday bajargan?.
3. Har qanday narsa ham pul vazifasini bajara oladimi?
4. Pulning har bir funksiyasini yaqqol ko‘rsatuvchi hayotiy misollar keltiring.
5. Sizningcha, pul qanday xususiyatlarga ega bo‘lmog‘i kerak?
6. Pulning qanday turlarini bilasiz?
7. Pul tizimi nima? Uning elementlarini ayting.
8. Pul aylanishining tarkibiy qismlarini tushuntirib bering.
9. Pul massasi nima?
10. Pulning xususiyatlari va funksiyalari haqida nimalarni bilasiz?
11. Keyns modeli haqida umumiy fikr bildiring

Buni yodda tuting!

- Pul barcha tovar va xizmatlarni ayirboshlash mumkin bo‘lgan maxsus tovardir.
- Pul insoniyatning eng katta kashfiyotlaridan biridir.
- Pul muomala, o‘lchov va jamg‘arish vositasidir.
- Odamlar ma’lum manfaatlarni ko‘zlab tovar va xizmatlarni ayirboshlaydilar.

8- MAVZU BOZOR VA UNING TURLARI

1

2

3

4

5

6

FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. 1- rasmda tasvirlangan hunarmandchilik mahsulotlari bozoridagi odamlarni qanday ikki toifaga ajratish mumkin? Kimlar sotuvchi yoki xaridor sifatida qatnashyapti? Ularning farqi nimada? Ularning bozordagi maqsadi nimadan iborat?
2. 2- va 3- rasmlardagilarni bozor deb atasak bo‘ladimi?
3. Bozor qanday vazifalarni bajaradi deb o‘ylaysiz? Fikringizni hayotiy misollar yordamida tushuntirib bering.
4. 4-, 5-, 6-rasmlarda tasvirlangan tovar va xizmatlar qaysi bozorlarda sotiladi yoki sotib olinadi?

Siz odamlar bilan gavjum, savdo-sotiq amalga oshiriladigan, alohida ajratilgan joy sifatidagi dehqon bozori, avtomobil bozori, kiyim-kechak bozori va buyumlar bozori kabi bozorlarni yaxshi bilasiz. Bozor uchun har doim ham alohida ajratilgan joyning bo‘lishi shart emas. Oldi-sotdi jarayoni telefon va internet tarmog‘i orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

Bozor quyidagi vazifalarni bajaradi:

— ishlab chiqarish va iste’molni bir-biriga bog‘laydi;
— oldi-sotdi jarayoni orqali tovarning narxini belgilaydi;
— iqtisodiyotni, ishlab chiqarishni tartibga solib turadi;
— turli davlatlar o‘rtasida iqtisodiy hamkorlik aloqalarini o‘rnatadi.

Tovarni mo‘ljalidan ko‘ra qimmatroq narxda sotib olgan xaridor yoki

tovarni arzonroq narxda sotgan sotuvchining birortasi ham bozordan ranjimaydi. Bozor — tovarning narxini belgilovchi eng xolis hakam.

Bunda "Nima ishlab chiqarish kerak?", "Qanday ishlab chiqarish kerak?", "Kim uchun ishlab chiqarish kerak?" degan savollarga faqatgina bozor javob beradi. Bozor tovar narxining ko'tarilishi yoki pasayishi orqali ishlab chiqaruvchilarga qaysi tovardan qancha ishlab chiqarish kerakligi yoki kerak emasligi haqida axborot berib turadi. Tovar bozorgir bo'lsa, uni ishlab chiqarish ko'paytiriladi, tovar mo'ljaldagi narxda sotilmasa, uni ishlab chiqarish to'xtatiladi yoki sarf-xarajatlar kamaytirilib, tovar narxi arzonlashtiriladi.

O'zaro manfaatli hamkorlikdan hamma foyda ko'radi. Shunday ekan bozor chegara bilmaydi. Hozirda bozorlarimizdagi dunyoning deyarli barcha mamlakatlaridan keltirilgan tovarlar buning yorqin isbotidir.

Oldi-sotdi jarayoni — tovar va xizmatlar pulga, pul esa tovar va xizmatlarga ayirboshlanadigan jarayon.

Bozor — xaridor va sotuvchilar oldi-sotdi jarayonini amalga oshirishlari bilan bog'liq o'zaro munosabatlardir.

Bozorlar ularda sotiladigan tovarlarga ko'ra iste'mol tovarlari, ishlab chiqarish vositalari, moliya, mehnat, intellektual tovarlar bozori kabi turlarga bo'linadi.

Aholi uchun zarur bo'lgan tovarlar va xizmatlar *iste'mol tovarlari bozori*da sotiladi. Biz yaxshi bilgan dehqon bozori, mol bozori, mashina bozori, uy-joy bozori, kiyim-kechak va buyumlar bozori, do'konlar, supermarketlar, oshxona, novvoyxona, transport, aloqa, elektr, suv, gaz, issiqlik ta'minoti korxonalari, sartaroshxona, madaniyat, sog'liqni saqlash, ta'lim maskanlari — iste'mol tovarlari bozorini tashkil qiladi.

Iste'mol tovarlari bozori — aholi, uy xo'jaliklari ehtiyojlari uchun zarur tovar va xizmatlar sotiladigan bozor.

Korxonalarda tovar ishlab chiqarish uchun kerak bo'ladigan asbob-uskunalar, bino-inshootlar, xom ashyo va materiallar *ishlab chiqarish vositalari bozori*da sotiladi. Ishlab chiqarish vositalari oldi-sotdisi to'g'ridan-to'g'ri, bevosita ishlab chiqaruvchi va iste'molchi orasida yoki tovar birjalari hamda savdo firmalari xizmatlari orqali amalga oshiriladi. Tovar birjalari tovarlarni katta-katta hajmda, ulgurji (ko'tarasiga) sotib olish va sotishni uyushtiradigan vositachi tashkilotlardir.

Ishchi kuchi, ya'ni mehnat ham maxsus tovar bo'lganligi uchun uning ham o'z bozori bor. *Mehnat, ishchi kuchi bozori*da ishchi kuchi sotiladi.

Tovar birjasi — tovarlarni katta-katta hajmda, ulgurji (ko‘tarasiga) sotib olish va sotishni uyushtiradigan vositachi tashkilot.

Ishlab chiqarish vositalari bozori — korxona va firmalar ehtiyojlari uchun zarur tovar hamda xizmatlar sotiladigan bozor.

Bunday bozorda aholini ishga joylashtirish bilan shug‘ullanuvchi ishchi kuchi birjalari, korxona va tashkilotlar faoliyat ko‘rsatadi. Bandlikka ko‘maklashish va ijtimoiy muhofaza qilish markazi ishchi kuchiga ehtiyoji bor, bo‘sh ishchi o‘rinlari mavjud bo‘lgan korxona va ish qidirib yurgan kishilar o‘rtasida vositachilik faoliyatini olib boradi.

Bandlikka ko‘maklashish va ijtimoiy muhofaza qilish markazi — korxonalar va ish qidirib yurgan kishilar o‘rtasida vositachilik faoliyatini olib boruvchi tashkilot. Bu tashkilotni, odatda, mehnat birjasi deb ham ataydilar.

Mehnat ishchi kuchi bozori — ishchi kuchi oldi-sotdi jarayonlari amalga oshiriladigan bozor.

Pulni maxsus, hammabop tovar deb aytgan edik. Demak, uning ham o‘z bozori bo‘ladi. Bu bozorni *moliya bozori* deb atashadi. Moliya bozorida pullar qarzga beriladi yoki qarzga olinadi. Bunday xizmatlarni banklar amalga oshiradi. Moliya bozorida oddiy pullardan tashqari “qimmatli qog‘ozlar” — aksiya, obligatsiya, veksel deb ataluvchi maxsus pullar sotiladi va sotib olinadi. Qimmatli qog‘ozlar savdosini tashkil qilish bilan fond birjalari shug‘ullanadi. Shuningdek, moliya bozorida xorijiy davlat pullari — valutalar ham sotiladi va sotib olinadi. Bu ishni banklarning valuta almashtirish shoxobchalari amalga oshiradi.

Qimmatli qog‘oz — ma’lum miqdordagi mablag‘ga yoki mulkka egalikni yoki ularga nisbatan munosabatni tasdiqlovchi maxsus pul ko‘rinishidagi hujjat.

Fond birjalari — qimmatbaho qog‘ozlar oldi-sotdisini tashkil qilish bilan shug‘ullanuvchi vositachi tashkilot.

Moliya bozori — pul va qimmatli qog‘ozlar oldi-sotdi jarayonlari amalga oshiriladigan bozor.

*Intellektual tovarlar bozori*da — aqliy mehnat mahsuli bo‘lgan tovarlar va xizmatlar sotiladi. Bunday tovarlarga ilmiy g‘oyalar va san’at asarlari, turli xil ma’lumotlar, texnik loyiha hamda kashfiyotlar, kompyuter dasturlari, kino, konsert tomoshalari va hokazo aqliy mehnat natijasi bo‘lgan tovar va xizmatlar kiradi.

Intellektual tovarlar bozori — aqliy mehnat mahsuli bo‘lgan tovarlar oldi-sotdi jarayoni amalga oshiriladigan bozor.

Shu bilan birga, alohida olingan tovarlar bozorlari ham bo‘ladi. Masalan, neft bozori, paxta bozori, g‘alla bozori, rangli metallar bozori va boshqalar. Bozorlar hududiy qamrov darajasiga qarab mahalliy, hududiy, milliy va xalqaro bozorlarga bo‘linadi.

Bozorlar, odatda, ikkita katta sinfga ajratib o‘rganiladi. Ular tovar va xizmatlar bozori hamda ishlab chiqarish omillari bozorlaridir.

Abu Ali ibn Sino
(980 — 1037)

Sharqning qomusiy olimi, alloma Abu Ali ibn Sino Iqtisodiyot faniga o‘zining ilmiy qarashlari bilan katta hissa qo‘shgan. Jumladan, u ehtiyoj tushunchasiga ta’rif bergan, moddiy boyliklar yaratishda mehnatning o‘rnini aniqlab bergan, “mehnat taqsimoti”, "iste’mol savatchasi" va inson omili tushunchalariga oid qimmatli fikrlar bildirgan.

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

1. Bozorning mavjud bo‘lishi uchun har doim ham maxsus ajratilgan joyning bo‘lishi shartmi?
2. Bozor qanday vazifalarni bajaradi? Ularni birma-bir tushuntirib bering.
3. Bozor turlarini sanab bering. Ishlab chiqarish vositalari bozorining iste’mol tovarlari bozoridan farqi nimada?
4. Intellektual tovarlar bozorida nimalar sotiladi?
5. Ishchi kuchi bozoriga misollar keltiring.
6. Moliya bozorida qanday savdo amalga oshiriladi?
7. Mahalliy, hududiy, milliy va xalqaro bozorlarga misollar keltiring.
8. Qanday birjalarni bilasiz? Ularning farqi va umumiy tomonlarini aniqlang.

Buni yodda tuting!

- Bozor tovarlarni o‘zaro ayirboshlash imkoniyatini yaratadi.
- Tovarning narxi bozorda aniqlanadi.
- Bozor iqtisodiyotni tartibga solib turadi.
- Bozorlar ularda sotiladigan tovarlarga ko‘ra iste’mol tovarlari, ishlab chiqarish vositalari, moliya, ishchi kuchi va intellektual tovarlar bozori kabi turlarga bo‘linadi.

9- MAVZU BOZORLAR VA NARXLAR



FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Rasmlardagi tovarlarga sotuvchi sifatida narx belgilang.
2. Ushbu tovarlarga xaridor sifatida narx belgilang.
3. Narx belgilayotgan paytingizda nimalarga e'tibor berdingiz?
4. Tovarga narx belgilash uchun sizga qanday ma'lumotlar kerak bo'ladi?
5. Do'konda biror tovarning ayni paytdagi narxini surishtiring va bu tovar nima sababdan bunday narxda sotilayotganini izohlashga urinib ko'ring.

O'tgan mavzuda ta'kidlanganidek, bozor xaridorlar va sotuvchilar o'rtasidagi tovarlar hamda xizmatlarni ayirboshlash jarayonida yuzaga keladigan o'zaro munosabatlardir. *Narx* esa xaridorlar ma'lum bir tovar yoki xizmatning bir birligi uchun to'laydigan pul miqdoridir. Masalan, bir kilogramm sariyog' uchun 30 000 so'm, bir qadoq choy uchun 4500 so'm, bir dona velosiped uchun 1 200 000 so'm va hokazo.

Narx — bir birlik tovar qiymatining puldagi ifodasi.

Narxlar har doim bir-biri bilan taqqoslanadi. Turli mahsulotlarning narxlarini o'zaro taqqoslash orqali iste'molchilar ularni xarid qiladi.

Turli resurslarning narxlarini taqqoslash orqali firmalar ma'lum tovarlar va xizmatlarni sotib oladi. Turli bozorlardagi narxlarni o'zaro taqqoslab, sotuvchilar tovarlarining narxlarini aniqlash imkoniga ega bo'ladilar. Shu tariqa iqtisodiyotning uch asosiy savoliga javob beriladi.

Nima ishlab chiqarish kerak?

Eng ko'p foyda keltiradigan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish kerak.

Qanday qilib ishlab chiqarish kerak?

Iloji boricha kamroq xarajat qilib ishlab chiqarish kerak.

Kim uchun ishlab chiqarish kerak?

Ushbu tovarga ehtiyoji bor va belgilangan narxda pul to'lashga qodir iste'molchi uchun ishlab chiqarish kerak.

O'zaro bir-biriga bog'liq bozor narxlari markaziy rejalashtirishsiz yoki xususiy ishlab chiqaruvchilar va xaridorlarning qarorlarini bevosita nazorat qilmay turib son-sanoqsiz tovarlar hamda xizmatlarni istalgan paytda, istalgan miqdorda ishlab chiqarish va yetkazib berishini anglash juda muhimdir. Bu hodisa narxlar bozor tizimida uch asosiy vazifani bajarishi bois sodir bo'ladi: 1) axborot berish vazifasi; 2) rag'batlantirish vazifasi; 3) taqsimlash vazifasi.

Qadriyatlar!

Hech e'tibor berganmisiz, har gal qandaydir narsa sotib olsak, beixtiyor uning boshqa sotuvchilardagi narxini surishtirishga tushamiz. Buyumning narxi haqidagi ma'lumot bizga nima uchun kerak?

Narxlar va ular orasidagi nisbatlar bozor tizimidagi iste'molchilar, ishlab chiqaruvchilar hamda resurs egalarini nimani, qancha miqdorda sotib olish kerakligi haqida qaror qabul qilish uchun zarur asosiy ma'lumot bilan ta'minlaydi. Narxlarning axborot berish vazifasining ahamiyatini to'la tushunib olish uchun quyidagi holatlarni tasavvur qiling: Supermarketda xarid qilyapsiz. Peshtaxtalardagi buyumlarning birortasining ham narxi ko'rsatilmagan. Yoki ikkita yumushdan birini ularga to'lanadigan ish haqini bilmay turib tanlashni faraz qiling. Yoki bo'yoqchilar ishi uchun qancha so'rashi, bo'yoq, mo'yqalam va boshqa materiallarning narxlari to'g'risida hech qanday ma'lumotga ega bo'lmay turib, bo'yoqchi yollash yoki bu ishni o'zingiz bajara olishingiz to'g'risida qaror qabul qilishga intilayotganingizni tasavvur qiling. Bu holatlarning har birida narx haqida ma'lumotga ega bo'lmay turib, qaror qabul qilish juda qiyin bo'ladi.

Narxlarning o‘zgarishi bozor iqtisodiyotida resurslarni ko‘chirish yoki qayta taqsimlash uchun rag‘batlar hosil qiladi. Lavlagining narxi makkajo‘xori narxiga nisbatan ortishi fermerlarni ko‘proq lavlagi va kamroq makkajo‘xori ekishga da’vat etadi. Huquqshunoslar maoshi buxgalterlarnikiga nisbatan kamligi kamroq odamlarning huquqni va ko‘proq odamlarning buxgalteriyani o‘rganishiga sabab bo‘ladi. Erkin bozorda foydaning ortishi resurslarni jalb qiladi va zararning ortishi bunga qarama-qarshi natijaga sabab bo‘ladi. Foyda iqtisodiy hayotning yashil, zarar esa qizil chiroqlaridir. Yaxshi ishlaydigan yo‘l harakati nazorati tizimi ham yashil, ham qizil rangning bo‘lishini talab qilganidek, yaxshi ishlaydigan bozor tizimi uchun ham foyda, ham zararning mavjud bo‘lishi zaruriyatdir. Yuqorida keltirilgan misollarning har birida narxlarning rag‘batlantirish vazifasi namoyon bo‘ladi.

Narxlarning yana bir muhim vazifasi — bu ularning taqsimlash vazifasidir. Boshqa shart-sharoitlar o‘zgarmay, biror tovarning narxi oshsa, odamlar uni kamroq xarid qilishga harakat qiladilar va aksincha, narx qanchalik past bo‘lsa, odamlarda shu tovarni xarid qilish istagi ortadi. Narxlar vositasida bozorda tanqis resurslar, ular uchun pul to‘lash istagi va qobiliyati eng yuqori bo‘lgan iste’molchilar orasida taqsimlanadi. Shahar markazidagi bino egasi uni ofis binosi uchun ijaraga berganda, garaj yoki ombor uchun bergandagiga nisbatan ko‘proq ijara haqi olish imkoniyati bo‘lsa, demak, undan ofis binosi uchun foydalaniladi. Agar 50 000 kishi 5 000 kishilik zalda o‘tkazilishi ko‘zlangan konsertni tomosha qilishni istasa, chiptaning narxi faqat 5 000 kishi to‘lay olgunga qadar oshishi mumkin, qolgan 45 000 kishi chipta narxi qimmat bo‘lgani uchun konsert tomosha qila olmaydi.

Adam Smit bozor tizimi tovarlarga hech kimning aralashuvisiz “adolatli” narxlarni o‘rnata oladi deb hisoblagan. U barcha tovarlar o‘zining muayyan narxiga ega bo‘lib, bu narx ushbu tovarni ishlab chiqarishga ketgan sa’y-harakatlarga bog‘liq deb hisoblagan. Uning fikricha, tovar ishlab chiqarish uchun ishlatilgan yer uchun renta ko‘rinishidagi haq to‘lanishi lozim. Shu tovarni ishlab chiqarish uchun jalb qilingan kapitaldan foydalanilgani uchun ham muayyan miqdordagi haq to‘lash kerak bo‘ladi. Jalb qilingan ishchi kuchi uchun ham ish haqi to‘lanishi kerak.

Adam Smit fikricha, mana shu xarajatlar tovar narxini shakllantiradi. Biroq u narx ayrim paytlarda birmuncha o‘zgarishi mumkin, masalan, taqchillik yuz bergan paytda, deb hisoblagan.



Adam Smit
(1723—1790)

Shotlandiyalik iqtisodchi olim Adam Smitni ko‘pchilik zamonaviy iqtisodiyot fani asoschisi, deb hisoblaydi. U o‘zining “Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to‘g‘risida tadqiqot” nomli shoh asari va boshqa asarlari bilan iqtisodiyot fani rivojiga katta hissa qo‘shgan.

Adam Smit fikri bo‘yicha, millat boyligi ishlab chiqarish hajmiga bog‘liqdir. U iqtisodiy faoliyatga davlat aralashuvini keskin kamaytirish tarafdori bo‘lgan. U iqtisodiy taraqqiyotning eng asosiy omili deb moddiy manfaatdorlikni ko‘rsatgan. Iqtisodiyot faniga “ko‘rinmas qo‘l” ifodasini kiritgan.

Har qanday ishlab chiqarishning yagona intihosi va maqsadi iste’moldir. *(A.Smit)*

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

1. Tovarning narxi deb nimaga aytiladi?
2. Bozorda biror narsa sotib olayotganingizda nima sababdan birinchi duch kelgan sotuvchidan xarid qilmaysiz?
3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida narx qanday vazifalarni bajaradi?
4. Bozorda tovar narxi qanday ma’lumot beradi?
5. Narxning axborot berish, rag‘batlantirish va taqsimlash vazifalarini aniq misollar yordamida tushuntiring.
6. Ishlab chiqaruvchilar uchun foyda va zarar nimadan xabar beradi?
7. Siz Adam Smitning fikriga to‘liq qo‘shilasizmi?
8. Sizning fikringizcha, u nimalarni e’tiborga olmagan?
9. Adam Smit davridagi va hozirgi zamondagi sharoitni taqqoslab, hozirgi zamondagi narxlar shakllanishiga yana nimalar ta’sir qilishi mumkin ekanligini sanab bering.

Buni yodda tuting!

- Narx tovar qiymatining puldagi ifodasidir.
- Bozor iqtisodiyoti sharoitida narx axborot berish, rag‘batlantirish va taqsimlash vazifalarini bajaradi hamda iqtisodiyotning uchta asosiy savoliga javob beradi.
- Bozor tizimida narx iste’molchi va ishlab chiqaruvchilarga tovarni ishlab chiqarish hamda taqsimlash bo‘yicha qimmatli ma’lumot beradi.

10- MAVZU BOZOR QATNASHCHILARI



FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1- rasmdagi zavod va 3- rasmdagi musiqa maktabi davlatga tegishli. 2- rasmdagi fabrika xususiy tadbirkorga tegishli. Har bir oilaning o‘z xo‘jaligi, o‘zining kichik iqtisodiyoti bor. Shuning uchun ham iqtisodiyot fanida oila haqida gapirilganda “Uy xo‘jaligi” iborasi ishlatiladi.

1. Davlat musiqa maktabi qurish uchun materiallarni, ishchi kuchini va uning uchun jihozlarni qayerdan oladi? U yerda ishlaydigan o‘qituvchi va xodimlar qay tariqa ishga yollanadilar?
2. To‘qimachilik fabrikasi xom ashyoni va ishchi kuchini qayerdan oladi? U o‘zining mahsulotini qayerda sotadi?
3. Davlat o‘z zavodi uchun ishchi kuchini qayerdan yollaydi va o‘z mahsulotini qayerda sotadi?
4. Uy xo‘jaligi o‘z iste’moli uchun tovarlarni qayerdan oladi? Uy xo‘jaligi ishchi kuchi bozoriga nima taklif qila oladi?

Javoblaringizda bozor atamasini qo‘llashni yodingizdan chiqarmang. Rasmlardagi obyektlarning ishchi kuchi, xom ashyo, material, jihozlar va ishchi kuchi bilan ta’minlanishida, mahsulotlarini sotishida bozorning ahamiyati haqida gapirib bering.

Ishlab chiqaruvchilar — tovar va xizmatlarni yaratadigan korxonalar. Ular bir tomondan tabiiy resurslarni, ishlab chiqarish vositalarini, ishchi kuchini bozordan sotib olib xaridor sifatida qatnashsa, ikkinchi tomondan ishlab chiqargan tovarlari va xizmatlarini, o‘zlariga tegishli mulkni bozorda sotib, sotuvchi sifatida ishtirok etadi. Masalan, un ishlab chiqaruvchi korxona o‘zi uchun kerakli bino, tegirmon uskunalari, bug‘doyni va ishchi kuchini bozordan sotib oladi, ya’ni bozorda xaridor sifatida ishtirok etadi. Shu bilan birga, bug‘doydan un ishlab chiqarib, uni bozorda sotadi. Ya’ni bozorda sotuvchi sifatida ham qatnashadi.

Ishlab chiqaruvchilar — tovar va xizmatlarni yaratadigan korxonalar.

Iste’molchilar — uy xo‘jaliklari o‘zlari uchun kerakli xizmatlarni, iste’mol tovarlarini va turli xil mulklarni xaridor sifatida bozordan sotib oladilar. Ikkinchi tomondan, aholi o‘ziga tegishli mulkni bozorda sotadi. Shuningdek, odamlar turli xil korxonalarda mehnat qilib, evaziga ish haqi oladilar, ya’ni sotuvchi sifatida o‘z ishchi kuchini sotadilar. Demak, iste’molchilar — uy xo‘jaliklari bozorda ham xaridor, ham sotuvchi sifatida qatnashar ekan.

Iste’molchilar — yaratilgan tovar va xizmatlarni bevosita iste’mol qiluvchi yoki ulardan foydalanuvchilar. Iste’molchilar, asosan, o‘z oilalari bilan hayot kechirganligi bois, ularni boshqacha **uy xo‘jaliklari** deb ham atashadi.

Bozorda davlat (hukumat) jamiyatning boshqaruv organi, tabiiy resurslar egasi sifatida alohida o‘rin tutadi. Davlat bir tomondan tabiiy resurslarni, davlat idoralari va mahkamalarining xizmatlarini, turli xil davlat korxonalarida ishlab chiqarilgan tovarlarni, davlat mulkini sotsa, ikkinchi tomondan davlat korxonalari ehtiyojlari uchun bozordan tovarlar, xizmatlar va ishchi kuchi sotib oladi. Davlat aholi va korxonalarga o‘z idoralari va mahkamalari orqali ko‘rsatgan xizmatlari evaziga turli xil majburiy to‘lovlar, soliqlar ko‘rinishida haq undirib oladi. Masalan, bir qarashda aholiga bepul tibbiy xizmat ko‘rsatilayotgandek ko‘rinadi. Aslini olganda esa bu xizmat uchun har birimiz daromadimizdan chegirib qolinadigan soliq ko‘rinishida haq to‘laymiz.

Bozorning har uchala ishtirokchisi — davlat, ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar bozor orqali bir-birlariga pul qarz beradilar hamda oladilar, bir-birlarining qimmatli qog‘ozlarini sotib oladilar va sotadilar. Shu tariqa, bozorning har uchala ishtirokchisi orasida oldi-sotdi jarayoni sodir bo‘lib, bozorni davriy ravishda harakatga keltirib turadi.

Kimlar ishtirok etmasin, bozorning asosiy vazifasi — bu sotuvchi bilan xaridor o‘rtasidagi oldi-sotdi munosabatlarini tashkil qilish bo‘lib qolaveradi. Ya’ni, bozor — bu pul orqali amalga oshiriladigan tovar va xizmatlar oldi-sotdi bitimlarining jamlanmasidir. Iqtisodiy munosabatlarning bunday ko‘rinishidan bozordagi bitta bitim bo‘yicha tovar-pul munosabatlarining eng sodda formulasini keltirib chiqarish mumkin:

SOTUVCHI — TOVAR — PUL — XARIDOR

Bu formula bozor “hujayra, katakcha”sining tuzilishini ifodalaydi. Bozorning butun “organizmi” esa mana shunday “hujayralar”dan tashkil topgan. Demak, bozor sharoitidagi tovar munosabatlari ham yuqoridagi formulaga o‘xshagan bog‘lanishlardan iborat.

Bozor qatnashchilari bo‘lmish davlat, ishlab chiqaruvchilar va oila – uy xo‘jaliklari (iste’molchilar) bozordan nimanidir sotib oladi va nimanidir sotadi. Shu bois, bozorda resurslar, tovarlar, xizmatlar va pul mablag‘lari quyidagi chizmadagidek tinmay aylanib turadi.



Uy xo‘jaliklari, ya’ni iste’molchilar o‘zlariga tegishli mulkni, ishchi kuchlarini ish haqi, maosh, foiz to‘lovi va foyda kabi pul daromadlari evaziga davlatga hamda ishlab chiqaruvchi firma va korxonalarga sotadi. Olingan daromadga esa o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun bozordan kerakli xizmatlarni, iste’mol tovarlarini va turli xil mulklarni sotib oladi.

O‘z navbatida, davlat bu pullarga o‘zi uchun kerakli tovar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchilar hamda uy xo‘jaliklaridan sotib oladi. Ishlab chiqaruvchilar esa uy xo‘jaliklaridan olgan pullarga yana aholi hamda davlatdan kerakli resurslarni sotib oladi va hokazo. Shu tariqa, iqtisodiyotda resurslar, tovarlar, xizmatlar va pul mablag‘lari to‘xtovsiz aylanib turadi.

Bozor vazifalarini amalga oshirishda bevosita qatnashmasdan unga yordam beruvchi, xizmat ko‘rsatuvchi korxona, tashkilot va muassasalarning hammasi bitta nom — *bozor infratuzilmalari* nomi bilan ataladi. Bozor infratuzilmalariga banklar, sug‘urta kompaniyalari, tovar, fond va boshqa turdagi birjalar, savdo uylari, bojxona idoralari, hisob-kitob, moliya, huquqiy maslahat xizmati ko‘rsatadigan turli tashkilotlar, turli xil maxsus savdolarni tashkil qiluvchi muassasalar va tashkilotlar kiradi.

Bozor infratuzilmalari — bozor vazifalarini amalga oshirishda bevosita qatnashmasdan, unga yordam beruvchi, xizmat ko‘rsatuvchi korxona, tashkilot va muassasalar.

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

1. Bozor ishtirokchilarini tavsiflab bering.
2. Davlat mulkini tejash va avaylash, eng avvalo, kim uchun muhim?
3. Oilangiz misolida bozordan, odatda, nima xarid qilishingizni va nima sotishingizni gapirib bering.
4. Bozor sharoitidagi tovar-pul munosabatlari haqida aytib bering.
5. Iqtisodiyotda resurslar, tovarlar, xizmatlar va pul mablag‘lari aylanib turishi mexanizmini tushuntirib bering.
6. Bugungi kunda mamlakatimizdagi bozor infratuzilmalari haqida nimalar bilasiz? Fikringizni hayotiy misollar yordamida tushuntirishga harakat qiling.

Buni yodda tuting!

- Davlat, ishlab chiqaruvchilar va oila — uy xo‘jaliklari bozor qatnashchilaridir.
- Bozorda davlat, ishlab chiqaruvchilar, iste’molchilar o‘rtasida resurslar, tovarlar, xizmatlar va pul mablag‘lari muntazam ravishda aylanib turadi.

MUSTAQIL FAOLIYAT

MUQOBIL TO‘LOV XIZMATLARI

Kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi natijasida hozirda *plastik kartalar* to‘lov vositasi sifatida qo‘llanilmoqda. Plastik kartalar zamonaviy to‘lov vositasidir. Kartalar elektron moslama bo‘lib, unga pul egasi, pul miqdori va qaysi bankda saqlanayotganligi haqida ma’lumotlar kiritilgan bo‘ladi. Plastik karta maxsus moslama (terminal)ga joylanib, zarur pul miqdori xaridorning bankdagi hisob raqamidan to‘lovni qabul qilayotgan muassasa hisobiga o‘tkaziladi. Kartadan boshqalar foydalanishining oldini olish maqsadida u karta egasi tomonidan “kalit” – maxfiy kod bilan himoyalangan bo‘ladi va uni faqat shu “kalit” bilangina ochish mumkin.

Shuningdek, plastik kartalardagi pulingizni kerak bo‘lganda bankomat deb ataluvchi qurilmalardan foydalanib naqd pulga aylantirib olishingiz mumkin.

Plastik kartalar bilan to‘lovlarni amalga oshirish bugungi kunda har bir fuqaro uchun odatiy holga aylanib bormoqda. Bunga sabab ular mijoz uchun qulay to‘lov vositasi ekanligi bo‘lib, naqd pulga bo‘lgan ehtiyojni sezilarli darajada kamaytiradi. Mamlakatimizda plastik kartalar orqali nafaqat to‘lovni amalga oshirish, balki kredit olish imkoniyati ham mavjud.

Qadriyatlar!

Miloddan avvalgi IV—III asrlardayoq mamlakatimiz hududida oltin, kumush, misdan draxma va tetradraxma deb nomlangan tangalar zarb qilina boshlangan. Bu pullar Termiz, Taxtasangin, Denov, Kampirtepa, Afrosiyobda olib borilgan arxeologik qazishmalar chog‘ida topilgan.

Iqtisodiyot rivojlanishi va texnologiya taraqqiyoti natijasida butun dunyoda, shu jumladan O‘zbekistonda ham elektron tijorat faol rivojlanmoqda. Bu esa o‘z navbatida to‘lovlarni banklar orqali an’anaviy tarzda amalga oshirishdan zamonaviy texnologik innovatsiyalarga asoslangan mobil, tezkor, ishonchli to‘lovlarga o‘tishni taqozo qilmoqda.

Ya'ni, an'anaviy to'lov tizimiga muqobil, yangi to'lov tizimlari yaratilishi kun talabiga aylanmoqda.

Bunday muqobil to'lov tizimlaridan eng qulaylari – bu mobil telefonlar vositasida ishlaydigan va barcha moliyaviy talablarga mos keladigan to'lov tizimlaridir.

Bu tizim bo'yicha mijoz tovar yoki xizmat uchun to'lovni amalga oshirish uchun naqd, pul o'tkazish, chek yoki plastik kartadan emas, balki o'zining mobil telefonidan foydalanishi mumkin.

Bunday tizimlarning vujudga kelishi va rivojlanishiga sabab ularning hammabopligi, soddaligi va ishonchliligidadir. Bu esa o'z navbatida ulkan mobil moliyaviy xizmatlar bozorining vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Bunday tizim vositasida har qanday shaxs bankda maxsus hisob raqami o'rniga "elektron hamyon" deb nomlanuvchi elektron hisob raqamida o'z pulini saqlashi va tasarruf qilishi mumkin.

Mobil telefon oddiy muloqot va axborot vositasidan naqd va naqdsiz pulni saqlash, o'tkazish, qabul qilish, tovar sotib olish, majburiy to'lovlarni va ijtimoiy to'lovlarni amalga oshirish vositasiga aylanishi ham muqobil to'lov tizimlarining xususiyatlaridandir.

O'zbekistonda bu borada so'nggi yillarda izchil sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda. Xususan, bu sohaga oid qonunchilik hujjatlari qabul qilinmoqda va zarur infratuzilmalar shakllantirilmoqda. Mobil telefon orqali kommunal to'lovlar amalga oshirilayotgani, ayrim xizmatlar uchun pul o'tkazilayotgani ham muqobil tizimlar mamlakatimizda yo'lga qo'yilayotganini anglatadi.

Qadriyatlar!

"Pul – bu qo'lning kiri", "Pul bo'lsa, changalda sho'rva" kabi iboralarga o'z munosabatingizni bildiring.

1. Plastik kartalar haqida nimalarni bilasiz? Ularning qog'oz pullardan farqi va afzalliklari nimada?
2. Muqobil to'lov tizimlariga ehtiyoj tug'ilayotganligining sababi nimada?
3. Mobil telefonlarning to'lov vositasi sifatida ishlatilayotganining sababi nimada deb o'ylaysiz?
4. Oilangizdagi kattalardan mobil telefon orqali qanday to'lovlarni amalga oshira olishlarini so'rab biling.

II BOBNI TAKRORLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

A. SAVOLLAR

1. Pul bo‘lmagan davrlarda mahsulotlarni ayirboshlash jarayonida qanday qiyinchiliklar bo‘lganligini tushuntirib bering.
2. Har qanday narsa ham pul vazifasini bajara oladimi?
3. Pulning har bir vazifasini ko‘rsatuvchi misollar keltiring.
4. Oldi-sotdi jarayonidan xaridor ham, sotuvchi ham manfaat ko‘rishini izohlab bering.
5. Bozorning mavjud bo‘lishi uchun har doim ham maxsus ajratilgan joyning bo‘lishi shartmi? Javobingizni misollar bilan asoslang.
6. Bozor vazifalarini ayting va ularni bozor misolida tushuntirib bering.
7. Ishlab chiqarish vositalari bozoridagi tovarlar narxlarining oshishi iste’mol tovarlari bozoridagi tovarlar narxiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
8. Ishlab chiqarish vositalari bozori va iste’mol tovarlari bozorining bir-biriga o‘xshash hamda farqli tomonlarini sanab bering.
9. Davlat bozordan nimalar sotib oladi va nimalar sotadi?
10. Iqtisodiyotda resurslar, tovarlar, xizmatlar va pul mablag‘lari aylanib turishini turli xil misollar yordamida tushuntirib bering.

B. TOPSHIRIQLAR

Har bir atamaga mos talqinni toping.

ATAMALAR:

1. Ayirboshlash.
2. Pul.
3. Narx.
4. Bozor.
5. Iste’mol tovarlari bozori.
6. Bozor qatnashchilari.
7. Ishlab chiqarish vositalari bozori.
8. Ishlab chiqaruvchilar.
9. Iste’molchilar.
10. Qimmatbaho qog‘oz.
11. Mehnat birjasi.
12. Bozor infratuzilmasi.

TALQINLAR:

a) aholi, uy xo‘jaliklarining ehtiyojlarini qondiradigan va bevosita iste’mol qilinadigan tovar hamda xizmatlar bozori;

b) tovar va xizmatlar uchun to‘lovni amalga oshirishga mo‘ljallangan, maxsus ayirboshlov vositasi;

d) korxonalar va ish qidirib yurgan kishilar o‘rtasida vositachilik faoliyatini olib boruvchi tashkilot;
e) bir mahsulotni sotish yoki sotib olish yoki boshqasiga almashtirish;
f) xaridor va sotuvchilar oldi-sotdi jarayonini amalga oshirish uchun uchrashadigan makon;
g) bir birlik tovar qiymatining puldagi ifodasi;
h) ma’lum miqdordagi mablag‘ga (yoki mulkka) egalikni yoki unga nisbatan munosabatni tasdiqlovchi maxsus hujjat;
i) tovar va xizmatlardan foydalanuvchi (iste’mol qiluvchi) uy xo‘jaliklari;
j) korxona va firmalar ehtiyojlari uchun zarur tovar hamda xizmatlar sotiladigan bozor;
k) tovar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchi korxonalar;
l) davlat, ishlab chiqaruvchilar va uy xo‘jaliklari;
m) bozor vazifalarini amalga oshirishda bevosita qatnashmasdan, unga yordam beruvchi, xizmat ko‘rsatuvchi korxona, tashkilot va muassasalar.

D. TESTLAR

1. Odatda, ayirboshlash ...

A. bir tomon uchun manfaatli, ikkinchi tomon uchun esa manfaatsiz bo‘ladi.
B. har ikkala tomon uchun ham manfaatli bo‘ladi.
D. qanday tovarlar almashinayotganiga qarab har ikkala tomon uchun ham manfaatli bo‘ladi.
E. qanday tovarlar almashinayotganiga qarab har ikkala tomon uchun ham manfaatsiz bo‘ladi.

2. Bozor — bu ...

A. sotuvchi va xaridor uchrashadigan joy.
B. tovar va xizmatlar ayirboshlash joyi.
D. ishlab chiqarishni iste’mol bilan bog‘laydigan vosita.
E. noto‘g‘ri javob yo‘q.

3. Tovarning narxi — bu ...

A. xaridorning tovar uchun to‘lamoqchi bo‘lgan pul miqdori.
B. tovarni ishlab chiqarish uchun sarflangan jami xarajat miqdori.
D. tovarni ishlab chiqarish, saqlash va sotish uchun sarflangan jami pul miqdori.
E. bir birlik tovar qiymatining puldagi ifodasi.

4. Anvarning dadasi 2.000.000 so‘m maoshining 1.500.000 so‘mini bankka omonatga qo‘ydi va qolgan pulini ro‘zg‘orga ishlatdi. Bu vaziyatlarda pul qanday vazifalarni bajarmoqda?

A. O‘lchov va jamg‘arish vositasi.
B. Muomala va o‘lchov vositasi.
D. Muomala va jamg‘arish vositasi.
E. O‘lchov, jamg‘arish va muomala vositasi.

5. Iste’mol tovarlari qanday maqsadda ishlatiladi?

A. Dastgohlar ishlab chiqarish.
B. Boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish va qayta ishlash.
D. Aholi va uy xo‘jaliklari ehtiyojlarini qondirish.
E. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish.

6. Ishlab chiqarish vositalari nima uchun xizmat qiladi?

A. Ishlab chiqarish dastgohlarini ta’mirlash.
B. Korxonada xom ashyoga ishlov berib, mahsulot ishlab chiqarish.
D. Bozorda sotish uchun.
E. Ishlab chiqarishni xom ashyo bilan ta’minlash.

7. Bozorda ...

A. hamma vaqt sotuvchining mavqei xaridornikiga qaraganda baland bo‘ladi.
B. hamma vaqt xaridorning mavqei sotuvchinikiga qaraganda baland bo‘ladi.
D. hamma vaqt sotuvchi va xaridorning mavqeyi baravar bo‘ladi.
E. sotuvchining xaridorga nisbatan mavqeini aniqlab bo‘lmaydi.

8. Aksiyalar qaysi bozorda sotiladi?

A. Ishlab chiqarish vositalari bozorida.
B. Moliya bozorida.
D. Mehnat bozorida.
E. Intellektual tovarlar bozorida.

9. Iqtisodiyotda ... muntazam aylanib turadi.

A. faqat pul mablag‘lari
B. faqat pul mablag‘lari va tovarlar;
D. faqat tovar va xizmatlar
E. resurs, tovar, xizmatlar va pul mablag‘lari

10. Pul qanday xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak?

A. Qulay va ixcham.
B. Pishiq va barqaror.
D. Soxtalashtirish qiyin.
E. Yuqoridagilarning barchasi.

Xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish uchun mehnatga munosib haq to‘lash tizimini shakllantirish va aholi real daromadlarini oshirishimiz zarur.

Shavkat Mirziyoyev

III bob. Oila — uy xo‘jaliklari iqtisodiyoti

11- MAVZU ISTE'MOLCHILARNING DAROMADLARI VA XARAJAT TURLARI

FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Rasmdagi oilaning qanday daromadlari bo‘lishi mumkin deb o‘ylaysiz?
2. Bu oila yaxshi turmush kechirishi uchun bir oyda qanday harajatlar qilishi kerak?
3. Oilaning har bir a’zosi iste’molchi sifatida o‘z ehtiyojlarini alohida o‘zi to‘la qondira oladimi? Buning uchun unga nimalar yetmasligi mumkin?
4. Oilaga xo‘jalik yuritish uchun har bir a’zosining shaxsiy xarajatlaridan tashqari yana qanday umumiy xarajatlar zarur bo‘ladi deb o‘ylaysiz?

Iste’molchi – bu turli tovar va xizmatlarni o‘z shaxsiy yoki oilaviy ehtiyojlari uchun sotib oluvchi yoki buyurtma beruvchi shaxs. Bunda iste’molchi sifatida alohida olingan fuqarodan tashqari butun bir oilani ham nazarda tutiladi. Iste’molchi sifatida qaralganida iqtisodiyotda oila tushunchasi o‘rniga ko‘pincha uy xo‘jaligi tushunchasi ishlatiladi.

Kishining ma’lum vaqt davomida (bir oyda yoki bir yilda) ishlab topgan va qo‘lga kiritgan barcha moddiy hamda pul tushumlari *daromad* deb ataladi. Daromad bevosita mehnat yoki biror mulk (boylik)ni ishlatish evaziga hosil qilinishi mumkin. Bu darsda daromadning bevosita mehnat evaziga hosil qilinadigan turi haqida to‘xtalamiz. Ish haqi mehnat evaziga olinadigan daromad bo‘lib, u iste’molchilar daromadining asosiy qismini tashkil qiladi.

Ish haqining quyidagi turlari bo‘lishi mumkin:

— ishchining tayyorlagan mahsuloti miqdori yoki bajargan ishiga qarab to‘lanadigan pul miqdori — *ishbay ish haqi*.

— ishchining ishlagan vaqti miqdoriga qarab to‘lanadigan pul miqdori — *vaqtbay ish haqi. Bir oyga qat’iy belgilangan vaqtbay ish qo‘lhaqi — oylik maoshdir.*

Davlat tashkilotlarida ishlovchilar, asosan, oylik maosh ko‘rinishidagi vaqtbay ish haqi oladilar. Zavod va fabrikalarning ishchilariga, ko‘pincha, ishbay ish haqi belgilanadi. O‘qituvchilar, odatda, o‘tgan darslari uchun vaqtbay ish haqi olishadi. Shuningdek, ba’zi korxona va tashkilotlarda ishchilarga qat’iy oylik maosh tayinlanishi bilan bir qatorda, bajarilgan ish hajmiga bog‘liq ravishda qo‘shimcha ishbay ish haqi ham beriladi.

Iste’molchi daromadlari har doim ham pul ko‘rinishida bo‘lavermaydi. Masalan, oila o‘z tomorqasida sabzavot ekinlari yetishtirib, iste’mol qiladi. Bu bilan ular to‘g‘ridan to‘g‘ri tushum ko‘rinishidagi daromadni o‘zlashtiradilar.

Qariyalar har oyda qarilik pensiyasi oladilar. *Stipendiya* talabalarga o‘qish davrida, *nafaqalar* esa ishsizlik, kasallik yoki boshqa sabablarga ko‘ra vaqtincha ishlay olmaydigan kishilarga, ko‘p bolali yoki kam ta’minlangan oilalarga davlat va korxonalar tomonidan beriladigan yordam pulidir.

Davlat tomonidan beriladigan yordam pullari boshqacha *ijtimoiy transfertlar* deb ham ataladi.

Ish haqi — korxona tomonidan yollanib ishlayotgan xodimga bajarilgan ish uchun to‘lanadigan pul.

Ishbay ish haqi — ishchiga tayyorlagan mahsulot miqdoriga qarab to‘lanadigan pul miqdori.

Vaqtbay ish haqi— ishchiga ishlagan vaqti miqdoriga qarab to‘lanadigan pul miqdori.

Oylik maosh — ishchiga bir oy davomidagi mehnat faoliyati uchun qat’iy belgilangan vaqtbay ish haqi miqdori.

Daromad — kishi (oila)ning ma’lum vaqt davomida ishlab topgan va qo‘lga kiritgan barcha moddiy hamda pul tushumlari.

Har bir kishi hayot kechirishi uchun u qanchadir darajada xarajat qilishiga to‘g‘ri keladi. Masalan, oziq-ovqat, kiyim-bosh, shaxsiy gigiyena tovarlari va h.k. Oila a’zolarining shaxsiy xarajatlaridan tashqari oilada xo‘jalik yuritish uchun umumiy xarajatlarni ham amalga oshish zarurati ham bor. Masalan, uyni jihozlash, birgalikda hordiq chiqarish, avtomobil xarid qilish va h.k.

Iste’mol xarajatlarini ikki turga bo‘lish mumkin: majburiy xarajatlar va erkin xarajatlar. *Majburiy xarajatlar* — kundalik turmushda ularsiz

yashab bo‘lmaydigan birlamchi xarajatlar. Unga oziq-ovqat mahsulotlari, maishiy xizmat, kiyim-kechak va transportga ketgan xarajatlar kiradi. Bir kishi iste’moli uchun bir oyda sarf qilinadigan majburiy xarajatlar miqdori shartli ravishda **iste’mol savati** deb yuritiladi. Majburiy xarajatlardan tashqari iste’mol xarajatlari — *erkin xarajatlar* sirasiga kiradi. Erkin xarajatlarga misol qilib zargarlik buyumlari, qimmatbaho uy jihozlari, shaxsiy avtomobil va shu kabilarga sarf qilinadigan xarajatlarni keltirish mumkin. Agar oilaning daromadi majburiy xarajatlardan ortmasa, uning erkin xarajatlariga mablag‘i qolmaydi. Oilaning daromadlari qancha ko‘p bo‘lsa, uning shuncha oz qismi oziq-ovqatga va boshqa majburiy xarajatlarga sarf bo‘ladi. Bu qonuniyatni nemis iqtisodchisi Ernest Engel fanga kiritgan.

Majburiy xarajatlar — kundalik turmushda ularsiz yashab bo‘lmaydigan birlamchi xarajatlar.

Erkin xarajatlar — qondirilishi birlamchi bo‘lmagan ehtiyojlar uchun xarajatlar.

Iste’mol savati — bir kishi iste’moli uchun bir oyda sarf qilinadigan majburiy xarajatlar miqdori.

Alohida oila – uy xo‘jaligi iste’molchi sifatida qaraladi. Uning daromad va xarajatlarni taqqoslash uchun maxsus jadval tuziladi. Bu jadval oila budjeti deb yuritiladi.

Oilaning daromad turlari	So‘mda	Foizda	Oilaning xarajat turlari	So‘mda	Foizda
1. Otaning ish haqi	1 750 000	35	1. Oziq-ovqat mahsulotlari	1 200 000	30
2. Onaning maoshi	1 250 000	25	2. Kiyim-kechak	600 000	15
3. Ijara haqi	500 000	10	3. Transport xarajatlari	160 000	4
4. Boboning nafaqasi	750 000	15	4. Uy-joy uchun to‘lov	320 000	8
5. Buvining nafaqasi	500 000	10	5. Maishiy xizmat uchun to‘lov	240 000	6
6. Omonat foizi	250 000	5	6. Uy-ro‘zg‘or mollari	200 000	5
			7. Madaniy hordiq	280 000	7
			8. Soliqlar	600 000	15
			9. Boshqa xarajatlar	400 000	10
Jami:	5 000 000	100%	Jami:	4 000 000	100 %

Oila budjeti — oilaning ma’lum davrdagi daromad manbalari va xarajatlari keltirilgan moliyaviy rejasi.

Oilaning daromadlari xarajatlaridan yuqoridagi jadvalda keltirilganidek ko‘proq bo‘lsa, – bu yaxshi. Oila ortib qolgan mablag‘ni jamg‘arishi yoki keyingi davrda qo‘shimcha xarajatlar uchun ishlatishi mumkin. Aksincha,

xarajatlar daromadlardan ko‘p bo‘lsa, bu yomon. Oila yetmagan mablag‘ni qarz yoki biror kerakli narsani sotish hisobidan qoplashi lozim bo‘ladi.

Qadriyatlar!

Xalqimizning “Daromadga qarab buromad” degan maqolini qanday tushunasiz?

Nemis iqtisodchi olimi Ernest Engelning ko‘p yillik izlanishlari oila daromadining oshishi bilan oilaning xarajatlari tarkibi o‘zgaradi, degan xulosaga olib keldi. Oila daromadlari miqdori oshganda jami xarajatlarga nisbatan oziq-ovqatga sarflanadigan xarajatlarning salmog‘i kamayadi, kiyim-kechak, uy-joy va energiya manbalariga sarflanadigan xarajatlar salmog‘i esa o‘zgarishsiz qoladi, madaniy va nomoddiy xarajatlar salmog‘i esa ortib boradi.

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

1. Iste’molchi sifatida siz qaysi xislatlarga ega ekanligingizni bilasizmi?
2. Iste’molchida cheklanganlik muammosi qanday ta’sir etadi?
3. Iste’molchi daromadlari deganda nimani tushunasiz? Xarajatlari deganda-chi?
4. Iste’molchining qanday daromad manbalari bo‘lishi mumkin?
5. Ish haqini oylik maosh, ishbay, vaqtbay va aralash ko‘rinishida oladigan kasb egalarining har biriga uchtadan misol keltiring.
6. Oila xarajatlarini majburiy va erkin xarajatlarga ajrating.
7. O‘qituvchilarga qaysi turdagi ish haqi belgilanishi va uning miqdori qay tartibda hisoblanishini surishtirib biling.
8. Engel qonunining mohiyatini hayotiy misollar yordamida tushuntirib bering. Moddiy va nomoddiy xarajatlar salmog‘i ortib borishini izohlab berishga harakat qiling.

Buni yodda tuting!

- Har bir oila o‘z budjetini tuzib, kutilayotgan daromadlariga qarab xarajatlarini amalga oshirsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.
- Iste’molchilarning birlamchi — qondirilishi majburiy bo‘lgan va ikkilamchi — qondirilishi erkin bo‘lgan xarajatlari mavjud.
- Bozorda iste’molchi quyidagi ikki qoidaga rioya qiladi:

1. Iste’molchining daromadi cheklangan, u bozorda iloji boricha o‘zini tejamli, *ratsional* tutishga harakat qiladi.
2. Iste’molchi bozorda o‘z ehtiyojlarini imkon qadar to‘laroq qondirib, *maksimal* naf olishga intiladi.

12- MAVZU MULK VA XUSUSIYLASHTIRISH

Maktab

Uy-joy

Avtobus

Poliklinika

Dorixona

Yer maydoni

FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Rasmlarda tasvirlangan mulklarning egalari kimlar bo‘lishi mumkin?
2. Mulkning biror shaxsga tegishli ekanligi qanday aniqlanadi?
3. Nega maktab ko‘pincha davlatga tegishli bo‘ladi?
4. Davlatga tegishli va xususiy poliklinikalar nimasi bilan bir-biridan farq qiladi?
5. Biri davlatga tegishli, ikkinchisi xususiy korxonaga tegishli avtobusda transport xizmati ko‘rsatayotgan haydovchilarning mehnat shart-sharoitlari orasida qanday farq bor deb o‘ylaysiz?

Biror-bir kishiga, oilaga tegishli turli-tuman buyumlar va uy jihozlari mavjud. Masalan, kiyim-kechak, mebel, madaniy-maishiy va xo‘jalik mollari va hokazolar. Yana odamlar zavod, fabrika, do‘kon, oshxona kabi turli ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish korxonalariga va firmalariga egalik qiladi. Bunday narsalar— *mulk*, mulk egasi esa — *mulkdor* deb ataladi. Mulk egalari nafaqat alohida olingan kishi yoki oila, balki firma, korxona, jamoat tashkilotlari yoki davlat ham bo‘lishi mumkin. Masalan, firmaga ishlab chiqarish binolari, mashina-mexanizmlar, asbob-uskunalar, transport vositalari va hokazolar tegishli bo‘lishi mumkin. Biror *mol-mulkka to‘la egalik qilish* deganda, mulkdorning:

— shu mol-mulkning egasi deb tan olinishi; — shu mol-mulkdan foydalanishi; — shu mol-mulkni tasarruf etishi, ya'ni boshqa birovga sotishi, almashtirishi yoki sovg'a qilishi tushuniladi.

Yuqorida sanalganlar *mulkning belgilari* deb ham yuritiladi.

Mulk — odamlar tomonidan o'zlashtirilgan va egalik qilish mumkin bo'lgan barcha narsalar.

Mulkdor — mulkka egalik qiluvchi shaxs.

Mulk obyektlari — **bu moddiy va ma'naviy ne'matlar** yer va yer osti boyliklari, bino inshootlar, mashinalar, asbob-uskunalar, tayyor mahsulotlar, pul, qimmatli qog'ozlar, san'at va adabiyot asarlari, ixtirolar kabilardir.

Mulkka egalik qiluvchi shaxslar — *mulk subyektlari* hisoblanadi. Mulk subyektlariga alohida odamlar, oilalar, kishilar jamoalari yoki davlat misol bo'la oladi.

Mulkning shaxsiy, jamoaviy, davlat va xususiy turlari farqlanadi.

Shaxsiy mulk odamning o'z shaxsiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida egalik qiladigan mulkdir. Masalan kiyim, portfel, ko'zoynak va h.k.

Kishilar guruhi egalik qiladigan mulk esa *jamoa mulki* deb yuritiladi. Masalan, televizor, gilam, dazmol kabi narsalar butun oila mulkidir.

Iqtisodiy huquq asoslari

Har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 36- modda.

Iqtisodiyot fanida mulkning davlat va xususiy turlari keng o'rganiladi.

Yer, yer usti va yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar *umummilliy boylik* hisoblanadi. Ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir. Davlat tashkilotlari, korxona va muassasalarning mol-mulklari, davlat ahamiyatiga ega madaniy boyliklar, tarixiy yodgorliklar, davlat budjetining mablag'lari, oltin-valuta zaxirasi, mol-mulklar *davlat mulkini* tashkil qiladi.

Davlat mulki bo'lgan mol-mulk davlatga tegishli korxona, idora va tashkilotlarga xo'jalik yuritish yoki boshqarish uchun biriktirib qo'yiladi. Masalan, maktabga tegishli barcha mol-mulk davlat mulki bo'lib, undan foydalanish huquqi maktab jamoasiga, unga egalik qilish huquqi tuman hokimligiga, uni tasarruf etish huquqi esa davlatning maxsus tashkiloti hisoblanmish — Davlat aktivlarini boshqarish qo'mitasiga berilgan. Maktab mulkidan, binosidan

ta'lim berishdan boshqa maqsadlarda foydalanish uchun maktab rahbariyati maktabning egasi – hokimiyatdan ruxsat olishi lozim.

Bozor iqtisodiyotida eng ahamiyatli mulk – bu *xususiy mulkdir.*

Davlat mulki — davlat korxona va tashkilotlariga tegishli mol-mulk.

Xususiy mulk ayrim kishilarga, oilalarga yoki kishilar guruhiga tegishli mulk. Bu mulkning shaxsiy yoki oddiy jamoaviy mulkdan asosiy farqi – bu uning o'z egasiga daromad keltirishi xususiyatidir.

Xususiy mulkning mulkdori bir necha shaxslar (xususan, odamlar, korxona va firmalar) bo'lganda mulkka egalik qilish huquqi bu shaxslar o'rtasida muayyan kelishuvga ko'ra taqsimlangan bo'ladi.

Xususiy mulk mulkchilikning eng ko'hna shakli. Lekin mamlakatimizda mustaqillikkacha bo'lgan rejali iqtisodiyot sharoitida uning ahamiyati yo'qolgan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida esa uning ahamiyati yana qayta tiklanmoqda.

Xususiy mulk — bitta yoki bir nechta jismoniy shaxsga tegishli bo'lgan va mulkdor tomonidan daromad olish maqsadida foydalaniladigan mulkdir.

Ashyolar – bu muayyan mulkdor egalik qiladigan narsalar, pullar, qimmatli qog'ozlar va ashyoviy huquqlardir. Ashyoviy huquqlar esa boshqa birovdan biror narsani yoki xizmatni olish huquqi bo'lib, u ham mulk egasiga tegishli bo'ladi.

Ashyolarga shaxsiy ashyolarni, ko'char va ko'chmas ashyolarni, korxona ashyolarini misol qilib keltirish mumkin.

Mulk ob'yektlarining ichida intellektual mulk o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Intellektual mulk – bu inson aqliy mehnatining mahsuli bo'lib, unga bo'lgan mulkdorlik huquqi qonun orqali ma'lum bir vaqtga shu insonga belgilab qo'yiladi. Ya'ni, bu insonning ruxsatisiz undan foydalanish taqiqlanadi.

Intellektual mulkka misol qilib quyidagilarni keltirish mumkin: adabiy, badiiy, ilmiy asarlar, ovoz yozish, radio, televideniye asarlari, kashfiyotlar, ixtirolar, kompyuter dasturlari, tovar belgisi, nou-xau va boshqalar.

Mulk shaklini davlat mulkidan xususiy mulkka o'zgartirishga *xususiylashtirish* deb ataladi. Xususiy mulkni davlat mulkiga aylantirish esa *milliylashtirish* deb yuritiladi. Mustaqillikdan oldin respublikamizdagi barcha ishlab chiqarish vositalari, zavod va fabrikalar davlat tasarrufida edi. Mustaqillikka erishilgandan so'ng bozor iqtisodiyoti yo'lini tanladik.

Korxonalarning ko‘pchiligi xususiy mulkka aylantirildi. Xususiylashtirish natijasida kichik korxonalar, do‘konlar, hunarmandchilik ustaxonalari, uy-joylar — xususiy mulkka aylantirildi.

Ayniqsa so‘nggi yillarda mamlakatimizda xususiylashtirish jarayoni keskin jadallashdi. O‘zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasining tashkil qilinishi natijasida xususiylashtirish jarayoni tizimli tus oldi. Bunda O‘zbekistondagi xususiylashtirishning asosiy maqsadi qilib xususiylashtirilgan korxonalarni modernizatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlashga xususiy investorlar mablag‘larini jalb qilish va import o‘rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarish, yangi ish o‘rinlarini tashkil qilish belgilandi.

O‘zbekistonda xususiylashtirish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- barcha davlat obyektlari ochiq savdo orqali sotiladi;
- xususiylashtirish jarayoni soddalashtirilgan va shaffof;
- barcha investorlar sotiladigan obyektlar bo‘yicha yetarli ma’lumot olishlari mumkin;
- investorlar barqaror qonunchilik vositasida kafolatlanadi.

Hozirgi iqtisodiy islohotlar orqali mamlakatimizdagi eng yirik korxonalar ham xususiylashtirilmoqda. Mamlakatimizda hatto, yerni xususiylashtirish bo‘yicha ham choralar ko‘rilmoqda.

Milliylashtirish — xususiy mulkni davlat mulkiga aylantirish.
Xususiylashtirish — davlat mulkini xususiy mulkka aylantirish.

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

1. Hamma narsaning egasi — mulkdori bo‘lishining nimasi yaxshi?
2. Mulk shakllarini sanab bering va misollar keltiring.
3. Bozor iqtisodiyotida qaysi mulk shakli eng asosiy hisoblanadi?
4. Intellektual mulk qanday mulk?
5. Xususiylashtirishdan ko‘zlangan asosiy maqsad nima deb o‘ylaysiz?
6. O‘zbekistondagi xususiylashtirish jarayoni haqida so‘zlab bering.

Buni yodda tuting!

- Pul barcha tovar va xizmatlarni ayirboshlash mumkin bo‘lgan maxsus tovardir.
- Pul insoniyatning eng katta kashfiyotlaridan biridir.
- Pul muomala, o‘lchov va jamg‘arish vositasidir.

13- MAVZU

DAROMAD VA BOYLIK

Tadbirkor Soliyevaning ko‘rsatkichlari

2017- yilda 5500 ta ayollar kostyumi ishlab chiqardi va har birini 50000 so‘mdan sotdi.

2018- yilda 6200 ta yangi dizayndagi ayollar kostyumi ishlab chiqardi va 80000 so‘mdan sotdi.

FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Soliyeva 2017- yilda qancha daromad qilgan, 2018- yilda-chi?
2. U 2018- yilda 2017- yildagiga nisbatan qancha ko‘proq daromad qilgan?
3. U qo‘shimcha daromadini nima hisobiga olgan deb o‘ylaysiz?

Odatda, har bir kishi mehnat faoliyati natijasida insonning asosiy boyligi — mehnati evaziga ma’lum daromadga erisha boshlaydi. Kishining aql-idroki, bilimi, zakovati, kuch-quvvati, ish tajribasi, kasbiy mahorati, salohiyati, sog‘lig‘i va ma’naviy dunyosi uning — *insoniy boyligi (kapitali)*ni tashkil qiladi. Inson kapitali — bu kishining iqtisodiy qadr-qimmatini aniqlovchi kattalik. Insonning ma’naviy boyligi — uning dunyoqarashi, xulqi, odobi, madaniyati kabi ruhiy dunyosi bilan bog‘liq fazilatlari inson kapitalining asosiy tashkil etuvchilardan hisoblanadi.

Inson kapitali — kishining aql-idroki, bilimi, zakovati, kuch-quvvati, ish tajribasi, kasbiy mahorati, salohiyati, sog‘lig‘i va ma’naviy dunyosi.

Mamlakatdagi mehnat resurslari uning barcha fuqarolari insoniy kapitallarining yig‘indisidan tashkil topadi. Yaponiya davlatida tabiiy boyliklar yo‘q hisobi. Bu davlat o‘z fuqarolarining insoniy kapitallarini rivojlantirish va boyitib borish evaziga hozirda ulkan iqtisodiy salohiyatga, boy kapital resurslarga ega. Kishining insoniy kapitali qancha yuksak, ma’naviy dunyoqarashi qancha go‘zal bo‘lsa, uning evaziga olinadigan daromad miqdori — ish haqi ham shuncha ko‘p bo‘ladi. Ayni paytda, siz o‘z insoniy kapitalingizni oshirish maqsadida maktabda o‘qimoqdasiz.

Keyin akademik litsey, kollej yoki universitetlarda bilimingizni yanada oshirasiz. Bularning barchasi avvaliga insoniy kapitalingizni, so‘ng daromadingizni oshirishga xizmat qiladi.

Daromadlarning asta-sekin ko‘payib borishi natijasida uni jamg‘arish imkoniyati tug‘iladi. Topilgan daromadning bir qismi o‘sha zahotiyoq sarflansa, bir qismi bankka qo‘yilgan pul, sotib olingan qimmatli qog‘ozlar, zavod, fabrika, avtomobil, uy-joy, zeb-ziynatlar ko‘rinishidagi mulk sifatida jamg‘ariladi. Bu mulk kishining *moddiy kapitali*ni tashkil qiladi. Uning insoniy va moddiy kapitali esa uning *boyligi* hisoblanadi.

Odatda boshqalarga qaraganda ko‘proq ne’matlarga ega bo‘lgan kishini odamlar boy deb ataydilar. Iqtisodiyotda esa muayyan vaqtdagi kishi daromadlarining xarajatlaridan katta darajada ortiqligi tushuniladi.

Yuqorida aytilganlarning hammasini umumlashtirib boylikka quyidagicha ta’rif berish mumkin: Boylik – bu kishida yoki jamiyatda pul, ishlab chiqarish vositalari, ashyolar kabi moddiy ne’matlarning hamda nomoddiy ne’matlarning ehtiyojlariga nisbatan ko‘pligidir. Albatta, biz haqiqiy boy odam deb ma’naviy dunyosi ham havas qilsa arzigulik odamlarni aytamiz.

Moddiy kapital — jamg‘arilgan daromadning moddiy mulkka aylangan qismi va pul mablag‘lari.

Boylik — kishining barcha insoniy va moddiy kapitallari yig‘indisi.

Kishining moddiy kapitalini tashkil etuvchi xususiy zavod va fabrikalar, ijaraga berilgan uy yoki avtomobil, bankka qo‘yilgan mablag‘, qimmatli qog‘ozlar kabi mulklari unga ijara haqi (renta), omonat foizi, dividend va tadbirkorlik foydasi ko‘rinishida qo‘shimcha daromad keltiradi.

Mamlakatimizdagi iqtisodiy munosabatlar, jamiyatdagi ijtimoiy muhit kishining va butun jamiyatning daromadlari tarkibiga keskin ta’sir qiladi. Mustaqillikkacha bo‘lgan davrda tadbirkorlik foydasi kishilar daromadlari tarkibida deyarli yo‘q edi. Mustaqillikdan keyin kishining va butun jamiyatning daromadlari tarkibida tadbirkorlik daromadi va foydasi eng katta ulushga ega bo‘lib bormoqda.

Har bir kishi turli xil qobiliyat va salohiyat egasidir. Shu bois, ular daromadlarining miqdori ham turlicha bo‘ladi. Daromadlarning tengsizligi bozor iqtisodiyotiga xos xususiyat bo‘lib, aynan shu tengsizlik kishilarni yaxshiroq ishlashga, ko‘proq daromad topishga undaydi.

Daromadlar o‘rtasidagi farq keskin oshib ketishi ham yaxshi oqibatlarga olib kelmaydi, albatta. Shu sababdan, aholining daromadlari

o‘rtasidagi keskin farqlar davlat tomonidan fuqarolar daromadlarini soliqqa tortish, kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar berish va boshqa yo‘llar orqali tartibga solib turiladi.

Ijara haqi (renta) — birovning mulkidan foydalanganlik uchun to‘lanadigan haq.

Omonat foizi — omonatga qo‘yilgan pul mablag‘idan foydalanganlik uchun to‘lanadigan qo‘shimcha haq.

Tadbirkorlik foydasi — tadbirkorlik faoliyati natijasida qo‘lga kiritiladigan daromaddan kelgan foyda.

Qadriyatlar!

“Boylik molning ko‘pligida emas, balki ko‘ngilning to‘qligidadir” deyilgan hadisga o‘z munosabatingizni bildiring.

Ma’lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida narxlar o‘zgarib turadi. Odatda, turli yillardagi daromadlar o‘zaro taqqoslanayotganda ularning shu yillardagi miqdori nominal qiymati emas, balki muayyan yilga nisbatan qiymati, ya’ni real qiymatlari taqqoslanadi. Shunday qilib, *nominal daromad* daromadning joriy yildagi narxlardagi qiymati. *Real daromad* esa daromadning muayyan yildagi narxlarga nisbatan qiymatidir. Real daromad nominal daromadni tegishli iste’mol narxlari indeksiga bo‘lib topiladi.

Iste’mol narxlar indeksi (INI) aholi tomonidan sotib olinadigan muayyan tovar va xizmatlar narxining ma’lum boshlang‘ich davrdagi narxlarga nisbatan o‘zgarishini ifodalaydi. Uni boshqacha qilib, qaralayotgan vaqt davomida narxlarning o‘zgarish darajasi deb ham aytish mumkin. Masalan, 2018- yil shartli mamlakat aholisining o‘rtacha nominal daromadi 2017- yilga nisbatan 36,4%ga oshgan. Natijada 2017- yili fuqaro 1 000 000 shartli pul birligi daromad qilgan bo‘lsa, 2018- yilga kelib 1 364 000 so‘m daromad qilgan. Bu — fuqaroning turmush darajasi 2018- yil oxiriga kelib, 2017- yilga nisbatan 1,364 marta yaxshilanganligini bildirmaydi, albatta. Chunki, bu vaqt davomida narxlar ham oshib borgan. Ma’lum bo‘lishicha, narxlar bu davrda o‘rtacha 7,5%ga, ya’ni 1,075 martaga oshgan. Agar nominal daromad miqdorini narxlarning oshishi darajasiga bo‘lsak: 1 364 000 : 1,075= 1268837 so‘m aholining real o‘rtacha daromadlari miqdori kelib chiqadi. Demak, 2018- yil oxirida fuqarolarning daromadlari 2017- yilga nisbatan taxminan 1,27 marta oshgan ekan.(1 268 837:1 000 000≈1,27)

Nominal daromad — ma'lum davr davomida alohida olingan shaxs yoki oila tomonidan qo'lga kiritilgan daromad miqdori.

Real daromad — nominal daromadning muayyan davrdagi narxlar o'zgarishiga nisbatan qiymati.

Formula

$$R_r = \frac{R_n}{I}$$

R_n — nominal daromad;
R_r — real daromad;
I — iste'mol narxlari indeksi yoki narxlarning o'zgarish darajasi.

BILIMINGIZNI SINAB KO'RING!

1. Insonning iqtisodiy qadr-qimmati nima bilan o'lchanadi deb o'ylaysiz?
2. Insonning ma'naviy boyligi deganda nimani tushunasiz? Uning inson kapitali — iqtisodiy qadr-qimmatidagi o'rni haqida nima deya olasiz?
3. Boylik nima? Qanday odamni boy deb atash mumkin?
4. Xususiy mulkdan olinadigan daromadga misollar keltiring.
5. Nominal va real daromadning farqini aytib bering.
7. Daromadlar tengsizligining afzallik va kamchilik tomonlarini sanang.

Buni yodda tuting!

- Har qanday odamda yoki korxonada ma'lum miqdordagi mulk bo'ladi.
- Mulkning shaxsiy, jamoaviy, davlat va xususiy turlari farqlanadi.
- Davlat mulki barcha fuqarolar uchun xizmat qiladi.
- Bozor iqtisodiyotida xususiy mulk yetakchi o'rin tutadi.
- Xususiylashtirish orqali mulk haqiqiy egasiga topshiriladi.

Buni yodda tuting!

- Insonning iqtisodiy qadr-qimmati (boyligi) — uning insoniy va moddiy kapitallari yig'indisi bilan o'lchanadi.
- Mehnat resursi — ish haqi, tabiiy resurs — renta, kapital resurs — foiz (dividend), tadbirkorlik — foyda ko'rinishida daromad keltiradi.
- Nominal daromad joriy narxlarda hisoblansa, real daromad olingan muayyan yil narxlariga nisbatan hisoblanadi.
- Daromadning real miqdori uning yillar bo'yicha qay darajada o'zgarganligini aniqlashga yordam beradi.

14- MAVZU JAMG‘ARISH VA SUG‘URTA

O‘zbekiston Milliy banki omonatlaringizni 18 % yillik foiz stavkasi bilan ko‘paytirib beradi. Foiz miqdori har oyda hisoblanib, omonatingizga qo‘shib boriladi.

“Ipoteka bank” aksiyalarini sotib olsangiz, yiliga 20 % qo‘shimcha daromad — dividend olasiz.

Mablag‘ingizni “Ipoteka” bankiga qo‘ying. Bu bilan uy qurish yoki sotib olish imkoniyatiga ega bo‘lasiz.

Pulingizni hamyoningizda saqlang!

Do‘konimizdan audiotexnika vositalarini naqd pulga yoki pul o‘tkazish yo‘li bilan sotib olishingiz mumkin.

FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

Yuqorida keltirilgan rasmlarda turli xil muassasalar pulingizni jamg‘arishda yoki uni siz uchun foydali bo‘lgan ishga sarflashingizda o‘z xizmatlarini taklif qilmoqda. Aytaylik, sizning 2 000 000 so‘m pulingiz bor va uni o‘zingiz uchun biror-bir nafli ishga sarflamoqchisiz.

1. Har bir taklifni sinchiklab o‘rganib chiqing va ularning ijobiy va salbiy tomonlarini tahlil qiling.
2. Qaysi bir taklif ko‘proq daromad (naf) keltiradi?
3. Har bir taklifdan kelishi mumkin bo‘lgan nafni (foydani) shaxsiy va jamiyat nuqtai nazaridan baholang.
4. Qaysi bir taklifning haqqoniyligiga ko‘proq ishonasiz?
5. Qaror qabul qilish jadvalini tuzib, har bir taklifni o‘zingizga ma’qul keladigan mezonlar bo‘yicha baholang va tanlovingizning natijasini e’lon qiling. Nima uchun aynan shu qarorga kelganligingizni asoslab bering.

Ma'lumki, odamlar, odatda, daromadlarini birdaniga sarflashga harakat qilishmaydi, balki uning bir qismini omonat ko'rinishida saqlab qo'yishadi, ya'ni jamg'arishadi. Jamg'arma kelajakdagi ehtiyojlarni qondirish maqsadida jamg'ariladigan pul mablag'idir.

Jamg'arma — kelajakdagi ehtiyojlarni qondirish uchun jamg'ariladigan pul.

Boylik biror-bir moddiy tovar — ko'chmas mulk (uy-joy va binolar), qimmatbaho metall va toshlar, ulardan yasalgan taqinchoqlar, zeb-ziynat buyumlari yoki bevosita pul mablag'lari ko'rinishida jamg'arilishi mumkin. Hozirgi zamonda pulni ko'rpa orasida yoki sandiqda saqlash to'g'ri qaror emas, chunki u pul egasiga hech qanday foyda keltirmaydi. Pulni to'g'ri jamg'arish ham kishidan ma'lum darajadagi bilimni talab qiladi.

Pul mablag'larini saqlashga ixtisoslashgan ko'plab muassasalar mavjud. Bunday korxonalar qatoriga omonat banklari, fond birjalari, pensiya jamg'armalari, sug'urta kompaniyalari, nasiyaga turli xil tovarlar sotuvchi va nasiyaga uy-joy qurib sotish bilan shug'ullanuvchi jamiyatlarni kiritish mumkin.

Jamg'arilgan pullarni tasarruf qilishning eng maqbul yo'li – bu investitsiya, ya'ni yangi korxonalarni yaratish yoki mavjudlarini modernizatsiya qilish uchun ishlatishdir. Fond birjasidan biror korxona aksiyasini sotib olib, korxonaning yillik foydasidan dividend ko'rinishidagi daromad olishingiz mumkin. Investitsion faoliyatning o'ziga xos tomoni shundaki, unda muvaffaqiyatli faoliyatgina daromad olish imkonini beradi. Aks holda nafaqat foydani, balki o'z mablag'ingizni ham yo'qotishingiz hech gap emas.

Omonat deb bankka mablag'ni jamg'arish va ko'paytirish maqsadida, ma'lum ustama haq — foiz evaziga pul qo'yishga aytiladi. Mana shu ustama haq – omonat foydasini quyidagi formula orqali hisoblab chiqarish mumkin:

Investitsiyalar(ing. Investments) — yangi korxonalarni tashkil qilish, mavjudlarini modernizatsiya qilish, yangi texnologiya va texnikani o'zlashtirish, ishlab chiqarishni kengaytirishga yo'naltirilgan mablag'lardir.

$$\textbf{Omonat yillik foydasi} = \frac{\textbf{Omonat miqdori} \cdot \textbf{omonat yillik foizi}}{100\ \%}$$

Omonat bankka bir oyga qo'yilgan bo'lsa, u holda omonat foydasini quyidagi formula orqali hisoblab chiqarish mumkin:

Omonat oylik foydasi = Omonat yillik foydasi : 12

Omonat bir necha oyga qo'yilgan bo'lsa u holda bunday omonat foydasini *Omonat oylik foydasi*ni oy soniga ko'paytirib topiladi. Masalan, omonat 3 oyga

qo‘yilgan bo‘lsa bu omonat foydasini *Omonat oylik foydasi*ni 3 ga ko‘paytirib topiladi. Omonatga pul qo‘yish uchun bankni tanlashda, asosan, ikkita mezonga ahamiyat berish zarur: daromadlilik va ishonchlilik.

Iqtisodiy huquq asoslari

Bankka qo‘yilgan omonatlar sir tutiladi va meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 36-modda

Omonat — mablag‘ni jamg‘arish va ko‘paytirish maqsadida ma’lum ustama haq — foiz evaziga bankka qo‘yish.

Omonatning eng katta dushmani — bu inflatsiya. *Inflatsiya* — bu mamlakatda o‘rtacha narx-navoning muttasil oshib borishi natijasida pulning qadrsizlanishidir.

Agar mamlakatda iste’mol tovarlarining narxi 3 marta ortsa, demak, aholining omonatlari ham shuncha marta qadrsizlanadi. Shuning uchun, kuchli inqiroz davrlarida omonatni pul ko‘rinishida saqlash iqtisodiy jihatdan to‘g‘ri emas. Yaxshisi, zudlik bilan kelajakda yuqori narxlarda sotish oson bo‘lgan tovarlarni sotib olish kerak bo‘ladi.

Iste’molchilarning shaxsiy pul mablag‘lari foydalanilmasdan bir joyda turgandan ko‘ra tegishli muassasada saqlansa, bu nafaqat omonatchi uchun, balki davlat va ishlab chiqaruvchi firmalar uchun ham foydalidir. Chunki, bu pul mablag‘lari ishlab chiqarishga yo‘naltirilib, tovar va xizmatlar hajmining ko‘payishiga olib keladi. Bundan esa, o‘z navbatida, mamlakat iqtisodiyoti manfaat ko‘radi. Shu bois, jamg‘armalar iqtisodiy rivojlanishning asosiy negizlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Inflatsiya — mamlakatda o‘rtacha narx-navoning muttasil oshib borishi natijasida pulning qadrsizlanishi.

Turli xil kutilmagan holatlar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan moliyaviy muammolardan muhofaza qilish *sug‘urta* deb ataladi.

Hozirda mulk sug‘urtasi, hayot sug‘urtasi, tibbiy sug‘urta kabi qator sug‘urta turlari mavjud. Bunday sug‘urta turlarida sug‘urta kompaniyalariga muttasil sug‘urta badallari to‘lab boriladi. Biror kor-hol yuz berganda vujudga keladigan moliyaviy muammo, yetkazilgan zarar yoki yo‘qotishning o‘rni sug‘urta kompaniyasi tomonidan qoplanadi. Masalan, uy-joy sug‘urta qilinganda har yili ma’lum miqdordagi sug‘urta badali to‘lab boriladi. Biror baxtsiz hodisa, masalan, yong‘in tufayli uy-joyga ziyon yetganda, ko‘rilgan moliyaviy zarar sug‘urta kompaniyasi tomonidan to‘lanadi.

Sug‘urta — turli xil kutilmagan holatlar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan moliyaviy muammolardan muhofaza qilish.

Mashq

2018- yilda tijorat banklaridan biri:

1 oy muddatga — 18%; 2 oy muddatga — 21%; 3 oy muddatga — 24% yillik foiz stavkasi bilan qo‘shimcha haq to‘lashini e’lon qildi.

1. Bankning yillik foiz stavkalari nima sababdan har xil?
2. Agar yillik foiz stavkasi 24% ni tashkil qilsa, bir oylik foiz stavkasi necha foizni tashkil qiladi?
3. Bankka qo‘yilgan 5.000.000 so‘m 1, 2, 3 oy saqlanganda necha so‘m bo‘lib qaytishini hisoblang.

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

1. Odamlar nima sababdan pullarini jamg‘aradilar?
2. Pul jamg‘arishning qanday yo‘llarini bilasiz va ular ichidan qaysi biri siz uchun ma’qul va qulay? Nega?
3. Pulni jamg‘arishdan pul egasidan boshqa yana kimlar manfaatdor bo‘ladi?
4. Pul jamg‘arib ko‘rganmisiz? Pul jamg‘arish osonmi yoki qiyinmi?
5. Qanday paytda pul mablag‘larini jamg‘arish befoyda, hatto ziyon bo‘lishi mumkin? Bunday vaziyatda qanday yo‘l tutgan ma’qul?
6. Inflatsiya nima? Nima sababdan uni omonatning eng katta dushmani deb ataydilar?
7. Sug‘urta nima? U nima uchun kerak?

Buni yodda tuting!

- Iste’molchilar daromadlari ko‘payganda uning bir qismini jamg‘arishga moyil bo‘ladilar.
- Jamg‘arilgan mablag‘lar ko‘pincha moddiy kapitalni ko‘paytirishga sarflanadi.
- Jamg‘arishning asosiy dushmani — bu pulning qadrsizlanishi — inflatsiyadir.
- Jamg‘arish kelajakda iqtisodiy rivojlanish negizi hisoblanadi.

15- MAVZU IQTISODIY QAROR QABUL QILISH

Muqobil imkoniyatlar (sotib olish mumkin bo‘lgan narsalar nomi)	Baholash mezonlari (sotib olishning maqsadga muvofiqligi va undan keladigan naf mezonlari)					
	Pulning yetishi	Ehtiyojning borligi	Bilim olishga foydasi	Sog‘liqqa foydasi	Uydagilarga xush kelishi	
1. Velosiped						
2.Kostum-shim						
3.Audio-pleyer						
4.Karate seksiyasi						
5.Ingliz tili kursi						
6....						

FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. **Muammo:** aytaylik, sizga dadangiz tug‘ilgan kuningizda 800.000 so‘m pul berdi va nima sotib olsam ekan, deb o‘ylanib qoldingiz.
2. **Muqobil yechimlar:** aytaylik, bu pulga “Qaror qabul qilish jadvali” deb atalgan, yuqorida keltirilgan jadval satrlarida yozilgan muqobil narsalarni sotib olishingiz mumkin: 1) o‘rtog‘ingizning velosipedini; 2) kostum-shim; 3) audio-pleyer; 4) 6 oy davomida pullik karate seksiyasiga qatnash; 5) 3 oy davomida ingliz tilidan pullik kursga qatnash; 6) o‘zingizga xush kelgan yana nimadir. Jadvalni daftaringizga ko‘chirib oling va 6-narsaning ham nomini oxirgi qatoriga yozib qo‘ying.
3. **Baholash mezonlari:** har bir narsani sotib olishdan ko‘rishingiz mumkin bo‘lgan naf, uning maqsadingizga qanchalik mos kelishi va ehtiyojlaringizni qay darajada qondirishini ko‘rsatuvchi mezonlar yuqoridagi jadvalda keltirilgan. Shu bilan birga siz uchun yana muhim bo‘lib ko‘ringan boshqa me’zonni ham jadvalning bo‘sh ustunga yozib qo‘ying.
4. **Har bir muqobil yechimni mezonlar bo‘yicha baholash:** har bir yechimni keltirilgan mezonlar bo‘yicha baholab, mos kataklarga: agar mezon bo‘yicha fikr ijobiy bo‘lsa, “+”, agar salbiy bo‘lsa, “–”, agar ijobiy ham, salbiy ham bo‘lmasa, “0”, agar noma’lum bo‘lsa, “?” belgisini qo‘yib chiqing.
5. **Tanlov:** baholash natijasiga ko‘ra, qaysi narsa eng ko‘p ijobiy baho olganligini aniqlang. Xuddi shu narsa siz sotib olishingiz kerak bo‘lgan narsa bo‘lib chiqadi.

6. Qarorlaringizni yoningizda o‘tirgan o‘rtoqlaringizniki bilan taqqoslang. Nima sababdan qarorlar turlicha bo‘lib chiqdi?

“Bo‘ston” fermer xo‘jaligining rahbari Kamol Abdullayev o‘zi yashab turgan qishloqda sutni qayta ishlash korxonasini qurishga qaror qildi.

Keling, bunday qarorning paydo bo‘lish sabablarini o‘zimizcha tahlil qilishga urinib ko‘raylik. Albatta, har bir qarorning qabul qilinishidan oldin iqtisodiy vaziyat, mavjud resurslardan foydalanish imkoniyatlari sinchiklab o‘rganib chiqilgan. Iqtisodchilar tili bilan aytadigan bo‘lsak: Nima ishlab chiqarish kerak? Qanday ishlab chiqarish kerak? Kim uchun ishlab chiqarish kerak? degan savollarga javob izlangan. Ya’ni qaror (imkoniyatlardan birini tanlash) iqtisodiy jihatdan eng maqbul qaror bo‘lgan. Abdullayev bunday qarorni qabul qilishdan oldin har xil muqobil imkoniyatlarni obdon taqqoslab ko‘rdi. Uning oldida konserva zavodi, meva sharbati ishlab chiqarish, go‘shtni qayta ishlash korxonalarini qurish imkoniyatlari ham mavjud edi. Lekin u barcha imkoniyatlarini ‘‘qancha mablag‘ talab qilinishini’’, ‘‘mahsulotga talab mavjudligi’’, ‘‘keltiradigan daromadi va foydasi’’, ‘‘mavsumiyligi’’ kabi mezonlar bo‘yicha iqtisodiy tahlil qilib ko‘rdi. Ushbu mezonlar yordamida imkoniyatlarni baholadi va o‘zi uchun eng iqtisodiy maqbul bo‘lgan qarorni qabul qildi – sut ishlab chiqarish korxonasini qurishni tanladi. Ya’ni, bunday iqtisodiy qaror qabul qilish bo‘yicha ish bir nechta muammo, muqobil imkoniyatlar, baholash mezonlari, baholash, tanlov kabi bosqichlarda amalga oshirildi.

Har bir qarorning qadr-qimmati va nafi alohida olingan shaxsga hamda jamiyatga keltiradigan qiymati bilan o‘lchanadi. Abdullayevning sutni qayta ishlash korxonasini qurish haqidagi *qarorining xususiy qadr-qimmati*, korxonani ishlatish natijasida, avvalo, uning o‘ziga keladigan foyda va o‘z ishidan qoniqish hissi kabi naf bilan korxonani qurish uchun sarflanadigan xarajatlar va qo‘ldan boy berilgan imkoniyatlarni o‘zaro taqqoslash natijasida aniqlanadi. Ikkinchi tomondan, bu qarorning ijtimoiy qadr-qimmati ham bo‘lib, u qishloqda qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratish, odamlarning sut mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish kabi jamiyatga keltiriladigan naf bilan jamiyat tomonidan qilinadigan chiqimlar va boy berilgan boshqa muqobil imkoniyatlarni o‘zaro taqqoslash natijasida aniqlanadi. Shunday qilib, har bir shaxs qaror qabul qilayotganida ham shaxsiy, ham ijtimoiy nuqtai nazardan qo‘lga

kiritadigan yutuqlari bilan qo‘ldan boy beradigan imkoniyatlarini, albatta, o‘zaro taqqoslashi lozim ekan.

Kamol Abdullayev sutni qayta ishlash korxonasini qurishga qaror qilganida bu qaror, albatta, tejamkorlik bilan *ratsional* qabul qilingan. Ikkinchi tomondan esa bu qarorni amalga oshirgandan so‘ng olinadigan natija haqida o‘ylab ko‘rilgan. Bu natija, albatta, o‘zining eng “katta”, maksimal qimmatli nafga ega bo‘lishi bilan ajralib turishi lozim. Aks holda bunday qaror qabul qilinmas edi. Haqiqatan, agar K.Abdullayev uchun sutni qayta ishlash korxonasidan ko‘ra konserva zavodini qurish ko‘proq qimmatli va nafli (samarali) bo‘lganida edi, u o‘z qarorini o‘zgartirgan bo‘lar edi.

Endi davlat miqyosidagi bitta qaror bilan tanishib chiqaylik.

O‘zbekiston hukumati 2025 yilga kelib paxta tolasini eksport qilishni butkul to‘xtatishga va uni mamlakatimizning o‘zida to‘liq qayta ishlashni yo‘lga qo‘yishga qaror qildi.

2025- yilga kelib mamlakatimizda to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni 2,6 marta, eksport hajmini esa 4,7 marta oshirish, ya’ni 7,1 mlrd AQSH dollariga yetkazish rejalashtirilmoqda.

Bir qarashda, paxta tolasi eksporti davlatga juda katta hajmdagi chet el valutasini olib keladi. Lekin ikkinchi tomondan, 1 tonna paxta tolasini eksport qilishdan tushgan daromadga qaraganda uni qayta ishlaganda olinadigan to‘qimachilik mahsulotini eksport qilish bir necha marta ko‘p daromad keltiradi. Shuni hisobga olgan holda hukumatimiz shunday qaror qabul qilgan. Demak bu yerda ham qaror ratsionallik va maksimallik xususiyatlariga ega.

Demak, har qanday iqtisodiy qaror xoh u kichik tadbirkor darajasida, xoh davlat miqyosida qabul qilingan bo‘lsin, bu qaror qaysidir ma’noda, o‘zining *ratsionallik* va *maksimallik* xususiyatlari bilan ajralib turishi lozim ekan.

Topshiriq

Sizning maktabda bir yil o‘qishingiz uchun:

a) ota-onangiz; b) davlat taxminan qancha mablag‘ sarflayotganini hisoblab chiqing.

Maktabda o‘qishingizdan:

a) shaxsan o‘zingizga; b) jamiyatga qanday naf borligini aniqlang va yuqorida aniqlangan chiqimlar bilan taqqoslang. Siz bu chiqimlarni oqlayapsizmi?

Ratsionallik — biror resursdan tejamli foydalanish yoki eng maqbul qaror qabul qilish xislati.

Maksimallik — eng yaxshi, eng yuqori natijaga erishish.

Qadriyatlar!

"Yetti o'lchab — bir kes", "Ishning o'zini emas — ko'zini bil" degan maqollarni qanday tushunasiz.

BILIMINGIZNI SINAB KO'RING!

1. Iqtisodiy to'g'ri qaror qabul qilishning qanday bosqichlari va mezonlarini bilasiz? Biror misol asosida tushuntirib bering.
2. Ratsional ish ko'radigan kishi deganda qanday odamni tushunasiz?
3. Kechagi kuningizni ertalabdan kechgacha qanday o'tkazganingizni soatlar bo'yicha tavsiflang. Siz kun davomidagi o'z faoliyatingizni tejamli — ratsional tashkil qildingizmi? Siz o'tgan kundan maksimal naf oldingizmi? Kuningizni unumli va yoqimli o'tkazdingizmi?
4. Shu kunlardagi faoliyatingizdan o'zingizga, oilangizga va jamiyatga qanday naf bor deb o'ylaysiz? Bu xatti-harakatlaringiz tufayli qanday chiqimlar, xarajatlar yuzaga kelmoqda?
5. Xususiy va ijtimoiy qadr-qimmati bir-biriga teskari bo'lgan qarorga misol keltiring va unga nisbatan o'z munosabatingizni bildiring.
6. Faraz qiling, bozorga biror bir kiyim xarid qilish uchun bordingiz. Bu yerda o'zingizga kerak narsani xarid qilgunga qadar bir nechta narsalarni ko'rdingiz. Bu sizning qaroringizni o'zgartirishi mumkinmi? Javobingizni asoslab bering.

Buni yodda tuting!

- Har bir kishining farovon yashashi ko'p jihatdan oqilona iqtisodiy qaror qabul qilishga bog'liq.
- Har bir kishi qaror qabul qilayotganida qo'lga kiritadigan yutuqlari bilan qo'ldan boy beradigan imkoniyatlarini, albatta, o'zaro taqqoslashi lozim.
- Qaror qabul qilish (yechim tanlash) jarayonining bosqichlari:

a) muammoni aniqlash;
b) barcha muqobil yechimlarni aniqlab chiqish;
d) baholash mezonlarini aniqlab olish;
e) har bir yechimni mezonlarga ko'ra baholab chiqish;
f) baholash natijasiga ko'ra eng yaxshi yechimni tanlash.

16- MAVZU ISTE’MOLCHILARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

1

Xaridor: Buni qaytarib olsangiz. Sifatsiz ekan.

Sotuvchi: Biz sotilgan tovarni qaytarib olmaymiz.

2

3

FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. 1- rasmda keltirilgan vaziyatga o‘z munosabatingizni bildiring. Do‘kon egasining mana shunday yozuvni osib qo‘yishga haqqi bormi? Siz bunday holatga duch kelsangiz qanday yo‘l tutgan bo‘lar edingiz?
2. 2 va 3- rasmlarda tasvirlangan mahsulot yorlig‘ida qanday ma’lumotlar berilganligini aniqlang. Bu ma’lumotlarning qaysi biri siz uchun muhim hisoblanadi?
3. Reklama hayotingizda qanday o‘rin tutadi? 2 va 3- rasmlardagi kefir mahsulotini reklama qilmoqchi bo‘lsangiz, siz qanday iboralarni ishlatgan bo‘lar edingiz?

Har birimiz bozorda iste’molchi sifatida qatnashamiz. Xo‘sh, iste’molchi sifatida, biror tovarni xarid qilish chog‘ida, nimalarga e’tibor berishimiz kerak? Iste’molchi sifatida qanday haq-huquqlarimiz bor? Bu va shunga o‘xshash savollarga O‘zbekiston Respublikasining “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunidan javob topishimiz mumkin. Quyida shu huquqlar haqida qisqacha ma’lumot beramiz.

1. Iste’molchilar tovar va uni ishlab chiqaruvchi korxona to‘g‘risida quyidagi ishonarli hamda to‘la axborotni olish huquqiga ega: tovarning tegishli sifat ko‘rsatkichlariga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjat; tovarning iste’mol va o‘ziga xos xususiyatlarining ro‘yxati; tovarning narxi; tovar tayyorlangan sana; tovardan foydalanish qoidalari va shartlari; tovarning xizmat (yoki saqlash) muddati; ishlab chiqaruvchining kafolat majburiyatlari; tovarni saqlash usullari va qoidalari.

2. Tovar sanitariya-gigiyena talablariga javob berishi va inson salomatligiga hamda atrof-muhitga xavfsiz bo‘lishi lozim. Ishlab chiqaruvchi tovarning butun xizmat muddati mobaynida tovarning xavfsiz bo‘lishini ta’minlashi lozim.

3. Agar iste’molchi nuqsonli tovar sotib olgan bo‘lsa, o‘z xohishiga ko‘ra quyidagilarni talab qilishga haqli: nuqsonli tovarni tegishli sifatga ega bo‘lgan xuddi shunday tovarga almashtirish; boshqa shunga o‘xshash tovarga, xarid narxini tegishli hisob-kitob qilish yo‘li bilan almashtirish; ishlab chiqaruvchidan tovar kamchiliklarini bepul tuzatib berish yoki tuzatish xarajatlarini undirish; nuqsonli tovar narxini tegishli miqdorga kamaytirish; yetkazilgan zararni to‘la hajmda qoplash sharti bilan, nuqsonli tovarni ishlab chiqaruvchiga qaytarish.

4. Iste’molchi bu huquqlardan tovar sotib olingan kundan boshlab, tovarning kamchiliklari aniqlangan quyidagi muddatgacha foydalanishi mumkin: kafolat muddati yoki ishga yaroqlilik muddati ichida; kafolat muddati yoki ishga yaroqlilik muddati belgilanmagan tovarlar uchun — 6 oy, ko‘chmas mulk uchun — 2 yil (agar shartnomada boshqa muddat belgilanmagan bo‘lsa).

5. Iste’molchining talablari tovarni aynan shu ishlab chiqaruvchi (sotuvchi)-dan sotib olganligini tasdiqlovchi tegishli hujjat (masalan, kassa cheki, tovarning hujjati) taqdim etilgandagina ko‘rib chiqiladi.

6. Qonunda ko‘rsatilgan bu huquqlar buzilganda va tomonlar murosaga kelolmaganda sudga yoki davlatning boshqa vakolatli organlariga murojaat qilish mumkin.

7. Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish maqsadida joylarda jamoat birlashmalarini tashkil qilish mumkin.

Albatta, har qanday bitim, shu jumladan sotuvchi va iste’molchi o‘rtasidagi bitim ham tomonlarning roziligi bilan amalga oshiriladi. Bunda iste’molchi zaifroq tomon deb hisoblanadi va uning huquqlari qattiq himoya qilinadi. Lekin qonunda alohida ta’kidlanmagan bo‘lsa-da, iste’molchining fuqarolik qonunchiligidan kelib chiqadigan qator majburiyatlari ham bor. Ular orasidan eng asosiylari quyidagilar: iste’molchilarning tovar (xizmat) uchun vaqtida haq to‘lash majburiyati; shartnoma bekor qilingan holda tovarni o‘z vaqtida qaytarib berish majburiyati; tovar o‘ziga xos qilib, masalan, maxsus buyurtma bo‘yicha, maxsus o‘lchamda tikilgan bo‘lsa u tayyor bo‘lgandan keyin uni qabul qilib olish majburiyati; sifatli tovarni almashtirib berishni (boshqa o‘lcham yoki rangiga) qaytarilayotgan tovarning iste’mol sifatlari, ko‘rinishi, yorliqlarini buzilmagan holda taqdim qilish majburiyati.

Reklama ommaviy axborot vositalarida iste’molchilarga tovar haqida ma’lumot berish bilan ularning tovarga bo‘lgan talabini oshirishga qaratilgan tashviqot tadbiridir. Reklama lotincha so‘z bo‘lib, *jar solish*, *chaqiriq* degan ma’nolarni anglatadi.

Reklamaning afzalliklari: reklama iste'molchilar manfaatiga xizmat qiladi, chunki u iste'molchilarni bozordagi narxlar va yangiliklardan xabardor qiladi; reklama ko'pincha narxlar pasayishiga olib keladi; reklama raqobatni rag'batlantiradi; reklamadan tushadigan daromad ommaviy axborot vositalari xarajatlarining katta qismini qoplaydi; reklama iste'molchilar talabining ko'payishi, ishlab chiqaruvchilar foydasining ortishi va buning natijasida iqtisodiyotning o'sishiga olib keladi.

Reklamaning kamchiliklari: reklama ba'zida iste'molchilarga noto'g'ri axborot berib, chalkashtiradi; reklama katta moliyaviy xarajatlarni talab qiladi, bu esa tovarlar narxini oshiradi; iste'molchilarda uncha zarur bo'lmagan tovarlarga pul sarflash maylini keltirib chiqaradi; ommaviy axborot vositalari reklama beruvchilarga qaram bo'lib qoladi, bu esa ularning erkinligi va mustaqilligini cheklaydi.

Reklama — ommaviy axborot vositalarida iste'molchilarga tovar haqida ma'lumot berish bilan ularning tovarga bo'lgan talabini oshirishga qaratilgan tashviqot tadbiri.

Tovarning shtrix kodi o'ziga xos ma'lumot manbai bo'lib, undan tovarning qaysi davlatda tayyorlanganligini, qaysi korxona ishlab chiqarganligini va tovar haqidagi boshqa ma'lumotlarni aniqlab olish mumkin. 13 ta raqamdan iborat 8710335230431 shtrix kodning birinchi ikki raqami 87 — tovarning Niderlandiyada tayyorlanganligini, keyingi 5 ta raqam 10335 — tovar ishlab chiqarilgan firmaning bu mamlakatda ro'yxatga olingan raqamini anglatadi. Keyingi 5 ta raqam 23043 — tovarning xususiyatlari haqida ma'lumot beradi. Oxirgi raqam 1 esa tovar kodining nazorat raqamidan iborat. Tovarning kodi yordamida uning qalbaki yoki haqiqiy ekanligini sodda arifmetik hisob-kitoblar yordamida bilib olish mumkin.

Tovarning shtrix kodi — tovar haqidagi ma'lumotlarni tovar yorlig'ida ifodalovchi chiziqchalar dastasi va raqamlar ketma-ketligidan iborat maxsus belgi.

Davlatlar	Kodlar	Davlatlar	Kodlar
AQSH, Kanada	00 – 09	Turkiya	869
Fransiya	30 – 37	Rossiya	460
Germaniya	400 – 440	O'zbekiston	46 – 47
Yaponiya	49	Buyuk Britaniya	50

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi QR-kod nomli oq kvadrat ichiga joylashgan qora kvadratlar tasviridan iborat kodning vujudga kelishiga olib keldi. Bunday tasvirni so‘nggi paytlarda: kassa cheklarida, pattalarda, muzey va metrolarda, restoran taomnomalarida, tovar yorliqlarida va boshqa narsalarda uchratish mumkin.

QR ingliz tilida qisqartirilgan inglizcha jumla – Quick Response (tez javob qaytarmoq) ni anglatadi.

QR-kod – bu tegishli dasturiy ta’minoti bo‘lgan mobil telefondagi kamera orqali tezda tanib olinadigan ma’lumotni taqdim qiluvchi ikki o‘lchamli shtrix-koddir.

QR-kod oddiy shtrix kodga qaraganda ancha ko‘p ma’lumotni yetkaza oladi. U maxsus dastur orqali skaner yordamida kiritiladi va uni oddiy mobil telefon yordamida ham o‘qish mumkin.

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

1. Iste’molchi huquqlaridan ba’zilarini aytib bering. Ishlab chiqaruvchi va sotuvchilarning qanday huquqlari bor? Iste’molchilarning huquqlari himoya qilinib, unga katta ahamiyat berilishining boisi nimada deb o‘ylaysiz?
2. Siz iste’molchi sifatida do‘kondan biror narsa sotib olayotganingizda tovar haqida qanday ma’lumotlarni bilishga haqqingiz bor?
3. Do‘kondan biror narsa sotib olganingizda beriladigan chekning siz uchun qanday ahamiyati bor?
4. Reklamaning siz uchun foydasi bormi? Reklamadan kim ko‘proq naf ko‘radi?
5. Biror-bir tovar qadog‘ida keltirilgan ma’lumotlarning to‘laligini tahlil qiling.
6. Tovar shtrix kodi nima uchun kerak?
7. Tovarning QR-kodi oddiy shtrix-koddan nimasi bilan farq qiladi.

Buni yodda tuting!

- Iste’molchilar huquqlari O‘zbekiston Respublikasining “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonuni orqali himoya qilinadi.
- Tovarning shtrix kodi yoki QR – kodi tovar to‘g‘risida to‘liq ma’lumot beradi.
- Reklamaning ijobiy va salbiy tomonlari bor.

III BOBNI TAKRORLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

A. SAVOLLAR

1. Iste'molchining qanday daromad manbalari bo'lishi mumkin?
2. Davlat mulki, egasi alohida olingan shaxs yoki jamoa bo'lgan xususiy mulklarning bir-biridan farqini aytib bering.
3. Insonning iqtisodiy qadr-qimmati deganda nimani tushunasiz?
4. Insonning moddiy va ma'naviy boyligi deganda nimani tushunasiz?
5. Daromad va boylikning farqini tushuntiring.
6. Daromadlar har doim ham pul ko'rinishda bo'ladimi?
7. Iste'molchilarning qanday xarajat turlarini bilasiz?
8. Oila budjeti nima?
9. Engel qonuni nima haqida?
10. Odamlar nima sababdan pul mablag'larini jamg'aradilar?

B. TOPSHIRIQLAR

Har bir atamaga mos talqinni toping.

ATAMALAR:

1. Xususiylashtirish.
2. Moddiy kapital.
3. Tadbirkorlik foydasi.
4. Oila budjeti.
5. Real daromad.
6. Nominal daromad.
7. Jamg'arma.

TALQINLAR:

a) tadbirkorlik faoliyati natijasida qo'lga kiritiladigan daromad;
b) oilaning ma'lum davrdagi daromad manbalari va xarajatlari keltirilgan moliyaviy rejasi;
d) ma'lum davr davomida alohida olingan shaxs yoki oila tomonidan qo'lga kiritilgan daromad miqdori;
e) kelajakdagi ehtiyojni qondirish uchun jamg'ariladigan pul;
f) davlat mulkini xususiy mulkka aylantirish jarayoni;
g) nominal daromadning muayyan davrdagi narxlar o'zgarishiga nisbatan qiymati;
h) jamg'arilgan daromadning moddiy mulkka aylangan qismi va pul mablag'lari.

D. TESTLAR

Berilgan savolga mohiyat jihatidan eng to‘g‘ri va to‘liq javobni belgilang.

1. Noto‘g‘risini toping.
Iste’molchilarning daromad manbalariga ... kiradi.

A. Stipendiya, nafaqa.
B. Sug‘urta, jamg‘arma.
D. Ish haqi, dividend.
E. Renta, foiz.

2. Quyidagi holatlarning qaysi birida mulk shakli o‘zgaryapti?

A. Ota o‘g‘liga hovlisini meros qilib qoldirdi.
B. Davlat tashkiloti bolalar uyiga kompyuter sovg‘a qildi.
D. Fermer sigirini bozorga olib chiqib sotdi.
E. Olg‘irovning dang‘illama hovlisi musodara qilinib, o‘quvchilar saroyiga aylantirildi.

3. Mulkka to‘la egalik qilish huquqi deganda nima tushuniladi?

A. Uni sovg‘a qila olish.
B. Uni sotish yoki ayirboshlay olish.
D. Undan o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun foydalana olish.
E. Yuqoridagilarning barchasi.

4. Qaysi guruhdagi daromadlar faqat moddiy boylikdan foydalanish evaziga orttiriladi?

A. Ijara, nafaqa, dividend.
B. Renta, foiz, maosh.
D. Foyda, nafaqa, dividend.
E. Renta, dividend, foiz.

5. Oila budjetida ...

A. kamomad bo‘lmasligi kerak.
B. faqat oilaviy chiqimlar keltirilgan bo‘ladi.
D. faqat oilaviy daromadlar keltirilgan bo‘ladi.
E. oilaning ma’lum davrga rejalashtirilgan daromad manbalari va xarajatlari keltirilgan bo‘ladi.

6. Mehnat resurslaridan qaysi ko‘rinishdagi daromad keladi?

A. Renta.
B. Foiz.
D. Ish haqi.
E. Foyda.

7. Quyidagi daromad turlarining qaysilari faqat davlat tomonidan yordam tariqasida beriladi?

A. Mukofot.
B. Ishsizlik nafaqasi.
D. Dividend.
E. Stipendiya.

MUSTAQIL FAOLIYAT

IQTISODIY PRAKTIKUM

Tumanda plastmassa mahsulotlar ishlab chiqaruvchi zavod quriladi. Bu zavod faoliyati muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun zavod mutasaddilari nima, qanday qilib, kim uchun ishlab chiqarish kerak degan savollarga javob topishlari kerak bo‘ladi.

Aytaylik, ular bu savollarga quyidagicha javob topdilar:

1. Zavod plastmassadan o‘yinchoqlar va suv quvurlari ishlab chiqarishi kerak.
2. Zamonaviy texnologiya asosida ishlab chiqarish kerak.
3. Tuman, viloyat aholisi va eksport uchun.

Zavod ishlab chiqarish hajmini ham belgilab olishi kerak bo‘ladi. Quyidagi jadvalda zavodning kunlik ishlab chiqarish imkoniyatlari haqida ma’lumot berilgan.

Tovarlar	Imkoniyatlar					
	A	*B*	*D*	*E*	*F*	*G*
Plastmassa o‘yinchoq (ming dona)	15	14	12	9	5	0
Plastmassa quvurlar (ming metr)	0	1	2	3	4	5

Jadval asosida zavodning kunlik ishlab chiqarish imkoniyatlari sohasini chizamiz. Chizmada bu soha bo‘yab ko‘rsatilgan.



Chizmadan ko‘rinib turibdiki, zavod faqat o‘yinchoqdan ko‘pi bilan 15 ming dona ishlab chiqara oladi (*A* nuqta). Zavod 1 ming metr quvur va 14 ming dona o‘yinchoq ishlab chiqarishi mumkin (*B* nuqta). Demak, 1 ming metr quvur ishlab chiqarish uchun ming dona o‘yinchoqdan voz kechishga to‘g‘ri keladi. Zavod ishlab chiqarish hajmini ishlab chiqarish imkoniyatlari sohasi ichidangina belgilay oladi. Masalan, koordinatalari (9;5) bo‘lgan *M* nuqtani chizmada belgilaymiz. *M* nuqta ishlab chiqarish imkoniyatlari sohasidan tashqarida yotibdi. Shu bois, zavod 9 ming dona o‘yinchoq va 5 ming metr quvur ishlab chiqara olmaydi. Endi, koordinatalari (3; 4) bo‘lgan *N* nuqtani belgilaymiz. *N* nuqta ishlab chiqarish imkoniyatlari sohasida joylashgan. Ya’ni, zavod kuniga 3 ming dona o‘yinchoq va 4 ming metr quvur ishlab chiqara oladi.

Faol tadbirkorlik biznes faoliyatini innovatsion, ya'ni zamonaviy yondashuvlar, ilg'or texnologiya va boshqaruv usullari asosida tashkil etadigan iqtisodiy yo'nalishdir.

Shavkat Mirziyoyev

IV bob. Talab va taklif



17- MAVZU TALAB VA TALAB QONUNI

Mahsulot nomi	1- sotuvchi	2- sotuvchi	3- sotuvchi
Lazer guruchi	13 500	13 000	14 000
Alanga guruchi	9 000	8 500	10 000
No‘xat	7 500	9 000	7 000
Mosh	11 000	12 000	12 500
Loviya	8 000	8 500	7 200

FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

Yuqoridagi jadvalda dehqon bozoridagi baqqollik tovarlari bilan savdo qiluvchi uchta sotuvchining tovarlari narxlari keltirilgan. Uni diqqat bilan ko‘zdan kechiring va quyidagi savollarga javob bering:

1. Sotuvchilardan qaysi biri qaysi tovaridan ko‘proq sota olishini tahlil qilib ko‘ring. Nima sababdan bunday tahlil qilayotganingizni ayting?
2. Sotuvchilardan qaysi biri kun davomida eng ko‘p daromad qiladi? Savolga javob berishda mahsulotlarning qaysi biri ho‘jalikda ko‘proq ishlatilishiga e’tibor berishni unutmang.

Tovarga bo‘lgan *talab* xaridorlarning muayyan vaqt davomida tovarni turli narxlarda qanchadan sotib olish haqidagi xohish va imkoniyatlarini aniqlaydi. *Talab miqdori* deb xaridorlarning muayyan vaqt davomida ma’lum narxda sotib olishi mumkin bo‘lgan tovar miqdoriga aytiladi.

Narx (p)	Talab (q)
800	400
700	500
600	600
500	700

Biror tovarga bo‘lgan talab, odatda, jadval ko‘rinishida ifodalanadi. Jadval asosida grafik chizilsa, talab chizig‘i hosil bo‘ladi. Buning uchun tekislikda *Op o‘q vertikal*, *Oq o‘q gorizontal* qilib chiziladi. *Op* o‘qdagi tovarning narxi va *Oq* o‘qdagi talab miqdoriga ko‘ra tekislikda mos nuqtalar topiladi. Bu nuqtalarni tutashtirish natijasida hosil bo‘lgan chiziqqa *talab chizig‘i* deb ataladi. Talab chizig‘i, odatda, “*D*” harfi— inglizcha “demand” (talab) so‘zining bosh harfi bilan belgilanadi. Talab ba’zida $p=-aq+b$, ($a>0$, $b\geq 0$) ko‘rinishidagi chiziqli funksiya ko‘rinishida ham berilishi mumkin.



Talab — tovarning narxi va talab miqdori orasidagi munosabat bo‘lib, xaridorlarning muayyan vaqt davomida tovarni turli narxlarda qanchadan sotib olish imkoniyatlarini aniqlaydi.

Talab miqdori — xaridorlarning muayyan vaqt davomida ma’lum narxda sotib olishlari mumkin bo‘lgan tovar miqdori.

Tovarga bo‘lgan talab tovarning narxiga bog‘liq va bog‘liq bo‘lmagan omillar asosida o‘zgarib turadi. Talabning narxga bog‘liq bo‘lmagan omillar ta’sirida o‘zgarishini keyingi darsda tahlil qilamiz. Bu darsda tovarga bo‘lgan talabning faqat narxga bog‘liq xususiyatlari haqida to‘xtalamiz. Bu xususiyat *talab qonuni*da o‘z ifodasini topgan: **Boshqa shart-sharoitlar o‘zgarmagan holatda tovarning narxi qancha past bo‘lsa, unga bo‘lgan talab miqdori shuncha ko‘p bo‘ladi, tovarning narxi qancha yuqori bo‘lsa, unga bo‘lgan talab miqdori shuncha kam bo‘ladi.**

Talab qonuni talab miqdorining narxga teskari bog‘langanligini ko‘rsatadi. Bu xususiyatni quyidagi ikkita omilga ko‘ra izohlash mumkin:

1. *Daromad omili*. Odamlar tovarni arzon narxda qimmat narxdagiga qaraganda ko‘proq sotib olishga ishtiyoqmand bo‘lishadi, chunki tovar narxining pasayishi iste’molchilarning xarid qobiliyatini oshiradi. Masalan, bozorda go‘sht narxi tushsa, odamlar oldin xarid qilayotgan oilaning iste’mol savatidagi narsalarni kamroq pul sarflab sotib olishadi. Natijada, qanchadir pul ortib qoladi. Bu pulga qo‘shimcha miqdorda yana go‘sht yoki boshqa tovarni sotib olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

2. *Almashtirish omili*. Xaridorlar narxi qimmat bo‘lgan tovarni, uning o‘rnini bosadigan boshqa arzon tovarga almashtirishadi. Masalan, yoz kunlarida olma narxining pasayishi bois iste’molchilar mevaga bo‘lgan ehtiyojlarini olma sotib olib iste’mol qilish bilan qondirishadi. Chunki, bu davrga kelib olma narxi apelsin yoki banan narxiga nisbatan ancha arzon bo‘lib qoladi. Shuning uchun qimmat apelsin va banan o‘rnini olma egallaydi.

Tovar narxining o‘zgarishi bu ikki omilni keltirib chiqaradi va ularning o‘zaro ta’siri natijasida tovarga bo‘lgan talab miqdori shakllanadi.

Alohida olingan shaxsning biror tovarga bo‘lgan talabi uning bu tovar haqidagi qanday va qanchalik to‘liq ma’lumotlarga ega ekanligiga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi. Haqiqatan, biror tovarga bo‘lgan talabning oshishi uchun tovarning sifatli ishlab chiqarilishining o‘zi yetarli emas. Bu holatda tovarning sifatli ishlab chiqarilayotganligi haqidagi ma’lumotning iste’molchilarga yetib borishi muhimroq hisoblanadi.

Amaliy tadqiqot

Ushbu amaliy tadqiqot uchun ma'lumot to'plash 6 oy vaqtni egallaydi. Avvalambor oilangizda qanday meva va sabzavotlar iste'mol qilinishining va ular, asosan, qayerdan xarid qilinishini aniqlang.

Shundan keyin, har haftaning bir xil kunida meva va sabzavotlarning do'kondagi narxlarini yozib boring. Ushbu ro'yxatda oilangiz tomonidan sotib olingan meva va sabzavotlarning miqdorini ham yozib boring. 6 oy davomida to'plangan ma'lumotlaringizni tahlil qiling. Buning uchun talab grafigini chizing. Grafikda har haftada xarid qilingan har bir turdagi meva yoki sabzavotlarning miqdorini va narxlarini nuqtalar bilan belgilang. So'ngra hosil bo'lgan egri chiziq bo'yicha o'z fikrlaringizni yozma ravishda bayon qiling.

1. Qaysi oyda qaysi mahsulotga talab keskin ortib (kamayib) ketdi? Bunga nima sabab bo'ldi deb o'ylaysiz?
2. Qaysi oyda qaysi mahsulotning narxi eng yuqori (past) bo'ldi? Bu oyda ushbu mahsulotga talab qanday o'zgardi? Nima sababdan bunday bo'lgan deb o'ylaysiz?
3. Narxning va talab miqdorining eng baland (past) bo'lganligiga qanday sabablar bo'lishi mumkin?
4. Grafikdan foydalanib, kelgusi 2–3 oy ichida ushbu mahsulotlarga talab qanday o'zgarishi mumkinligini taxmin qilib ko'ring. Taxminingizni mantiqan asoslashga harakat qiling.
5. Tadqiqotni mukammallashtirish uchun yana nimalar qilish zarur deb o'ylaysiz? Shunday tadqiqotlar yuritishning qanday nafi bor?

Topshiriq

Ingliz iqtisodchisi Robert Giffen qiziq iqtisodiy hodisani kuzatgan. XIX asrda Irlandiyadagi ochlik paytida kartoshkaning narxi oshishiga qaramasdan uni iste'mol qilish oshgan. O'sha paytlarda kambag'al kishilarning asosiy xo'ragi bo'lgan kartoshka narxining oshishi ularning real daromadlarini kamaytirgan. Shu bois, odamlar nisbatan qimmat bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olmasdan, ularning o'rniga kartoshka sotib olishga majbur bo'lishgan. Yana qaysi tovarlar bunday xususiyatga ega bo'lishi mumkin? Javobingizni asoslang.

Alisher Navoiy
(1441—1501)

Buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy asarlarida iqtisodiy masalalarga katta joy ajratilgan. Navoiy savdo-sotiq, hunarmandchilik va dehqonchilik sohalariga katta ahamiyat berib, ularni mamlakat iqtisodiy rivojining asosi deb ta'riflaydi. Alisher Navoiy davlat arbobi, vazir sifatida mamlakat iqtisodiy siyosatining shakllanishiga katta hissa qo'shgan. Bunda u davlat iqtisodiyot sohasida taraqqiyparvar va xalqparvar bo'lishi zarur degan g'oyani targ'ib qilgan.

Navoiy o'z davrining uddaburon tadbirkori, katta mulk egasi ham bo'lgan. U o'z mulkining katta qismini xayriya va savob ishlarga sarflagan. Alisher Navoiyning iqtisodiy qarashlari va g'oyalari uning "Hiloliya", "Vaqfiya", "Mahbub ul-qulub", "Hotami Toyiy", "Saddi Iskandariy" asarlarida o'z aksini topgan.

BILIMINGIZNI SINAB KO'RING!

1. Tovarni biror narxda sotib olishga bo'lgan xohish va ehtiyojning o'zigina talab bo'la oladimi? Qachon bu xohish talabga aylanadi?
2. Talab miqdori qaysi vaqt oralig'ida qaralayotganligiga bog'liqmi?
3. Talab va talab miqdori o'rtasida qanday farq bor?
4. Talab qonunini misollar yordamida tushuntirib bering.
5. Talab miqdorining tovar narxiga teskari bog'liqligini izohlaydigan uchta omilni misollar yordamida tahlil qiling.
6. Tovarga bo'lgan talab jadvalda berilgan. U asosida talab chizig'ini quring:

a)

Narx (p), so'mda	Talab miqdori (q), tonnada
1000	8
2000	5
4000	2

b)

Narx (p), so'mda	Talab miqdori (q), tonnada
800	70
1600	60
2400	50

Buni yodda tuting!

Tovarning narxi qancha past bo'lsa, unga bo'lgan talab miqdori shuncha ko'p bo'ladi, tovarning narxi qancha yuqori bo'lsa, unga bo'lgan talab miqdori shuncha kam bo'ladi.

18- MAVZU

TALABGA TA'SIR ETUVCHI BOSHQA OMILLAR

	Somsa narxi, so'mda	Sotilgan somsalar soni
1- oy	1700	5000
2- oy	1700	5500
3- oy	1700	6000

	Gumma narxi, so'mda	Sotilgan gumma-lar soni
1- oy	1500	5000
2- oy	1600	4500
3- oy	1700	4000

FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

Tovarga bo'lgan talab tovar narxi o'zgarmaganda ham turli omillar ta'sirida o'zgarishi mumkin. Buni quyidagi misolda ko'ramiz:

I. Oshxonada tushlikda kartoshka somsa va gumma sotiladi. Somsa va gumma *bir-birining o'rnini bosuvchi tovarlar* sirasiga kiradi.
Yuqoridagi jadvallarda bu oylardagi sotilgan gumma va somsa miqdori berilgan.

1. Jadvalda keltirilgan somsaning narxi va unga bo'lgan talab miqdoriga e'tibor bering. Somsa narxi o'zgarmasa-da, unga bo'lgan talab miqdori nima sababdan o'zgargan?
2. Bir-birining o'rnini bosuvchi tovarlardan birining narxi oshishi natijasida ikkinchisiga bo'lgan talab qanday o'zgarar ekan?

II. Birgalikda foydalanishga mo'ljallangan tovarlar *bir-birini to'ldiruvchi tovarlar* deb yuritiladi. Bunday tovarlarga avtomobil va benzin misol bo'la oladi. Avtomobillar narxi oshsa, benzinga bo'lgan talab qanday o'zgaradi? Bunga o'xshash bo'lgan yana qanday tovarlarni bilasiz?

Bozorda tovarga bo'lgan talabning o'zgarishiga narxga bog'liq bo'lmagan boshqa omillar ham ta'sir qiladi. Bu omillar quyidagilar:

Iste'molchilarning didi va yil mavsumining o'zgarishi. Iste'molchilar didi, yil mavsumi o'zgarishi va moda o'zgarishi natijasida tovarga bo'lgan talab o'sishi va aksincha, pasayishi ham mumkin. Masalan, mavsum o'zgarishi bilan yozda paltoga bo'lgan talab pasayadi.

Bozordagi iste'molchilar sonining o'zgarishi. Ma'lumki, iste'molchilar soni ortsa, ularning biror tovarga bo'lgan talabi ham o'sadi va aksincha. Masalan, shahar aholisining ko'payishi tibbiy xizmatga bo'lgan talabning o'sishiga olib keladi.

Iste'molchilar daromadlarining o'zgarishi. Odatda, aholi daromadlarining ortishi bilan deyarli barcha tovarlarga bo'lgan talab o'sadi. Bunday tovarlar *normal tovarlar* deb ataladi. Lekin shunday tovarlar ham borki, ularga bo'lgan talab aholi daromadlarining kamayishi bilan o'sadi. Bunday tovarlarni iqtisodchilar *past tabaqali tovarlar* deb atashadi. Masalan, aholi daromadlarining kamayishi sifati past va eski avtomobillarga bo'lgan talabning o'sishiga olib keladi.

Normal tovarlar — aholi daromadining oshishi bilan unga bo'lgan talab oshadigan tovarlar.

Past tabaqali tovarlar — aholi daromadining kamayishi bilan unga bo'lgan talab ortadigan tovarlar.

Yaqin kelajakda iste'molchilar daromadlari va tovar narxi o'zgarishining kutilishi. Agar yaqin kelajakda aholi daromadlarining oshishi kutilayotgan bo'lsa, ular ayni paytdagi kundalik xarajatlarini kamroq chegaralay boshlashadi va shu bois, ko'proq tovarlar sotib ola boshlaydilar va aksincha.

Agar yaqin kelajakda ba'zi tovarlar narxining oshishi kutilayotgan bo'lsa, iste'molchilar bu tovarlardan ko'proq xarid qilib, zaxiraga ham yig'ishga harakat qilishadi. Agar kelgusida ayrim tovarlar narxining pasayishi kutilayotgan bo'lsa, iste'molchilar bu tovarlarni kamroq xarid qila boshlaydilar.

O'zaro bog'liq tovarlar narxining o'zgarishi. Bir tovar narxining o'zgarishi ikkinchi tovarga bo'lgan talabning o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Bunday tovarlar jufti *o'zaro bog'liq tovarlar* deb ataladi. O'zaro bog'liq tovarlarga yuqorida ta'kidlangan bir-birining o'rnini bosuvchi (masalan, gumma va somsa) va bir-birini to'ldiruvchi (masalan, avtomobil va benzin) tovarlar misol bo'la oladi.

O‘zaro bog‘liq tovarlar — birining narxi o‘zgarishi ikkinchisiga bo‘lgan talabning o‘zgarishiga olib keladigan tovarlar jufti.

Bir-birining o‘rnini bosuvchi tovarlar — bir xil ehtiyojlarni qondirishga mo‘ljallangan tovarlar jufti.

Bir-birini to‘ldiruvchi tovarlar — birgalikda foydalanishga mo‘ljallangan tovarlar jufti.

Narxga bog‘liq bo‘lmagan yuqoridagi omillar ta’sirida talab chizig‘i holatining o‘zgarishini tahlil qilaylik. Faraz qilaylik, boshlang‘ich holatda tovarga bo‘lgan talab 1- jadvalda berilgan bo‘lib, unga mos talab chizig‘i D_0 ko‘rinishda bo‘lsin. Aytaylik, iste’molchilar sonining oshishi natijasida tovarga bo‘lgan talab o‘sib, 2- jadval ko‘rinishini olgan bo‘lsin. Bu jadval asosida talab chizig‘ining boshlang‘ich va keyingi holatlarini chizadigan bo‘lsak, talab chizig‘i boshlang‘ich D_0 vaziyatdan keyingi D_1 vaziyatga o‘tganligini, ya’ni o‘ng tomonga surilganligini aniqlashimiz mumkin. Iste’molchilar daromadining kamayishi natijasida tovarga bo‘lgan talabning 3- jadvaldagidek pasayishi natijasida talab chizig‘ining boshlang‘ich D_0 holatdan chap tomonga surilib, D_2 holatga o‘tishini ko‘rishimiz mumkin.



1- jadval

Narx, so‘mda	Boshlang‘ich holatdagi talab miqdori, tonnada
400	400
600	300
800	200

2- jadval

Narx, so‘mda	1-holatdagi talab miqdori, tonnada
400	500
600	400
800	300

3- jadval

Narx, so‘mda	2-holatdagi talab miqdori, tonnada
400	300
600	200
800	100

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

1. Bir-birining o‘rnini bosuvchi va to‘ldiruvchi tovarlar juftiga ikkitadan misol keltiring hamda bu tovarlarga bo‘lgan talabning o‘zgarishini tahlil qiling.
2. Tovarga bo‘lgan talab chizig‘ining quyidagi omillar ta’sirida o‘zgarishini aniqlang: a) aholi sonining o‘sishi; b) iste’molchilar daromadlarining kamayishi; d) tovar o‘rnini bosuvchi tovar narxining kamayishi; e) to‘ldiruvchi tovar narxining oshishi; f) tovar narxi oshishining kutilishi; g) iste’molchilar daromadi oshishining kutilishi.

Amaliy tadqiqot

Quyidagi hollarda tovarga bo‘lgan talabning qay darajada va nima sababdan o‘zgarishini tushuntirib bering.

I. Tovar nomi: Qimmat narxdagi futbol to‘pi. Narxi: 140.000 so‘m.

1. Barcha iste’molchilarning daromadlari 20% ga o‘sdi;
2. Futbol maydonidan foydalanish haqi ikki baravarga oshdi;
3. Futbol bo‘yicha jahon chempionati o‘yinlari televideniye orqali namoyish qilina boshladi;
4. Shaharda bir nechta tennis kortlari qurilib ishga tushirildi;
5. Yoz seryomg‘ir keldi.

II. Tovar nomi: Arzon narxdagi futbol to‘pi. Narxi: 30.000 so‘m.

1. Barcha iste’molchilarning daromadlari 20 % ga o‘sdi;
2. Futbol maydonidan foydalanish haqi ikki baravarga oshdi;
3. Futbol bo‘yicha jahon chempionati o‘yinlari televideniye orqali namoyish qilina boshladi;
4. Shaharda bir nechta tennis kortlari qurilib ishga tushirildi;
5. Yoz seryomg‘ir keldi.

III. Tovar nomi: Velosiped. Narxi: 850.000 so‘m.

1. Barcha iste’molchilarning daromadlari 10% ga kamaydi;
2. Shahar transportidan foydalanish narxi 30% ga oshdi;
3. Yoshlar o‘rtasida rolikli konkida uchish urf bo‘la boshladi;
4. Televideniye orqali velosiped reklamasi namoyish qilina boshladi;
5. Oziq-ovqat narxi keskin oshib ketdi.

Yuqoridagi hollarning har birida talab chizig‘i qaysi tomonga siljishini ko‘rsatib bering.

Buni yodda tuting!

Tovarga bo‘lgan talab narxga bog‘liq bo‘lmagan quyidagi omillar asosida o‘zgarishi mumkin: 1) iste’molchilarning didi va yil mavsumining o‘zgarishi; 2) bozordagi iste’molchilar sonining o‘zgarishi; 3) iste’molchilar daromadlarining o‘zgarishi; 4) o‘zaro bog‘liq tovarlar narxining o‘zgarishi; 5) yaqin kelajakda iste’molchilar daromadlari va tovar narxi o‘zgarishining kutilishi.

19- MAVZU TAKLIF VA TAKLIF QONUNI

Guruch narxi (p), so‘mda	Guruch taklif miqdori (q), tonnada
8 800	8
8 600	7
8 400	6
8 200	5
8 000	4
7 800	3



FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

Andijon dehqon bozorida guruch narxi 8 600 so‘m. Farg‘ona dehqon bozorida esa 7 200 so‘m.

1. Dehqonlar qaysi bozorga ko‘proq guruch olib borib sotishni xohlaydilar? Nega?
2. Bozorga sotish uchun olib chiqilayotgan tovar miqdori va narxi orasida qanday bog‘lanish bor deb o‘ylaysiz?
3. Guruchning narxi va taklif miqdori haqidagi ma’lumotlar berilgan jadval asosida mos nuqtalarni koordinatalar tekisligida belgilang va ularni tutashtirib chiqing. Hosil bo‘lgan chiziqni iqtisodchilar taklif chizig‘i deb atashadi.

Oldingi ikki darsda tovarning sotilish hajmini xaridorlar nuqtai nazaridan tahlil qilgan edik. Bu darsda tovarning sotilish hajmini sotuvchilar nuqtai nazaridan qarab chiqamiz.

Tovar taklifi yoki *taklif* sotuvchilarning muayyan vaqt davomida tovarni turli narxlarda qanchadan sotishga bo‘lgan xohish va imkoniyatlarini aniqlaydi. *Taklif miqdori* deb sotuvchilarning muayyan vaqt davomidagi ma’lum narxda sotishlari mumkin bo‘lgan tovar miqdoriga aytiladi. Taklif deganda alohida, shaxsiy taklifni (muayyan sotuvchining taklifini) yoki taklifning umumiy hajmini (bozordagi barcha sotuvchilarning umumiy taklifini) qarash mumkin. Ammo iqtisodiyot fanida, asosan, muayyan tovarga bo‘lgan umumiy taklif kattaligi o‘rganiladi.

Biror tovar taklifi, odatda, jadval ko‘rinishida ifodalanadi. Jadval asosida grafik chizilsa, taklif chizig‘i hosil bo‘ladi. Taklif chizig‘i *“S”* harfi — inglizcha “supply” (taklif) so‘zining bosh harfi bilan belgilanadi. Taklif ba’zida $p=aq+b$, $(a\geq 0)$ chiziqli funksiya ko‘rinishida ham berilishi mumkin.

Narx (p)	Talab (q)
800	700
700	600
600	500
500	400



Tovar taklifi miqdori tovarning narxiga bog‘liq va tovar narxiga bog‘liq bo‘lmagan omillar ta’sirida o‘zgarib turadi. Taklifning faqatgina narxga bog‘liq xususiyati taklif qonunida o‘z ifodasini topgan: **Boshqa shart-sharoitlar o‘zgarmagan holda tovarning narxi qancha past bo‘lsa, uning taklif miqdori shuncha kam bo‘ladi, tovarning narxi qancha yuqori bo‘lsa, uning taklif miqdori shuncha ko‘p bo‘ladi.**

Taklif qonuni taklif miqdorining narxga nisbatan to‘g‘ri bog‘liqligini ko‘rsatadi, ya’ni narx oshganda taklif miqdori ham oshadi.

Talab tushunchasi bilan tanishganimizdek, taklif miqdorining o‘zgarishi ishlab chiqaruvchilarning turli ma’lumotlardan xabardorliklariga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi.

Taklif — tovar narxi va taklif miqdori orasidagi munosabat bo‘lib, sotuvchilarning muayyan vaqt davomida, tovarni turli narxlarda qancha miqdorda sotish mumkinligi haqidagi xohish va imkoniyatlarini aniqlaydi.

Taklif miqdori — sotuvchilarning muayyan vaqt davomida ma’lum narxda sotishlari mumkin bo‘lgan tovar miqdori.

Adam Smit o‘z ta’limotida iqtisodiy faoliyat erkinligiga taraqqiyot omili sifatida qaragan. Uning fikricha, har bir bozor qatnashchisi bozorda o‘z manfaatlarini himoya qiladi. Shaxsiy manfaatlari uni yuqori darajadagi foyda keltiradigan faoliyatga undaydi. Shu maqsadda u ko‘proq mahsulot ishlab chiqarishga va buning uchun ozroq mablag‘ sarflashga harakat qiladi. Natijada, sifatli va nisbatan arzon tovarlar va xizmatlar bozorga chiqariladi va bozordagi taklifni oshiradi. Bundan esa xaridorlar va butun jamiyatga katta naf keltiriladi.

Bu jarayonni na davlat, na boshqa bir shaxs boshqaradi. Qatnashchilarning bozordagi erkin faoliyatini talab va taklif muvofiqlashtirib turadi. Talab va taklifni Adam Smit bozorning “ko‘rinmas qo‘li” deb atagan va ushbu “ko‘rinmas qo‘l” bozordagi munosabatlarni muvofiqlashtiradi va qatnashchilar faoliyatini boshqarib turadi deb ta’kidlagan.

Har bir bozor qatnashchisi *o‘z manfaatini* ko‘zlab faoliyat ko‘rsatadi.

Bu, o‘z navbatida, mahsulot va narxlarning *betartib aralashmasini* paydo qiladi. Lekin...

... yana boshqa bozor qatnashchilari ham o‘z manfaatlarini ko‘zlagan holda unga *raqobat* qila boshlaydilar.

Agar bir ishlab chiqaruvchi *o‘ta ko‘p daromad* qila boshlasa...

Agarda bir ishlab chiqaruvchi xodimlariga juda ham kam ish haqi to‘lay boshlasa...

...boshqa bir ishlab chiqaruvchi o‘z mahsuloti *narxini pasaytiradi* va birinchi ishlab chiqaruvchining mahsulotlari sotilmay qola boshlaydi.

...boshqa ishlab chiqaruvchi uning xodimlarini o‘ziga o‘tkazib oladi va birinchi firma inqirozga uchraydi.

Firmaning faoliyati ishchi kuchi uchun bozordagidek ish haqi to‘lansagina va bozor talab qilgan mahsulotlarni iste’molchilar to‘lashga tayyor bo‘lgan narxlarda ishlab chiqara olsalargina muvaffaqiyatli davom etishi mumkin.

Bozorning “ko‘rinmas qo‘li” bozordagi faoliyatni boshqarmoqda va jamiyat manfaatlariga xizmat qilmoqda.

Topshiriq

1. O‘zingiz bilgan dehqon bozorida sotilayotgan biror qishloq xo‘jalik mahsulotini tanlang. Bu bozor bo‘yicha ayni paytdagi ushbu mahsulotga bo‘lgan taklifni chamalab, taklif jadvalini tuzing. Jadval asosida taklif egri chizig‘ini chjizing.

2. Quyidagi jadvallar ko‘rinishida berilgan. Uning asosida taklif chiziqlarini quring.

a)

Narx (p), so‘mda	Taklif miqdori (q), tonnada
800	40
1600	50
2400	60
3200	70

b)

Narx (p), so‘mda	Taklif egri chizig‘i
1000	100
2000	150
3000	200
4000	250

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

1. Taklif tushunchasining ma’nosini misollar yordamida tushuntiring.
2. Taklif miqdori nima?
3. Taklif egri chizig‘ini chizishda qanday ma’lumotlar kerak bo‘ladi?
4. 2016- yili O‘zbekistonda kartoshka ko‘p yetishtirilib, bozorlarda uning narxi ancha arzon bo‘ldi. 2017- yil kuziga kelib esa kartoshkaning narxi juda qimmatlashib ketdi. Buning sababi nimada bo‘lgan deb o‘ylaysiz?
5. Agar makkajo‘xorining narxi yaqin kelajakda ortishi kutilayotgan bo‘lsa, makkajo‘xorining bozordagi taklif miqdori qanday o‘zgaradi?
6. Taklif qonunini misollar yordamida tushuntirib bering.
7. Adam Smit tomonidan bozorning "ko‘rinmas qo‘li" iborasi qanday iqtisodiy hodisaga nisbatan ishlatilgan? Bu iboraning mohiyati nimada?

Buni yodda tuting!

- Tovarning narxi qancha past bo‘lsa, taklif miqdori shuncha kam, tovarning narxi qancha yuqori bo‘lsa, taklif miqdori shuncha ko‘p bo‘ladi.
- Bozorni o‘rganishda talab tushunchasi bilan bir paytda taklif tushunchasi ham o‘ta muhimdir.
- Talab va taklifni A. Smit bozorni "ko‘rinmas qo‘li" deb atagan va bozor shu "ko‘rinmas qo‘l" orqali boshqarilib turadi.

20- MAVZU

TAKLIFGA TA'SIR ETUVCHI BOSHQA OMILLAR

Choynak narxi (p), so'mda	Choynak taklifi miqdori (q), ming donada
30 000	10
40 000	30
50 000	60



FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Chinni buyumlar bozoridagi choynak taklifi yuqoridagi jadvalda berilgan. Bu jadvaldan foydalanib, choynaklar taklif chizig'ini quring.
2. Chinni xom ashyosi respublikamizda ishlab chiqariladigan bo'ldi. Bu holat chinni buyumlar bozorida qanday o'zgarishga olib keladi? Endi chinni buyumlar ko'p ishlab chiqariladimi yoki kam ishlab chiqariladimi? Chinni buyumlar taklifi chizig'i qanday o'zgaradi? Bu o'zgarishni grafik yordamida ko'rsating.
3. Bozorga katta miqdorda Xitoyda ishlab chiqarilgan chinni buyumlar keltirildi va ko'plab sotuvchilar ularni sota boshladilar. Bu holat bozorda qanday o'zgarishga olib keladi?

Tovar taklifi quyidagi tovar narxiga bog'liq bo'lmagan omillar asosida ham o'zgarishi mumkin:

1. Resurslar narxlarining o'zgarishi. Agar resurslar narxi oshsa, tovarni ishlab chiqaruvchilarning xarajatlari ortadi. Oldin ular ma'lum miqdordagi mablag'larini xarajat qilib, qandaydir miqdordagi tovar ishlab

chiqarayotgan bo‘lsalar, endi bu mablag‘ga oldingidan kamroq tovar ishlab chiqara oladilar, xolos. Shu tariqa, bozorda tovar taklifi kamayadi.

2. Ishlab chiqarish texnologiyasining o‘zgarishi. Texnologiyaning o‘zgarishi, odatda, xarajatlarni kamaytiradi, unumdorlikni esa oshiradi. Shu sababdan tovar taklifi oshadi.

3. Davlat tomonidan ishlab chiqaruvchilarga solinadigan soliqlar va imtiyozlarning o‘zgartirilishi. Soliqlar ko‘paysa, tovar uchun qilinadigan xarajatlar oshadi. Shu bois, tovar taklifi kamayadi va aksincha.

4. Narx o‘zgarishining kutilishi. Agar bozorda tovar narxi oshishi kutilayotgan bo‘lsa, sotuvchilar o‘z tovarlarini hozir arzon narxda sotishdan ko‘ra, keyin qimmatroq narxda sotish uchun g‘amlab qo‘yishadi. Natijada, tovar taklifi kamayadi va aksincha.



5. Bozordagi sotuvchilar sonining o‘zgarishi. Bunda tovar taklifi ham o‘zgaradi.

6. Foyda olishning boshqa manbalari. Ko‘pchilik tovar ishlab chiqaruvchilar bir xil tovar ishlab chiqarish bilan qanoatlanmaydilar. Ular boshqa turdagi tovarlar ishlab chiqarishadi va foyda olishadi. Shu foydadan bir qismining jalb qilinishi ham taklif o‘sishiga olib kelishi mumkin va aksincha, sarmoyaning kattaroq qismi boshqa tovarlar ishlab chiqarishga sarf qilib yuborilishi taklifning kamayishiga olib kelishi mumkin.

7. Boshqa tovarlar narxi. Ko‘pincha boshqa tovarlar narxining o‘zgarishi ham ko‘rilayotgan tovarimiz taklifga ta’sir qilishi mumkin. Bu omillar ta’sirida agar taklif o‘ssa, taklif chizig‘i (S_0) o‘ng tomonga siljiydi (S_1), agar taklif pasaysa, taklif chizig‘i chap tomonga siljiydi (S_2).

Bozorda talab ko‘pgina omillar ta’sirida o‘zgarishi mumkin. Talab o‘zgarishiga bozor taklifning o‘zgarishi bilan javob beradi. Buning uchun kimningdir chetdan aralashishi yoki rejalashtirishi shart emas. Buning uchun bozor qatnashchilarining o‘z manfaatlarini ko‘zlab faoliyat ko‘rsatishlari yetarlidir.

Bu yerda bozor qatnashchilari deganda faqat firmalarnigina emas, balki ishlab chiqarishda mashg‘ul bo‘lgan ishchi va xodimlar ham nazarda tutilmoqda. Firmalar manfaati foydadan iborat bo‘lsa, ishchi va xodimlarning manfaati kattaroq maosh olish hisoblanadi. Aynan mana shu manfaatlar taklifning o‘zgarishiga sabab bo‘luvchi kuchdir.

Bozorda taklifning talab miqdoriga bog‘liq ravishda o‘zgarishini muayyan misol yordamida ko‘rgazmali ravishda tushuntirish mumkin.

Seryomg‘ir yoz faslida...

...soyabonlarga bo‘lgan talab ortadi.

...ko‘zoynaklarga bo‘lgan talab kamayadi.

Soyabonlarning narxlari va firmalarning foydalari ham ortib boradi.

Ko‘zoynaklarning narxlari va firmalarning foydalari ham kamayib boradi.

Soyabon ishlab chiqaradigan firmalar yangi xodimlarni ishga oladilar va yana qo‘shimcha foydalarga ega bo‘ladilar.

O‘z manfaatini ko‘zlagan xodimlar ish haqi kam ekanligi uchun ishdan chiqib ketadilar.

Ko‘zoynak firmalari ishchilari soyabon firmalariga o‘tib ketadilar.

Lekin bunday holat bozorga yangi firmalar kirib narxlarni o‘z “tabiiy” darajasiga tushirgunigacha davom etadi.

Topshiriq

Sinfdoshlaringizga shartli ravishda ish taklif qiling. Qanday ish haqi belgilanganda, ular bu ishni bajarishga rozi ekanliklarini, ya’ni ularning ishchi kuchlarining qiymatini aniqlab, taklif jadvalini tuzing va taklif chizig‘ini quring. Biror maoshga rozi ishchining undan ham ko‘p maoshga ishlashi mumkinligini jadval tuzayotganda hisobga oling.

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

1. Taklifga ta’sir qiluvchi, narxga bog‘liq bo‘lmagan qanday omillarni bilasiz? Ularning taklifga ta’sirini misollar yordamida tushuntiring.
2. Makaronning taklif chizig‘i yil boshidagi vaziyatiga nisbatan: a) chapga; b) o‘ngga surilsa bu nimani anglatadi? Bu o‘zgarish yuqorida keltirilgan 5 ta omillarning qaysilari ta’sirida sodir bo‘lishi mumkin?
3. “Lazzat” qandolatchilik fabrikasiga yangi zamonaviy ishlab chiqarish uskunalari o‘rnatildi. Bu qandolat tovarlari taklifiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

4. Davlat tomonidan biror-bir tovarni ishlab chiqarishga imtiyozlar berilib, soliqlar kamaytirilsa, bu tovar taklifi qanday o‘zgaradi?
5. Talabning o‘zgarishiga bozor qay tariqa javob beradi?
6. Taklifning talab miqdoriga bog‘liq ravishda o‘zgarishiga qanday omil ta’sir qiladi?
7. Soyabonlar va ko‘zoynaklar takliflarining o‘zgarish mexanizmi tasvirlangan sxemani tavsiflab bering.

Buyuk mutafakkir, davlat arbobi va qomusiy olim Zahiriddin Muhammad Boburning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda amalga oshirgan ishlari va bildirgan g‘oya va fikrlari g‘arbning ko‘pgina olimlarining tahsiniga sazovor bo‘lgan.

Bobur, ayniqsa, soliq va pul siyosati sohasida katta ishlarni amalga oshirgan. Uning davrida ishlab chiqarish unumdorligini oshirish, yer hosildorligini yaxshilash borasidagi choralarga katta ahamiyat berilgan. Bozorlarni erkinlashtirish Boburning doimiy e’tiborida bo‘lgan.

Boburning iqtisodiy qarashlari uning qomusiy asari “Boburnoma”da va “Mubayyin”, “Zakot to‘g‘risidagi katta kitob” asarlarida o‘z ifodasini topgan.

Boburning iqtisodiyot sohasidagi ishlari uning avlodlari, ayniqsa, Humoyun (1508–1556) va Akbarshoh (1542–1605) davrida munosib davom ettirildi.

Buni yodda tuting!

- Tovarning taklifi narxga bog‘liq bo‘lmagan omillar ta’sirida ham o‘zgarishi mumkin.
- Talab o‘zgarishiga bozor taklifning o‘zgarishi bilan javob beradi. Buning uchun chetdan kimningdir aralashishi shart emas.
- Tovar taklifininng o‘zgarishiga: resurslar narxlarining o‘zgarishi; ishlab chiqarish texnologiyalarining o‘zgarishi; davlat tomonidan ishlab chiqaruvchilarga solinadigan soliqlar va imtiyozlarning o‘zgarishi; bozorda sotuvchilar sonining o‘zgarishi; narx o‘zgarishining kutilishi; foyda olishning boshqa manbalari; boshqa tovarlar narxlarining o‘zgarishi kabi omillar ta’sir o‘tkazishi mumkin.
- Talab va taklifni A. Smit bozorning "ko‘rinmas qo‘li" deb atagan va bozorni shu "ko‘rinmas qo‘l" boshqarib turadi, deb ta’kidlagan.

21- MAVZU TOVARNING BOZOR NARXI

Har kuni erta tongda Toshkent shahrining “Xislat” mahallasida shahar atrofidagi xo‘jaliklardan keltirilgan sut va sut mahsulotlari bozorchasi faoliyat ko‘rsatadi. Sut sotuvchilar va uni sotib oluvchi mahalla ahlidan so‘rab-surishtirilganida, bir kunlik yakka talab va yakka taklif quyidagi jadval ko‘rinishida ekanligi aniqlandi.

Sut narxi, so‘mda	Xaridorlarning yakka talablari miqdori, litrda										Sutga bo‘lgan kunlik talab miqdori, litrda
	Abdullayev	Burhonov	Davronov	Ergashev	Farmonov	G‘ulomov	Haydarov	Ilhomov	Jo‘rayev	Kamolov	
4 000	2	4	3	6	3	5	2	4	3	4	
4 200	2	3	3	6	2	4	1	4	3	3	
4 400	0	2	2	4	0	1	0	3	3	3	
4 600	0	2	2	3	0	1	0	3	2	2	

Sut narxi, so‘mda	Sotuvchilarning yakka takliflari miqdori, litrda			Bozorcha bo‘yicha sutga bo‘lgan kunlik taklif miqdori, litrda
	1- sotuvchi	2- sotuvchi	3- sotuvchi	
4 000	0	10	10	
4 200	6	15	10	
4 400	11	20	15	
4 600	16	25	20	

FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Berilgan jadvalga ko‘ra, bozorchadagi kunlik sutga bo‘lgan talab va taklifni aniqlab, oxirgi ustunlarni to‘ldiring.
2. Sut narxi 4 000 so‘m bo‘lganida, bozorchadagi talab va taklif miqdorlari qanchani tashkil qiladi?
3. Agar davlat tomonidan sut narxi 4 000 so‘m qilib qat’iy belgilansa, qanday vaziyat vujudga keladi? Qancha sut yetmay qoladi?
4. Sut narxi 4 400 so‘m bo‘lganida, bozorcha bo‘yicha talab va taklif

miqdorlari qanchani tashkil qiladi?

5. Agar sut narxi 4 400 so‘m qilib qat’iy belgilansa, qanday vaziyat vujudga keladi? Qancha sut ortib qoladi?
6. Sut narxi 4 200 so‘m bo‘lganida, bozorchadagi talab va taklif miqdorini aniqlang.
7. Bu vaziyatda har ikkala tomon — sotuvchi va xaridorlarni ham qanoatlantiradigan narx, sizningcha, necha so‘m bo‘lishi kerak deb o‘ylaysiz?

Tovarning bozor narxi qanday aniqlanadi? Bozor iqtisodiyoti sharoitida tovarning bozor narxi unga bo‘lgan talab va taklif miqdoriga qarab aniqlanadi.

Ma’lumki, biror tovarga bo‘lgan bozor talabi, bozordagi jami xaridorlarning umumlashgan fikri bo‘lib, tovarning narxi turlicha bo‘lganda uni xarid qilish xohishi va imkoniyatlarini ifodalar edi. Xuddi shunga o‘xshash, tovarning bozor taklifi, bozordagi jami sotuvchilarning umumlashgan fikri bo‘lib, tovarning narxi turlicha bo‘lganda tovarni bozorda sotish istagi va imkoniyatlarini ifodalar edi. Keling, har ikki tomon — xaridor va sotuvchilarning fikr va xohishlari qachon ustma-ust tushishini tahlil qilaylik. Aytaylik, guruchning bozordagi talab va taklifi quyidagi jadval orqali berilgan bo‘lsin. Bu jadval asosida talab va taklif chiziqlarini bitta koordinatalar tekisligida chizadigan bo‘lsak, quyidagi chizmaga ega bo‘lamiz.

Hosil bo‘lgan qaychiga o‘xshash tasvir amerikalik mashhur iqtisodchi olim Alfred Marshall sharafiga *“Marshall qaychisi”* deb nomlanadi.

Guruch narxi 8 600 so‘m bo‘lganda esa, guruchga bo‘lgan talab va taklif miqdorlari o‘zaro teng bo‘lib, 4 tonnani tashkil qiladi. Bu holatda sotuvchilar tomonidan taklif qilingan 4 tonna guruchning hammasi 8 600 so‘m narxda xaridorlar tomonidan xarid qilinadi va bu holat ham xaridorlar uchun, ham

Guruch narxi (p), so‘mda	Guruchga bo‘lgan talab miqdori (q_D), t	Guruchning taklif miqdori (q_S), t
9 000	0	8
8 800	2	6
8 600	4	4
8 400	6	2



sotuvchilar uchun ma'qul tushadi. Tovarga bo'lgan talab va taklif miqdori teng bo'lgan holatdagi tovar narxi *muvozanat narx* yoki tovarning *bozor narxi* deb ataladi. Bozor narxiga mos talab (yoki taklif) miqdori *muvozanat miqdor* deb yuritiladi. Yuqorida ko'rilgan bozordagi guruchning muvozanat narxi, ya'ni bozor narxi 8 600 so'mni, muvozanat miqdori esa 4 tonnani tashkil qiladi. Talab va taklif chiziqlarining kesishish nuqtasi (*M* nuqta) *muvozanat nuqta* deb ataladi. *M* nuqtaning *ordinatasi* muvozanat narxni, *absissasi* esa muvozanat miqdorni bildiradi.

Muvozanat miqdor — tovarning bozor muvozanat narxiga mos talab (yoki taklif) miqdori.

Tovarning bozor (muvozanat) narxi — bozorda tovarga bo'lgan talab miqdorining taklif miqdoriga teng bo'lgandagi narx.

Aytaylik, bozorda *qat'iy narx* 8 400 so'm qilib belgilangan bo'lsin. Unda bozorda guruchga bo'lgan talab miqdori 6 tonna, taklif esa 2 tonnani tashkil qiladi. Demak, taklif qilingan 2 tonna guruch tezda sotilib, xaridorlarning yana 4 tonnalik talabi qondirilmay qoladi, ya'ni mahsulot taqchilligi yuzaga keladi. Bozordagi bunday holat *taqchil bozor* holati deb ataladi.

Aksincha, bozorda guruch narxi 8 800 so'm qilib belgilangan bo'lsa, guruchga bo'lgan talab miqdori 2 tonna, taklif esa 6 tonnani tashkil qiladi. Natijada, taklif qilingan guruchning faqat 2 tonnasi sotib olinib, 4 tonnasi ortib qoladi. Bozordagi bunday holatga *to'yingan bozor* holati deb ataladi.

Ko'rib turganingizdek, yuqoridagi har ikkala holda ham bozorda muvozanat yo'q. Shu bois, bozorda narxlarning bunday yuqoridan qat'iy qilib o'rnatilishi maqsadga muvofiq emas. Agarda bozorda doimiy muayyan narxlardagi talabga ega tovarlar miqdori xuddi shunday narxdagi taklif qilinayotgan tovarlar miqdoriga teng bo'lsa bozorning bu xolati *bozor muvozanati* deb ataladi. Bunday bozor iqtisodiyot fanida *muvozanatlashgan bozor* deb yuritiladi

Qat'iy narxlar — bozorda davlat tomonidan qat'iy qilib o'rnatiladigan, bozor narxidan farqli bo'lgan narx.

Taqchil bozor — tovar taklif miqdorining unga bo'lgan talab miqdoridan past bo'lgan bozor.

To'yingan bozor— tovar taklifi miqdorining unga bo'lgan talab miqdoridan yuqori bo'lgan bozor.

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

1. Talab va taklif bozorda o‘zaro qanday muvozanatda bo‘ladi?
2. "Marshal qaychisi" deb nimaga shartli nom berilgan?
3. Taqchil bozor holatini tushuntiring va u qachon vujudga keladi?
4. Muvozanat miqdori nima?
5. To‘yingan bozor holatini tushuntiring va u qachon vujudga keladi?
6. Tovarning bozor yoki muvozanat narxi deb nimaga aytiladi va u qanday aniqlanadi?
7. Bozordagi qanday xolat "bozor muvozanati" deb ataladi?

Mashq

Tovarga bo‘lgan talab va taklif jadvalda berilgan.

1. Ular asosida talab va taklif chiziqlarini quring.
2. Chizmadan tovarning bozor narxi va muvozanat miqdorini aniqlang.
3. Bu vaziyatda bozorda necha so‘mlik tovar sotilishini hisoblang.

Tovarning narxi (p), so‘mda	Tovarga bo‘lgan talab miqdori (q_D), donada	Tovarning taklifi miqdori(q_S), donada
400	200	20
500	150	60
600	100	100
700	50	140

8. Yuqoridagi mashqda tasvirlangan vaziyatda tovar narxi 400 so‘m qilib qat’iy belgilab qo‘yilsa, bozorda qanday holat vujudga keladi? Narx 700 so‘m qilib qat’iy belgilab qo‘yilsa-chi?



Alfred Marshall
(1842—1924)

Alfred Marshallning eng asosiy iqtisodiy g‘oyasi taklif va talabning o‘zaro ta’siri bozor narxining shakllanishiga olib keladi, degan fikrdir.

Marshall taklif va talabga yangicha nazar bilan qaray bildi. U taklif bilan talab bozor narxini shakllantirish yo‘lida birgalikda harakat qilishini ko‘ra bildi. U iqtisodiy nazariyaga matematikani tatbiq qildi va “Marshall qaychisi” deb nom olgan grafikni tasvirladi.

“Barcha hollarda bozorda sotish uchun qanchalik ko‘p narsalar keltirilsa, ularning o‘z xaridorini topa oladigan narxi shunchalik past bo‘ladi”.

(Alfred Marshall)

22- MAVZU TALAB VA TAKLIF QONUNLARIGA DOIR AMALIY MASHG‘ULOT

1. Muvozanat narxni talab va taklif jadvali orqali aniqlash. Aytaylik, tovarning bozordagi talab va taklifi quyidagi bitta jadval orqali berilgan bo‘lsin:

Tovar narxi (p) so‘mda	Tovarga bo‘lgan talab miqdori (q_D), donada	Tovarning taklifi miqdori (q_S), donada
1 200	0	8
900	2	6
600	4	4
300	6	2

Bu jadvaldan tovarning muvozanat narxini aniqlash uchun talab va taklif miqdorlari teng bo‘lgan satrni topish kifoya. Biz ko‘rayotgan jadvalda bu uchinchi satr bo‘lib, tovar narxi 600 so‘m bo‘lganda, talab va taklif miqdorlari teng bo‘lyapti. Demak, 600 so‘m tovarning bozor narxi, ya’ni muvozanat narx bo‘lib, bu holda tovarning muvozanat miqdori 4 donani tashkil qilyapti.

Agar davlat tomonidan tovarning narxi qat’iy 300 so‘m qilib belgilansa, u holda taklif qilingan 2 birlik tovarning hammasi xaridorlar tomonidan tezda sotib olinib, bozorda 6 − 2 = 4 birlik tovarga taqchillik vujudga keladi.

2. Muvozanat narxni talab va taklif jadvallari yordamida talab va taklif chiziqlarini qurish orqali aniqlash.

Yuqoridagi jadval asosida talab chizig‘ida yotgan nuqtalarni aniqlaymiz. Talab jadvalining birinchi satridagi 1 200 va 0 sonlariga talab chizig‘ining *A*(0;1 200) nuqtasi, ikkinchi satridagi 900 va 2 sonlariga talab chizig‘ining *B*(2;900) nuqtasi mos keladi *C*(4;600) va *D*(6;300) nuqtalari ham shunday topiladi). Bu nuqtalarning koordinata tekisligidagi o‘rinlarini belgilaymiz. Ularni tutashtirib, talab chizig‘ini hosil qilamiz. Xuddi shunga o‘xshash taklif chizig‘i ham quriladi. Bu grafiklarning kesishish nuqtasi muvozanat nuqtadir. Bizning holatda bu



M nuqtadan iborat. Bu nuqtaning birinchi koordinatasi (absissasi) muvozanat miqdorni, ikkinchi koordinatasi (ordinatasi) muvozanat narxni anglatadi. Bu holda tovarning bozor narxi, ya'ni muvozanat narxi 600 so'mni, muvozanat miqdori esa 4 donani tashkil qiladi.

3. Talab va taklif funksiyalari yordamida muvozanat narxni aniqlash.

Aytaylik, bozorda tovarga bo'lgan talab va uning taklifi $q_D=400-p$ va $q_S=2p+100$ funksiyalar ko'rinishida berilgan. Bu yerda, p — tovar narxi (so'mda); q_D — tovarga bo'lgan talab miqdori (ming donada); q_S — tovar taklifi miqdori (ming donada). Tovarning muvozanat narxini va muvozanat miqdorini toping.

Yechish. Muvozanat narxi bo'lishi uchun q_D va q_S teng bo'lishi kerak: Ya'ni

$$q_D=q_S \Rightarrow 400-p=2p+100 \Rightarrow 3p=300,\ p=100 \Rightarrow q=400-p=300.$$

Demak, tovarning muvozanat narxi 100 so'm, muvozanat miqdor esa 300 donaga teng.

Mashqlar

1. Quyida berilgan talab va taklif jadvallari asosida talab va taklif grafiklarini quring hamda tovarning bozor narxini aniqlang. Bozorda ushbu tovar narxi 1 800 so'm qilib qat'iy belgilansa, qanday holat yuzaga keladi? 1 000 so'm qilib belgilansa-chi?

Tovar narxi (p), so'mda	Taklifi miqdori (q_S), tonnada
2 200	2 000
1 800	1 500
1 400	1 000
1 000	500

Tovar narxi (p), so'mda	Talab miqdori (q_D), tonnada
2 200	0
1 800	500
1 400	1 000
1 000	1 500

2. Bozorda tovarga bo'lgan talab: $q_D=-4p+800$, taklif esa $q_S=p+100$ funksiyalari bilan berilgan. Tovarning bozordagi muvozanat narxi va muvozanat miqdorini toping.

3. Bozorda tovarga bo'lgan taklif $q_S=2p+4.000$ funskiya bilan berilgan.

Talab funksiyasi $q_p=kp+30\ 000$ va tovarning muvozanat narxi 10 000 so'm bo'lsa, taklif va talab chiziqlarini chizing.

23- MAVZU TALAB VA TAKLIF O‘ZGARISHINING BOZOR NARXIGA TA’SIRI

AMALIY VAZIYATLARGA DOIR TOPSHIRIQLAR

O‘tgan darslarda tovarga bo‘lgan talab va uning taklifi asosida bozorda tovarning narxi qanday shakllanishini tahlil qilgan edik. Endi talab yoki taklif narxga bog‘liq bo‘lmagan omillar ta’sirida o‘zgarganda, tovarning bozor narxi va muvozanat miqdori qanday o‘zgarishini tahlil qilamiz. Tahlilni quyidagi vaziyatlar asosida bajaramiz.

1- vaziyat. Mamlakat aholisining “Spark” yengil avtomobilini sotib olishga bo‘lgan talabi va mashina bozoridagi bu rusumdagi avtomobillarning taklif chiziqlari 1- chizmada berilgan. Aytaylik, mamlakat aholisining daromadlari oshgan bo‘lsin.



1- chizma

1. Aholi daromadlarining oshishi ta’sirida bu avtomobilga bo‘lgan talab qanday o‘zgaradi?
2. Talab chizig‘i qaysi tomonga siljiydi? Talab chizig‘ining keyingi holatini chizing.
3. Chizmadan avtomobilning yangi muvozanat narxini belgilang. Avtomobilning narxi oshdimi yoki kamaydimi?
4. Chizmaga ko‘ra, aholining avtomobil sotib olish hajmining oshgani yoki kamayganini aniqlang.
5. Yuqoridagi mulohazalar asosida aholi daromadining o‘zgarishi natijasida tovarning bozor narxi va muvozanat miqdorining o‘zgarishi haqida xulosa qiling.

2- vaziyat. Erta bahorda paltoga bo‘lgan talab va taklif chiziqlari 2- chizmada berilgan bo‘lsin.



2- chizma

1. Yozda paltoga bo‘lgan talab qanday o‘zgaradi?
2. Natijada talab chizig‘i qaysi tomonga siljiydi? Talab chizig‘ining keyingi holatini chizing.
3. Chizmadan paltoning yangi muvozanat narxini belgilang. Paltoning narxi oshdimi yoki kamaydimi?
4. Chizmaga ko‘ra, aholining palto sotib olish hajmining oshgani yoki kamayganini aniqlang.
5. Yuqoridagi mulohazalar asosida yil mavsumining o‘zgarishi natijasida tovarning bozor narxi va muvozanat miqdorining o‘zgarishi haqida xulosa qiling.

3- vaziyat. Soliqlar oshirilmasdan oldin tovarga bo‘lgan talab va taklif chiziqlari 3- chizmada berilgan.



3- chizma

1. Tovar ishlab chiqaruvchilarga nisbatan soliqlarning oshirilishi tovar taklifiga ta’sir qiladimi yoki talabigami?
2. Soliqning oshishi natijasida tovar taklifi qanday o‘zgaradi?
3. Buning natijasida taklif chizig‘i qaysi tomonga siljiydi? Taklif chizig‘ining keyingi holatini chizing.
4. Chizmadan tovarning yangi muvozanat narxini belgilang. Tovarning narxi oshdimi yoki kamaydimi?
5. Chizmaga ko‘ra, tovar ishlab chiqaruvchilarga nisbatan soliqlarning oshirilishi natijasida muvozanat miqdorining, ya’ni tovarni sotib olish hajmining oshgani yoki kamayganini aniqlang.
6. Yuqoridagi mulohazalar asosida, tovar ishlab chiqaruvchilarga nisbatan soliqlarning oshirilishi natijasida tovarning bozor narxi va muvozanat miqdorining o‘zgarishi haqida xulosa qiling.

4- vaziyat. Bozorda Xiva gilamlarining boshlang‘ich holatdagi talab va taklif chiziqlari 4- chizmada berilgan.



4- chizma

1. Gilam fabrikasida ishlab chiqarish unumdorligi yuqori bo‘lgan yangi texnologiyaga asoslangan to‘quv dastgohi o‘rnatilishi talabga ta’sir qiladimi yoki taklifga?
2. Buning natijasida tovar taklifi o‘sadimi yoki kamayadimi?
3. Bu holatda taklif chizig‘i boshlang‘ich holatdan qaysi tomonga siljiydi? Taklif chizig‘ining keyingi holatini chizing.
4. Chizmadan tovarning yangi muvozanat narxini belgilang. Tovarning narxi oshdimi yoki kamaydimi?
5. Yangi texnologiyaning qo‘llanishi natijasida muvozanat miqdorning oshgani yoki kamayganini aniqlang.
6. Yangi texnologiyalar qo‘llanishi natijasida tovarning muvozanat narxi va miqdorining o‘zgarishi haqida xulosa qiling.

Mashqlar

1. Quyidagi jadvalda turli tovarlar bozoridagi vaziyatlar tasvirlangan. Bu ma’lumotlar asosida talab va taklif chiziqlarining holati qanday o‘zgarishini aniqlang hamda jadvalning uchinchi ustuniga chizing.

Keltirilgan omillar ta'sirida muvozanat narx va muvozanat miqdorning o'sishi yoki kamayishini jadvalning to'rtinchi ustunida mos strelkalar bilan ko'rsating.

Tovar bozori	Vaziyat	Chizmalar	Muvozanat narx va miqdorning o'zgarishi
Namuna: Muzqaymoq	Ko'plab firmalar muzqaymoq ishlab chiqarishga kirishdi		P↓ Q↑
Charm kurtka	Charmning narxi oshdi		P Q
Daftar	O'quvchilarning yozgi ta'tili boshlandi		P Q
Tramvay transporti xizmati	Benzin narxi oshdi		P Q
Chinni idishlar	Chinni zavodlari yangi, unumli texnologiyani qo'llay boshladi		P Q

2. Quyidagi omillar talab va taklifning qay biriga ta'sir qilishini aniqlab, ular ta'sirida tovarning bozor narxi qanday o'zgarishini tahlil qiling va chizma yordamida asoslab ko'rsating: a) aholi sonining o'sishi; b) resurslar narxlarining o'zgarishi; d) iste'molchilar daromadlarining kamayishi; e) tovar o'rnini bosuvchi tovar narxining kamayishi; f) davlat tomonidan ishlab chiqaruvchilarga solinadigan soliqlar va imtiyozlarning o'zgartirilishi; g) to'ldiruvchi tovar narxining oshishi; h) tovar narxi oshishining kutilishi; i) bozordagi sotuvchilar sonining o'zgarishi.
3. Yuqorida keltirilgan *b* va *e* omillar tovarga bo'lgan talab va taklifga bir vaqtning o'zida ta'sir qilsa, tovarning bozor narxi qanday o'zgarishini tahlil qiling va chizma yordamida asoslab ko'rsating.

IV BOBNI TAKRORLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

A. SAVOLLAR

1. Tovarni biror narxda sotib olishga bo‘lgan xohishning, ehtiyojning o‘zigina talab bo‘la oladimi? Qachon bu xohish talabga aylanadi?
2. Talab va talab miqdori o‘rtasidagi farqni misollar yordamida tushuntiring.
3. Talab miqdorining tovar narxiga teskari bog‘langanligini izohlang.
4. Tovarga bo‘lgan talab qanday omillar ta’sirida o‘zgarishi mumkin?
5. O‘rnini bosuvchi va to‘ldiruvchi tovarlar juftligiga misol keltiring.
6. Taklif tushunchasining ma’nosini misollar yordamida tushuntiring.
7. Taklif miqdori qanday omillar ta’sirida o‘zgarishi mumkin?
8. Taqchil va to‘yingan bozor holatlari qachon vujudga keladi?
9. Tovarning bozor yoki muvozanat narxi qanday aniqlanadi?
10. Talab va taklif o‘zgarishining bozor narxiga ta’sirini tushuntiring.

B. TOPSHIRIQLAR

Har bir atamaga mos talqinni toping.

ATAMALAR:

1. Talab miqdori.
2. Talab.
3. Taqchil bozor.
4. Taklif miqdori.
5. Tovarning bozor narxi.
6. Taklif.
7. To‘yingan bozor.
8. Muvozanat miqdor.

TALQINLAR:

a) muayyan vaqt ichida sotuvchilarning ma’lum narxda sotishi mumkin bo‘lgan tovar miqdori;
b) muayyan vaqt davomida xaridorlarning tovarni turli narxlarda qanchadan sotib olish imkoniyatlarini aniqlaydigan, tovarning narxi va miqdori orasidagi munosabat;
d) bozorda tovarning muvozanat narxda sotilish miqdori;
e) muayyan vaqt davomida xaridorlarning ma’lum narxda sotib olishlari mumkin bo‘lgan tovar miqdori;
f) tovarning taklifi unga bo‘lgan talabdan past bo‘lgan bozor;
g) muayyan vaqt ichida sotuvchilarning tovarni turli narxlarda qancha miqdorda sota olish imkoniyatlarini aniqlaydigan, tovarning narxi va miqdori o‘rtasidagi munosabat;
h) tovarning taklifi unga bo‘lgan talabdan yuqori bo‘lgan bozor;
i) talab miqdorining taklif miqdoriga teng bo‘lgandagi narx;

D. TESTLAR

Berilgan savolga mohiyat jihatidan eng to‘g‘ri va to‘liq javobni belgilang.

1. Bozorda benzin narxi 3 marta oshsa, u holda avtomobillar narxi ...

A. oshadi.
B. oshishi ham, oshmasligi ham mumkin.
D. o‘zgarmaydi.
E. pasayadi.

2. Tovar ishlab chiqarish uchun zarur bo‘ladigan resurslar narxi o‘zgarganda,...

A. taklif miqdori o‘zgaradi.
B. talab miqdori o‘zgaradi.
D. tovarga bo‘lgan talab o‘zgaradi.
E. tovar taklifi o‘zgaradi.

3. Tovarga bo‘lgan talab va taklifning bir vaqtning o‘zida kamayishi nimaga olib keladi?

A. Muvozanat narxning pasayishiga.
B. Muvozanat narxning oshishiga.
D. Muvozanat miqdorning ko‘payishiga.
E. Muvozanat narxning ham, muvozanat miqdorning ham kamayishiga.

4. Tovar narxi oshganda, ...

A. taklif miqdori ko‘payadi.
B. taklif miqdori kamayadi.
D. taklif ko‘payadi.
E. taklif kamayadi.

5. Quyidagi omillardan qaysi biri talabga ta’sir etmaydi?

A. Tovarni iste’mol qiluvchi aholi sonining o‘zgarishi.
B. Iste’molchilar daromadlarining o‘zgarishi.
D. Bozorga tovarning ko‘p miqdorda keltirilishi.
E. Tovar narxi oshishining kutilishi.

7. Muzqaymoqqa bo‘lgan talab chizig‘ining chap tomonga siljishi qaysi omil ta’sirida sodir bo‘lishi mumkin?

A. Aholi daromadlarining o‘sishi.
B. Muzqaymoq narxining pasayishi.
D. Muzqaymoq taklifining kamayishi.
E. Qish faslining kelishi.

8. Taklif miqdori — bu muayyan vaqt davomida ...

A. xaridorlarning ma’lum narxda sotib olishlari mumkin bo‘lgan tovar miqdori.
B. sotuvchilarning ishlab chiqarishi mumkin bo‘lgan tovar miqdori.
D. sotuvchilarning ma’lum narxda sotishlari mumkin bo‘lgan tovar miqdori.
E. sotuvchilar tomonidan bozorga keltirilgan jami tovar miqdori.

Bozor iqtisodiyotining talabi shundayki, resurs va imkoniyatlardan foydalanish imkoni, ya'ni faoliyat maydoni hammaga teng bo'lishi kerak. Yakkahokimlikka hech kimning haqqi yo'q.

Shavkat Mirziyoyev



V bob. Raqobat va bozor iqtisodiyoti

24- MAVZU RAQOBAT

“Kafolat-servis” ustaxonasi

FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

Aytaylik, siz “Kafolat-servis” ustaxonasining xo‘jayinisiz. Shaharchada sizning korxonangizdan tashqari yana avtomobillarga texnik xizmat ko‘rsatuvchi “Avtoservis” va “Avto-Usta” xususiy ustaxonalari ham faoliyat ko‘rsatadi. O‘rtangizda doimo raqobat bo‘lib, har bir korxona ko‘proq mijozlarni o‘ziga jalb qilishga harakat qiladi va mijozlarga turli xil qulayliklarni taklif etadi.

Quyida keltirilgan vaziyatlarda siz o‘z mavqeyingizni saqlab qolish uchun qanday yo‘l tutgan bo‘lar edingiz? Qaroringizni asoslang.

1- vaziyat. “Avtoservis” kichik ustaxonasi mijozlarni o‘ziga jalb qilish uchun avtomobillarga xizmat ko‘rsatish haqini 10% ga tushirdi (bu holat iqtisodiyotda narxlar vositasida raqobatlashish deb ataladi).

2- vaziyat. “Avto-Usta” korxonasi mahalliy radio va televideniye orqali o‘z reklama va e’lonlarini bera boshladi.

3- vaziyat. Yaqinda shaharchada “GM-O‘zbekiston” qo‘shma korxonasi yangi texnik xizmat ko‘rsatish shoxobchasini ochdi. Shoxobchada o‘rnatilgan yangi dastgohlar mehnat unumdorligini va ta’mirlash sifatini oshirdi, mijozlarga 6 oylik kafolatlangan xizmat ko‘rsatish joriy qilindi.

Resurslarning yetishmasligi oqibatida bozor ishtirokchilarining manfaatlari o‘zaro to‘qnashadi va ular orasida o‘zaro kurash — *raqobat* vujudga keladi. Ma’lumki, har bir sotuvchi ko‘proq tovar sotib, ko‘proq foyda olishdan manfaatdor bo‘ladi. Ularning bu manfaatlari bozorda to‘qnashadi va sotuvchilar o‘rtasida raqobat yuzaga keladi. Ishlab chiqaruvchilar xom ashyo va boshqa resurslarni imkoni boricha arzon

sotib olishdan manfaatdor. Ularning xaridor sifatidagi bu manfaatlari resurslar bozorida o‘zaro to‘qnashadi. Natijada, ishlab chiqaruvchilar orasida kurash— raqobat paydo bo‘ladi.

Raqobat iqtisodiy faoliyatni saqlab qolish maqsadida sotuvchi va ishlab chiqaruvchilarning bor imkoniyatlarini ishga solishga, xaridorlarni jalb qilish uchun turli reklamalardan foydalanishga undaydi. Raqobat muhitining vujudga kelishi uchun quyidagi shart-sharoitlar bo‘lishi kerak:

— bozorda ishlab chiqaruvchi firmalar va xaridorlarning ko‘p bo‘lishi;

— firmalar muayyan bir xil tovar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo‘lishi;

— tovarning bozor narxiga hech qaysi firmaning ta’sir o‘tkaza olmaydigan bo‘lishi;

— boshqa raqobatchi firmalarning bozorga kirishi uchun hech qanaqa to‘siqlarning bo‘lmasligi.

Bozordagi raqobat ma’lum qonun va qoidalar orqali tartibga solib turiladi. Ushbu maqsadda davlat maxsus qonunlar qabul qiladi, qoidalar joriy qiladi. O‘rnatilgan qonun va qoidalar asosida olib borilayotgan raqobat — sog‘lom raqobat, o‘rnatilgan qonun va qoidalarga zid olib borilayotgan raqobat esa g‘irrom raqobat deb yuritiladi.

Raqobat — bozor ishtirokchilari manfaatlarining to‘qnashuvidan yuzaga keladigan o‘zaro kurash.

Bozorda raqobatchi o‘z raqibini yengish uchun turli usullardan foydalanadi. *Narx vositasidagi raqobat* raqobatchilikning eng asosiy turidir. Bunda bitta firma o‘z mahsulotiga ikkinchi firmaga nisbatan pastroq narx belgilash bilan shu mahsulotga ega boshqa firmalardan ko‘ra ko‘proq mahsulot sotishga intiladi. *Narx vositasisiz raqobatda* esa firma mahsulot sifatini yaxshilash, chiroyliroq qadoqlash, kuchliroq reklama qilish va shu kabi narx bilan bog‘liq bo‘lmagan vositalar orqali bozorning boshqa qatnashchilari bilan raqobatlashadi.

Narx vositasida raqobatlashish — tovar narxini tushirish yoki oshirish yordamida raqobatchilarga ta’sir ko‘rsatish.

Narx vositasisiz raqobatlashish — tovar narxini o‘zgartirmasdan uning sifatini yaxshilash, reklamani kuchaytirish kabi omillar orqali raqobatchilarga ta’sir ko‘rsatish.

Biror tovarning sotuvchilari xaridorlarni o‘zlariga jalb etish va ko‘proq foyda olish maqsadida o‘zaro raqobat qilishadi. Bunday raqobat, ayniqsa, tovarning taklifi miqdori unga bo‘lgan talab miqdoridan ortiq bo‘lganda

yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Bozorda mazkur tovardan keragidan ortiq hajmda taklif etiladi. Tovarlar peshtaxtalarda sotilmay turib qoladi. Bu holatda sotuvchilar tovarlarning narxini tushirish, reklamani kuchaytirish, tovar sifati, dizayni va mijozlarga savdo xizmati ko‘rsatishni yaxshilash kabi yo‘llar bilan o‘zaro raqobat qilishadi. Sotuvchilar o‘zaro raqobatlashganlarida tovar narxi tushadi. Bunday raqobatdan xaridorlar va umuman olganda, barcha iste’molchilar manfaatdor bo‘lishadi.

Xaridorlar ham muayyan tovarni sotib olish uchun o‘zaro raqobat qilishadi. Bunday raqobat, ayniqsa, tovarning taklifi miqdori unga bo‘lgan talab miqdoridan kam bo‘lganda yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Bozorda tovarning kam miqdorda taklif etilishi tovar taqchilligini yuzaga keltiradi. Tovarni sotib olish uchun xaridorlar navbat kutib qoladilar. Navbatlarning paydo bo‘lishi esa xaridorlarning o‘zaro raqobatidan dalolat beradi. Bunday raqobat ta’sirida narxlar oshadi, tovar sifati tushadi, xizmat ko‘rsatish esa yomonlashadi.

Bu haqda o‘ylab ko‘ring!

1997- yilda AQSH adliya vazirligi qoshidagi antimonopoliya qo‘mitasi mashhur Microsoft firmasini erkin raqobat qoidalarini buzganlikda ayblab sudga berdi. Firma dunyoning ko‘plab mamlakatlarida qo‘llanilgan Windows-95 operatsion sistemasiga o‘zining yangi kompyuter dasturlarini mahkam bog‘lab qo‘ydi. Vaholanki, boshqa firmalarning dasturlari ham ulardan sifat jihatdan qolishmas edi. Bu bilan Microsoft firmasi raqobatning qaysi tamoyilini buzgan, deb o‘ylaysiz?

“Kim oshdi” savdosi — sotuvchi yoki maxsus vositachi firma tomonidan uyushtiriladigan savdo tadbiridir. “Kim oshdi” savdosida nima, qayerda, qachon, qanday boshlang‘ich narxda sotilishi xaridorlarga oldindan e’lon qilinadi. Tovarni sotib olish niyatida bo‘lgan xaridorlar auksionga qatnashish badalini to‘laganlaridan so‘ng, e’lon qilingan kuni belgilangan joyda ular ishtirokida auksion boshlanadi. Auksionchi har bir lotni, ya’ni auksionda qo‘yilgan tovar, uning miqdori va boshlang‘ich bahosini e’lon qiladi. Shundan so‘ng, xaridorlar ularga oldindan berilgan raqamlarni ko‘tarib, tovarni yuqoriroq bahoda sotib olish niyatlari borligini ovoz chiqarib aytishadi. Auksionchi har bir bahoni ovoz chiqarib uch marta aytib sanay boshlaydi. Bu paytda kimdir yana ham yuqoriroq bahoni

aytsa, sanoq yana boshqatdan boshlanadi va hokazo. Savdo eng yuqori narxda sotib olmoqchi bo‘lgan yagona xaridor aniqlanguncha davom etadi.

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

1. Raqobat iqtisodiyotga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, chunki raqobat tufayli ko‘p firmalar sinadi, hammaning tinchi buziladi, bir maromda ketayotgan faoliyat tarzi o‘zgaradi, firmalar bir-biriga dushman bo‘lib qoladi. Umuman aytganda, ko‘proq foyda olish maqsadida odamlar nimalarga qo‘l urmaydilar. Siz bu fikrga nima deysiz?
2. Nima sababdan, bozor sharoitida raqobatsiz rivojlanish yo‘q?
3. Quyidagilar o‘z sohalaridagi raqiblari bilan raqobatlashganda, nimalarga ko‘proq ahamiyat berishi kerak deb o‘ylaysiz?
   a) go‘sht yetishtirayotgan fermer xo‘jaliklari;
   b) erkaklar ko‘ylagi ishlab chiqarayotgan fabrika;
   d) turli xil xizmatlar ko‘rsatayotgan bank.
4. Ishlab chiqaruvchi (sotuvchi)lar orasidagi raqobat natijasida iste’-molchilar qanday naf ko‘rishadi? Misollar yordamida tushuntiring.
5. Raqobat jarayonida sotuvchilar tovar narxini nimaning evaziga tushurishadi?
6. G‘irrom raqobat usullariga misollar keltiring.
7. Markazlashgan rejali iqtisodiyotda nima uchun raqobatga ehtiyoj bo‘lmaydi?
8. “Kim oshdi” savdosini qanday raqobat turiga kiritish mumkin?

Buni yodda tuting!

- Bozor ishtirokchilarining o‘z manfaatlari uchun o‘zaro kurashi bozorda raqobat muhiti paydo bo‘lishiga olib keladi.
- Raqobatsiz bozor iqtisodiyoti bo‘lishi mumkin emas.
- Sotuvchilar o‘rtasidagi raqobat tovar narxining tushishiga, xaridorlar o‘rtasidagi raqobat esa tovar narxining oshishiga olib keladi.
- Bozor ishtirokchilari o‘zaro raqobat qilar ekanlar ayrim paytlarda g‘irromlik qilishlari mumkin.

Topshiriq

O‘zingiz bilgan bozorda sotuvchilar o‘rtasidagi raqobatni kuzating va kuzatuvlaringiz natijasini sinfdoshlaringiz bilan muhokama qiling.

25- MAVZU MONOPOLIYA VA MONOPOLLASHGAN BOZORLAR

FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

Siz shahardagi barcha avtobus parklarini birlashtirib, shahar bo‘yicha yagona “Asilbek” xususiy transport firmasini tuzdingiz. Shu tariqa firmangiz shahar aholisiga avtobus transporti xizmati ko‘rsatish bo‘yicha yakka monopolchi mavqeiga ega bo‘lib qoldi.

Siz bu firmaning egasi sifatida quyida keltirilgan vaziyatlarda qanday yechim tanlagan bo‘lar edingiz? O‘z yechimingizni asoslab bering.

1- vaziyat. Shahar atrof-muhitni muhofaza qilish tashkilotining fikricha, avtobus chipta narxining yuqori qilib belgilanishi, shaharda shaxsiy transport vositalari qatnovining ko‘payishiga olib keladi. Bu esa shahar havosining yanada ifloslanishiga sabab bo‘ladi. Shu bois, tashkilot sizdan yo‘l haqini kamaytirishni so‘ramoqda. Sizning bu so‘rovga javobingiz qanday bo‘ladi?

2- vaziyat. Avtobus haydovchilaridan biri eski bir avtobus sotib olib, eng serqatnov yo‘nalishda xizmat ko‘rsata boshladi. Uning bu harakatiga siz qanday javob bergan bo‘lar edingiz?

3- vaziyat. Sizning nomingizga ko‘plab shikoyat xatlari kela boshladi. Ularda avtobuslar kechikib harakatlanayotgani, xizmat sifatining pastligi kabi e’tirozlarga javoban qanday choralar ko‘rgan bo‘lar edingiz?

Oldingi mavzuda raqobat va uning vujudga kelishi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar haqida gaplashgan edik.

Sof raqobat bozoriga misol qilib qishloq xo‘jalik mahsulotlari sotiladigan dehqon bozorlarini, kundalik ehtiyoj mollari sotiladigan chakana savdo do‘konlarini keltirish mumkin. Bu bozorlarda muayyan tovar turi juda ko‘p sotuvchilar tomonidan sotiladi. U yerda narx

erkin bo‘lib, biror-bir sotuvchi narx ustidan nazorat o‘rnata olmaydi. Shuningdek, bu bozorlarga kirishga to‘siq yo‘q bo‘lib, istalgan paytda ixtiyoriy sotuvchi u yerda o‘z faoliyatini boshlashi mumkin.

Sof raqobat bozori — muayyan tovar turi juda ko‘p sotuvchilar tomonidan sotiladigan, boshqa sotuvchilarning kirishi oson va narxlar erkin bo‘lgan bozor.

Odatda, kamdan kam bozorlar sof raqobat bozori xususiyatlariga ega bo‘ladi. Ular qaysidir darajada monopollashgan bo‘ladi.

Monopoliya (yunonchada “tanho sotaman” degan ma’noni anglatadi) — bozorning muayyan tovar turi yakka sotuvchi tomonidan sotiladigan, boshqa sotuvchilarning kirishi juda qiyin bo‘lgan holati.

Bozorlar monopollashish darajasiga ko‘ra, quyidagi ketma-ketlikda joylashgan to‘rt turga bo‘linadi:

Sof raqobat bozori ⇨ **Monopolistik raqobat bozori** ⇨ **Oligopolistik bozor** ⇨ **Sof monopol bozor**

Monopolistik raqobat bozori deb bir-biriga o‘xshash, turdosh tovarlar juda ko‘p sotuvchilar tomonidan sotiladigan, boshqa sotuvchilarning kirishi oson va sotuvchilar tomonidan tovar narxiga muayyan nazorat o‘rnatish mumkin bo‘lgan bozorga aytiladi. Bunday bozor turiga misol qilib, turli maishiy xizmatlar bozori, umumiy ovqatlanish shoxobchalari, poyabzal bozori kabilarni keltirish mumkin.

Oligopoliya — bozorda bir nechta yirik kompaniyalargina bo‘lgandagi holat. Bu bozorda narxlar bir nechta firmalar tomonidan nazorat qilinadi va unga boshqa sotuvchilarning kirishiga muayyan to‘siqlar mavjud bo‘ladi. Respublikamizdagi uyali telefon aloqa xizmatlari bozori, elektr uy-ro‘zg‘or tovarlarini ishlab chiqaruvchilar bozori kabi bozorlar oligopoliyaga misol bo‘ladi.

*Sof monopol bozor*ida monopolchi — sotuvchi narx ustidan to‘liq nazorat o‘rnatadi. Xaridorlarning tanlash imkoniyatlari yo‘q bo‘lganligidan ular tovarni monopolchi belgilagan narxda sotib olishga majbur bo‘ladilar. Monopolchi bozorda yakka hukmron bo‘lganligi uchun uni tovarning sifati, yangi texnologiyalarni qo‘llash kabi tashvishlar o‘ylantirmaydi. Xullas, monopol bozorining vujudga kelishi nafaqat iste’molchi xaridorlar, balki butun iqtisodiyot taraqqiyotiga to‘siq bo‘ladi.

Monopolistik raqobat bozori — turdosh tovarlar juda ko‘p sotuvchilar tomonidan sotiladigan, boshqa sotuvchilarning kirishi oson va sotuvchilar tomonidan tovar narxiga muayyan nazorat o‘rnatish mumkin bo‘lgan bozor.

Oligopolistik bozor — bir nechta yirik firmalarning monopol bozori.

Davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan ba’zi bir ishlab chiqarish sohalari va tarmoqlari atayin monopollashtirilgan bo‘ladi. Bunday monopol tarmoqlar va sohalar — *tabiiy monopoliyalar* deb ataladi. Tabiiy monopoliyalarga, temir yo‘l xizmati, aviatsiya transporti, elektr energetika tarmog‘i, gaz va suv ta’minoti xizmati kabi qator soha va tarmoqlarni misol qilib keltirish mumkin. Tabiiy monopoliyalar davlat tomonidan tartibga solib turiladi. Ular uchun narxlarning eng yuqori darajasi belgilanib, narxlarning oshishi va xizmatlarning kamayib ketishiga davlat tomonidan yo‘l qo‘yilmaydi.

BILASIZMI!

O‘zbekistonda 2018- yil natijasiga ko‘ra 140 ta tabiiy monopoliya mavjudligi rasman e’lon qilindi. Bu 2017- yildagiga qaraganda bunday monopoliyalar 8 taga kamayganligini anglatadi.

Tabiiy monopoliya holati — bu muayyan tarmoq yoki sohaning shunday raqobat mavjud bo‘lmagan holati-ki, unda iste’molchilarning talablari raqobat mavjud bo‘lgandagiga qaraganda yaxshiroq qondiriladi.

Lekin hozirgi islohotlar natijasida ayrim yirik kompaniyalar, shu jumladan tabiiy monopoliya maqomidagi korxonalar ham ixchamlashtirilmoqda va qisman xususiylashtirilmoqda. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga muvofiq "O‘zbekiston havo yo‘llari" aviakompaniyasini bir nechta kompaniyalarga bo‘lib yuborishga qaror qilindi.

Tabiiy monopoliya — davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan ba’zi bir ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish sohalari va tarmoqlarining atayin monopollashtirilishi.

Mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi tashkil etilgan. Uning vazifasi iqtisodiyotdagi monopoliyaga barham berish, tadbirkorlik va raqobatni qo‘llab-quvvatlashdan iboratdir.

Respublikamizda raqobatga shart-sharoit hozirlash va monopoliyalarga qarshi kurashish bozor islohotlarining muhim jihati hisoblanadi. Raqobatni rivojlantirishga qaratilgan Prezident farmonlari, hukumat

qarorlari chiqarilgan va qonunlar qabul qilingan. Xususan, “Monopol faoliyatni cheklash to‘g‘risida”gi qonunga ko‘ra, bozorda sotuvchi firmalarning:

— ataylab tovarlar taqchilligini hosil qilishi;
— narxlar ustidan o‘z nazoratini o‘rnatishi;
— boshqa raqobatchi firmalarning bozorga kirib kelishiga to‘sqinlik qilish kabi faoliyatlari man etilgan.

Bu qonunni buzganlar uchun raqibiga yetkazgan zararini qoplash, jarima to‘lash va g‘irromlik qilish bilan topilgan foydadan mahrum qilish kabi iqtisodiy jazolar belgilangan.

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

1. Monopolistik raqobat bozori sof raqobat bozoridan qaysi xususiyatlari bilan farq qiladi?
2. Sof monopoliyaning oligopoliyadan farqi nimada?
3. Nima uchun ayrim bozorlarda monopoliya vujudga keladi?
4. Monopoliyaning qanday iqtisodiy zararlari bor?
5. Monopoliyaga qarshi qonunchilik nega paydo bo‘lgan?
6. Tabiiy monopoliyalarga misollar keltiring.
7. Respublikamizning bozor iqtisodiyotiga o‘tishida monopoliyaga qarshi qonunlarning qanday ahamiyati bor?
8. Sizningcha, qaysi sohalarda davlat monopoliyasi saqlab qolingani, qaysi sohalarda esa monopoliyaning umuman bo‘lmagani ma’qul deb o‘ylaysiz? Fikringizni asoslang.
9. Quyida sanab o‘tilgan sohalarning qaysi birida monopoliya, oligopoliya, monopol raqobat va sof raqobat mavjud bo‘lishi mumkin: a) samolyotsozlik; b) mineral suv ishlab chiqarish; d) oyoq kiyimi ishlab chiqarish; e) avtomobilsozlik; f) qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish; g) uyali aloqa xizmati; h) non pishirib sotish.

Buni yodda tuting!

- Sof raqobat bozorida sotuvchilar ko‘p va bozorga yangi sotuvchilar kirishiga hech qanday to‘siq bo‘lmaydi.
- Monopoliya sharoitida bozorda sotuvchilar soni kam, yangi sotuvchilarning bozorga kirishlari uchun sun’iy to‘siqlar mavjud.
- Monopollashish darajasiga qarab bozorlar sof raqobat bozori, monopolistik raqobat bozori, oligopoliya, sof monopol bozorlari turlariga bo‘linadi.

26- MAVZU BOZOR IQTISODIYOTI



FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

Yuqoridagi chizmadan foydalanib, quyidagi savollarga javob berishga harakat qiling:

a) bozor iqtisodiyotida xususiy mulkchilik va erkin iqtisodiy faoliyatning ahamiyati qanday? b) bozor iqtisodiyoti sharoitida, bozor ishtirokchilarining iqtisodiy manfaatga, foyda olishga bo‘lgan intilishi, ishtiyoqi qanchalar muhim hisoblanadi? d) raqobatning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi o‘rni qanday? e) nima sababdan bozor iqtisodiyoti monopoliyani rad etadi?

Bozor iqtisodiyoti sharoitida “Nima ishlab chiqarish kerak?”, “Qanday ishlab chiqarish kerak?”, “Kim uchun ishlab chiqarish kerak?” — degan savollarga, asosan, bozor javob beradi. Shu bois, bu tizimni *bozor iqtisodiyoti* deb atashadi.

Bozor iqtisodiyotining eng asosiy xususiyatlari bu *xususiy mulkchilik* va unga asoslangan *erkin iqtisodiy faoliyatdir*. Bozor iqtisodiyoti sharoitida turli xil mulk shakllari: xususiy, jamoa va davlat mulklari mavjud bo‘lib, ular teng huquqli rivojlanadi. Ishlab chiqarish vositalarining ko‘pchilik qismi xususiy shaxslar qo‘lida bo‘lib, ular o‘z iqtisodiy faoliyatlarini mustaqil, erkin ravishda olib boradilar. Bu tizimda xoh u

ishlab chiqaruvchi bo‘lsin, xoh u iste’molchi bo‘lsin, ular tomonidan iqtisodiy yechim faqat bozor munosabatlari va qonunlaridan kelib chiqib tanlanadi. *Narxlar erkin* bo‘lib, ular tovarga bo‘lgan talab va taklifning o‘zaro munosabati orqali shakllanadi.

Bozor iqtisodiyotining yana bir muhim xususiyatlaridan biri— bozor ishtirokchilarining *iqtisodiy manfaat*ga, *foyda olishga bo‘lgan intilishi*dir. Har bir fuqarodagi ko‘proq foyda olishga bo‘lgan intilish, uning iqtisodiy va tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantiradi, yangilikka undaydi. Bu esa oxir-oqibat, ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar orasidagi raqobatni keltirib chiqaradi. *Raqobat* — bozor iqtisodiyotining eng muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Shunga ko‘ra, bozor iqtisodiyoti *monopoliyani rad etadi*. Chunki monopoliya bor joyda erkin iqtisodiy faoliyat va raqobat bo‘lmaydi.

Bozor iqtisodiyoti — xususiy mulkchilikka asoslangan, barcha iqtisodiy yechimlar bozor mexanizmlari yordamida aniqlanadigan iqtisodiy tizim.

Yuqorida keltirilgan xususiyatlar asosida bozor munosabatlari shakllanadi, bozor iqtisodiyoti amal qilishi uchun shart-sharoitlar yaratiladi va iqtisodiyot bozor munosabatlari asosida rivojlanadi.

XX asrga kelib markazlashgan rejali iqtisodiyotga asoslangan qator davlatlar vujudga keldi. Natijada, amaldagi ikki tizim o‘rtasida raqobat, o‘zaro musobaqa paydo bo‘ldi. Bozor iqtisodiyoti jamiyat hayotidagi o‘zgarishlarga javoban, ijobiy xususiyatlarni o‘zida tez mujassamlashtirib, bu o‘zgarishlarga tezlikda moslasha oldi va bu bilan iqtisodiy taraqqiyot rivojiga poydevor bo‘ldi. Rejali iqtisodiyot esa o‘zining beso‘naqayligi, o‘zgarishlarga tez moslasha olmasligi tufayli jamiyatning iqtisodiy taraqqiyotiga g‘ov bo‘lib, uni “bo‘g‘a” boshladi. XX asr oxirlariga kelib, bozor iqtisodiyotiga tayangan davlatlar iqtisodiyoti gullab-yashnab, iqtisodiy taraqqiyotda ilgarilab ketishdi. Markazlashgan rejali iqtisodiyot hukm surgan davlatlar iqtisodiyoti tanazzulga yuz tutib, jahon taraqqiyotidan ancha orqada qolib ketdi. Bugungi kunga kelib, bu mamlakatlarda ham bozor iqtisodiyotiga o‘tish ham tarixiy, ham iqtisodiy zarurat bo‘lib qoldi.

Bozor iqtisodiyoti ham qator kamchiliklardan xoli emas, albatta. Insoniyat tarixi bunga guvohlik berib turibdi. Bozor iqtisodiyoti davlatning iqtisodiyotga aralashuvini inkor etgani holda, jamiyat boylar va kambag‘allarga ajralishiga, mulkning ozchilik qo‘lida to‘planishiga,

katta-katta monopolchi korxonalar vujudga kelishiga va jamiyatdagi ijtimoiy va iqtisodiy muvozanatning beqarorlashuviga zamin yaratdi. Bozor iqtisodiyotining inflatsiya va ishsizlikka qarshi samarali kurasha olmasligi ma'lum bo'lib qoldi. Bularning barchasiga qaysidir darajada barham beruvchi kuchga, davlatning iqtisodiyotni tartibga solib turish faoliyatiga ehtiyoj paydo bo'ldi. Davlatning iqtisodiy hayotga aralashuvi ijobiy holat sifatida e'tirof etildi. Davlatga jamiyatda iqtisodiy qonun-qoidalarning amal qilishi uchun zarur shart-sharoitlar hozirlash, ularning bajarilishini nazorat qilish, iqtisodiyotni tartibga solib turish, bozor tizimini muhofaza qilish kabi vazifalar yuklatildi. Davlat bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotning asosiy ishtirokchilaridan biriga aylandi. Bozor iqtisodiyotining mantiqiy davomi bo'lmish aralash iqtisodiyotga yo'l ochildi.

Aralash iqtisodiyot jamiyat a'zolarining kam ta'minlangan qismini ijtimoiy himoya qilishga, ommaviy farovonlikni ta'minlashga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Mamlakatimizda kechayotgan bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni deganda, biz xuddi shu sifatlarga ega bo'lgan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga, ya'ni aralash iqtisodiyotga o'tishni tushunamiz.

Jon Meynard Keyns
(1883 — 1946)

Iqtisodiyot ilmida tub burilish yasagan, davlatning iqtisodiyotni barqarorlashtirishdagi rolini asoslab bergan mashhur ingliz amaliyotchi olimi.

Keyns iqtisodiy tanglik yuzaga kelgan paytda davlat aralashuvisiz vaziyatni o'nglash qiyin ekanligini asoslab berdi. U o'zining "Ish bilan ta'minlash, foizlar va pullarning umumiy nazariyasi" kitobida iqtisodiyotda talab bilan taklif muvozanatiga erishilgan taqdirda ham ishsizlik mavjud bo'lishini, ishsizlikni kamaytirish va yangi ish o'rinlarini yaratish uchun davlat tomonidan talabni ko'paytirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rilishi zarur ekanligini isbotlagan.

Bu qarash Adam Smitning "bozor davlatning aralashuvisiz ham talab va taklif ("ko'rinmas qo'l") vositasida barqaror faoliyat ko'rsata oladi" degan fikriga ko'p jihatdan ziddir.

Biroq hozirgi davrda ham Keynsning ushbu g'oyasi o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Shuning uchun ham Keynsni iqtisodiyotga XX asr sari yo'l ochgan nazariyachi deb ataydilar.

Mashq

Faraz qilaylik, siz mebel fabrikasining direktorisiz. Siz uchun markazlashgan rejali iqtisodiyot, bozor iqtisodiyoti, aralash iqtisodiyotlardan qay birida faoliyat yuritish osonroq bo‘lar edi? Qaysi sharoitda o‘z ishingizga qiziqishingiz kuchliroq bo‘lar edi? Javoblaringizni asoslang.

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

1. Bozor iqtisodiyoti tizimi — “Nima?” “Qanday?” va “Kim uchun?” degan savollarga qay tarzda javob berishini tushuntirib bering. Bozor iqtisodiyotining asosiy xususiyatlarini sanang.
2. Erkin iqtisodiy faoliyat deganda nimani tushunasiz?
3. Bozor iqtisodiyotida xususiy mulkchilikning roli qanday?
4. Nima sababdan monopoliya bozor iqtisodiyotiga zid keladi?
5. Nima sababdan deyarli barcha dunyo mamlakatlari bozor iqtisodiyotini tanlashdi?
6. Sof bozor iqtisodiyoti bo‘lishi mumkinmi? Nega?
7. Aralash iqtisodiyot sharoitidagi davlatning roli nimalardan iborat bo‘lishi kerak deb o‘ylaysiz? Javobingizni asoslang.
8. Sof bozor iqtisodiyoti hal qila olmaydigan iqtisodiy muammolarni sanang. Bu muammolarni yechishning qanday yo‘llari mavjud?
9. O‘zingiz bilgan tadbirkor faoliyati misolida bozor iqtisodiyotining asosiy xususiyatlarini tushuntirib berishga harakat qiling.
10. Bozor iqtisodiyoti va aralash iqtisodiyotning afzallik va kamchilik tomonlarini o‘zaro taqqoslang.

Buni yodda tuting!

- Bozor iqtisodiyoti sharoitida Nima? Qanday? Kim uchun? ishlab chiqarish kerak degan iqtisodiyotning uch muhim savoliga, asosan, bozor javob beradi.
- Bozor iqtisodiyotining asosiy xususiyatlari quyidagilar: a) erkin iqtisodiy faoliyat; b) xususiy mulkchilik; d) erkin narxlar; e) iqtisodiy manfaatdorlik va foyda olishga bo‘lgan intilish; f) monopoliyani rad etish; g) raqobat.
- Aralash iqtisodiyot iqtisodiy tizimlarning barcha ijobiy tomonlarini o‘zida mujassamlashtirgan xo‘jalik yuritish tizimi bo‘lib, uni odatda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti deb ham atashadi.

27- MAVZU

O‘ZBEKISTON BOZOR IQTISODIYOTI SARI

2017–2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi

I. Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari

II. Qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari



IV. Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari

III. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari

V. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar

FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

Harakatlar strategiyasining har bir ustuvor yo‘nalishi matnini o‘rganib chiqing. O‘rganganlaringiz asosida:

1. Globallashuv sharoitida xalqaro miqyosda raqobat kuchayib, jahon bozoridagi iqtisodiy munosabatlar murakkablashib borayotganligini e’tiborga olgan holda Harakatlar strategiyasining qabul qilinishining zarurati haqida o‘z fikringizni bildiring.
2. III ustuvor yo‘nalish — iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish bo‘yicha amalga oshiriladigan ishlarning muhimligi va dolzarbligi bo‘yicha fikringizni bayon qiling.
3. Harakatlar strategiyasining IV- ustuvor yo‘nalishini amalga oshirish uchun avvalambor III ustuvor yo‘nalishni amalga oshirish muhimligini asoslang. Bunda ijtimoiy sohani rivojlantirish doimo katta mablag‘larni talab qilishini e’tibordan qochirmang.
4. Harakatlar strategiyasining I, II, V ustuvor yo‘nalishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ham III ustuvor yo‘nalish muvaffaqiyatining ahamiyatli ekanligini asoslab berishga harakat qiling.

1991- yil respublikamiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritib, sobiq ittifoq istibdodidan xalos bo‘ldi. Endi xalqimiz oldida mustaqillik poydevorini mustahkamlash, hur va erkin fuqarolik jamiyatini qurishdek mas’uliyatli vazifa turar edi. Ushbu vazifani bajarishning birdan-bir yo‘li – bu bozor iqtisodiyotiga o‘tish edi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishda O‘zbekistonning milliy, o‘ziga xos xususiyatlarini o‘zida aks etgan bozor iqtisodiyotiga o‘tishning besh tamoyili asos qilib olindi.

Quyida shu tamoyillarni keltiramiz:

1. Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi.
2. Davlat — bosh islohotchi.
3. Qonunlar va ularga rioya qilishning ustuvorligi.
4. Faol ijtimoiy siyosat yuritish.
5. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tish.

Ushbu tamoyillardan kelib chiqib, respublikamizda shu o‘tgan vaqt ichida juda katta o‘zgarishlar amalga oshirildi. Respublikamizda bozor munosabatlariga asoslangan milliy iqtisodiyot asoslari yaratildi. Bunga misol qilib, mulkchilik, qishloq xo‘jaligi, moliya-kredit, tashqi iqtisodiy aloqalar va ijtimoiy sohadagi amalga oshirilgan islohotlarni keltirish mumkin. Bu islohotlar mamlakatimizda bozor munosabatlarini shakllantirish uchun zamin bo‘lib xizmat qildi. Xususan:

Mulkchilikni isloh qilish sohasida ayrim davlat mulklari xususiylashtirilib, jamoa yoki xususiy mulkka aylantirildi.

Qishloq xo‘jaligidagi islohotlar odamlarga yerdan bepul foydalanish, shaxsiy tomorqalar uchun yer maydonlarining kengaytirilishi, fermer va dehqon xo‘jaliklarining tuzilishi bilan amalga oshirildi.

Moliya-kredit sohasidagi islohotlar respublikamiz o‘z valutasini muomalaga kiritishi, qator tijorat banklarining ochilishi, qimmatli qog‘ozlar bozorining tashkil qilinishi orqali amalga oshirildi.

Tashqi iqtisodiy aloqalardagi islohotlar respublikamizning tashqi iqtisodiy aloqalarini bir qadar erkinlashtirishga qaratildi.

Ijtimoiy sohadagi islohotlar o‘tish davrida vujudga keladigan turli noxush holatlardan aholini himoya qilishga qaratildi.

So‘nggi ikki yil O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun tub islohotlar boshlanishi davri bo‘ldi. Mamlakatimiz iqtisodiyotida mavjud bo‘lgan, lekin foydalanilmayotgan ulkan imkoniyatlarni ishga solish dolzarb vazifa sifatida qo‘yildi. Buning uchun oldingi yillarda yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni tan olib, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga jadallik bilan kirishildi. Bu islohotlar natijasida qisqa davr ichida mamlakatimiz iqtisodiyotida quyidagi o‘zgarishlar ro‘y berdi:

- mamlakat iqtisodiy ko‘rsatkichlari haqqoniylashtirildi. Ya’ni, yillik iqtisodiy o‘sishning 8% dan ortiq deb ko‘rsatilishi noreal, haqiqatdan yiroq deb tan olindi va real iqtisodiy ko‘rsatkichlar keltirildi. Bu ko‘rsatkichlarning shaffofligi ta’minlandi;

- ilgarigi davrda O‘zbekistonga xos bo‘lgan global tizimdan ajralib, yakkalanishga qaratilgan iqtisodiy siyosatdan voz kechildi va iqtisodiyotimizni jahon global iqtisodiy tizimiga integratsiyalash bo‘yicha jadal harakatlar boshlab yuborildi;

- iqtisodiyotga davlat aralashuvini minimallashtirish bo‘yicha choralar ko‘rila boshlandi;

- valuta bozorini liberallashtirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirildi. Natijada qisqa vaqt ichida valutani erkin konvertatsiyalash yo‘lga qo‘yildi;

- tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va tadbirkorlar faoliyatiga mavjud to‘siqlarni olib tashlash bo‘yicha tizimli choralar belgilandi;

- bojxona to‘lovlari sezilarli darajada kamaytirildi;

- tashqi iqtisodiy faoliyat bo‘yicha to‘siqlar olib tashlandi;

- chet mamlakatlar, eng avvalo qo‘shni mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarni yaxshilash bo‘yicha keskin choralar ko‘rildi;

- tub soliq islohotlari boshlab yuborildi;

- pul muomalasi sohasidagi islohotlar natijasida naqd va naqdsiz pul qiymatlari orasidagi farq yo‘q qilindi.

Shuningdek, bank sohasidagi, ma’muriy sohadagi, raqobat muhitini yaxshilash sohasidagi, davlat buyurtmalarining bozordagi o‘rni bo‘yicha islohotlarga ham turtki berildi.

Yuqorida sanalgan va yana bir qator boshqa yo‘nalishlardagi islohotlarni tizimli ravishda amalga oshirish maqsadida *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017–2021- yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi* ilgari surildi.

Harakatlar strategiyasiga kirgan beshta ustuvor yo‘nalishdan negizgisi deb 3- ustuvor yo‘nalish – Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlarini qarash mumkin. Chunki faqat mustahkam iqtisodiy asos, poydevor mavjud bo‘lsagina boshqa to‘rtta ustuvor yo‘nalishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkin bo‘ladi.

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish mobaynida davlatimiz tomonidan quyidagi vazifalarga alohida e’tibor qaratilmoqda:

- iqtisodiyot tarmoqlariga investitsiyalar miqdorini keskin oshirish. Ayniqsa xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish;

- davlat kompaniyalari boshqarish tizimini tubdan isloh qilish;
- davlat mulkini xususiylashtirish bo‘yicha yangicha yondashuvga asoslangan faoliyatni yo‘lga qo‘yish;
- qimmatli qog‘ozlar bozorini isloh qilish;
- agrar sohadagi islohotlarni yanada jonlantirish;
- bank-kredit, soliq, bojxona sohalaridagi islohotlarni davom ettirish;
- raqamli iqtisodiyot sohasini rivojlantirish;
- iqtisodiyotdagi innovatsiyalarning, zamonaviy texnologiyalarning rolini kuchaytirish.

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

1. Harakatlar strategiyasi yo‘nalishlarini sanab bering.
2. Harakatlar strategiyasi III qismidagi yo‘nalishlarning qolgan 4 ta qismlardagi yo‘nalishlar bilan qanday bog‘liqligi bor?
3. Harakatlar strategiyasining dolzarbligi nimada?
4. Harakatlar strategiyasining ahamiyati to‘g‘risida nima deya olasiz?
5. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish mobaynida davlatimiz tomonidan qanday vazifalarga eng katta ahamiyat berilmoqda?
6. Harakatlar strategiyasining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi sizning oilangiz tinchligi, farovonligi va baxt-saodati uchun qay darajada ahamiyatli ekanligi haqida fikringizni bildiring.

Buni yodda tuting!

- Harakatlar strategiyasi mamlakatimiz hayotining barcha jabhalarini qamrab oladi.
- Harakatlar strategiyasi 5 ta qism (yo‘nalish)ga bo‘lingan.
- Undagi III qism (yo‘nalish) iqtisodiy sohani rivojlantirish va liberallashtirishga bag‘ishlangan.
- Iqtisodiyot sohasining rivoji mamlakatimiz hayotining barcha jabhalari rivojlanishi uchun poydevor bo‘lib hizmat qiladi.

Topshiriq

“Harakatlar strategiyasi hayotimizda” mavzusida referat tayyorlang. Referatni tayyorlash mobaynida harakatlar strategiyasini diqqat bilan o‘rganib chiqing. Uning har bir yo‘nalishi o‘zimiz, yaqinlarimiz va atrofdagilarning hayotiga, turmushiga, mehnat faoliyatiga qanday va qay darajada ta’sir o‘tkazishi mumkinligini bayon qiling.

V BOBNI TAKRORLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

A. SAVOLLAR

1. Nima sababdan bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatsiz iqtisodiyot rivojlanmaydi?
2. Ishlab chiqaruvchi (sotuvchi)lar orasidagi raqobat natijasida iste'molchilar qanday naf ko'rishadi?
3. Monopoliyaning qanday iqtisodiy zararlari bor?
4. Iqtisodiyotda monopoliyalarning mavjud bo'lishi har doim ham yomon oqibatlarga olib keladimi?
5. O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishidan maqsad nima?
6. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning besh tamoyili haqida gapirib bering.
7. Bozor iqtisodiyotiga o'tishda davlatning roli haqida nimalar bilasiz?
8. Mamlakatimiz ijtimoiy siyosatining mohiyati nimada?
9. O'tgan davr mobaynida respublikamizda bozor iqtisodiyotiga o'tish borasida qanday islohotlar amalga oshirildi?

B. TOPSHIRIQLAR

Har bir atamaga mos talqinni toping.

ATAMALAR:

1. Bozor iqtisodiyoti.
2. Raqobat.
3. Narxlar vositasisiz raqobatlashish.
4. Narxlar vositasida raqobatlashish.
5. Aralash iqtisodiyot.
6. Monopoliya.
7. Oligopoliya.
8. Sof raqobat bozori.
9. Iqtisodiy tizim.

TALQINLAR:

a) bozor iqtisodiyoti va markazlashgan rejali iqtisodiyotning maqbul tomonlarini o'zida mujassamlashtirgan zamonaviy iqtisodiy tizim;
b) xususiy mulkchilikka asoslangan, barcha iqtisodiy yechimlar bozor mexanizmi yordamida aniqlanadigan iqtisodiy tizim;
d) jamiyat (mamlakat) iqtisodiy hayotini tashkil qilish shakli;
e) tovar yakka ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchi tomonidan sotiladigan, boshqa sotuvchilarning kirishi o'ta qiyin bo'lgan bozor holati;

f) muayyan tovar turi juda ko‘p sotuvchilar tomonidan sotiladigan, boshqa sotuvchilarning kirishi oson, narxlar erkin bo‘lgan bozor;
g) tovar narxini o‘zgartirmasdan, uning sifatini yaxshilash, reklamani kuchaytirish kabi omillar orqali raqobatchilarga ta’sir ko‘rsatish;
h) bir nechta yirik korxona va firmalarning monopoliyasidan iborat bo‘lgan bozor holati;
i) tovar narxi yordamida raqobatchilarga ta’sir ko‘rsatish;
j) iqtisodiyotda faoliyat ko‘rsatuvchi tomonlar manfaatlarining to‘qnashuvidan yuzaga keladigan o‘zaro kurash.

D. TESTLAR

1. Noto‘g‘risini toping.
Sof raqobat bozorida ...
A. sotuvchi tovar narxini o‘zi bilganicha o‘zgartira olmaydi.
B. sotuvchilar o‘rtasida yengil raqobat mavjud bo‘ladi.
D. sotuvchi tovar narxini xohlagancha o‘zgartira oladi.
E. sotuvchilar sonining keskin ortib ketishi tovarlar narxining pasayishiga olib keladi.

2. Oligopol bozorda ...
A. sotuvchi yagona bo‘ladi.
B. tovarlar har xil bo‘ladi.
D. narxni, asosan, yirik va kuchliroq firmalar belgilaydi.
E. raqobat bo‘lmaydi.

3. Monopol bozorda ...
A. bir xil tovarlar sotiladi.
B. monopol sotuvchilar ko‘p bo‘lib, o‘zaro raqobat qiladilar.
D. sotuvchi bitta bo‘ladi.
E. xaridor bitta bo‘ladi.

4. Sotuvchilar raqobatlashishi natijasida ...
A. tovar narxi ko‘tariladi.
B. tovar turlari ko‘paymaydi.
D. tovar narxi tushadi.
E. tovar sifati tushib ketadi.

5. Tovarga bo‘lgan talab miqdori taklif miqdoridan baland bo‘lganda, kimlar o‘rtasida raqobat vujudga keladi?
A. Xaridorlar.
B. Sotuvchilar.
D. Sotuvchilar bilan xaridorlar.
E. Ishlab chiqaruvchilar bilan xaridorlar.

6. Sotuvchilar o‘rtasidagi raqobat natijasida tovarlar ...

A. sifati yomonlashadi, narxi oshadi.
B. narxi o‘zgarmaydi, sifati yomonlashadi.
D. turi ko‘payishi mumkin.
E. narxi tushadi, sifati esa yaxshilanadi.

7. Noto‘g‘risini toping.

A. Bozor iqtisodiyotida monopoliya mavjud bo‘lmaydi.
B. Davlat monopoliyalarga ta’sir o‘tkaza oladi.
D. Davlat monopoliyasi ham mavjud bo‘lishi mumkin.
E. Turli cheklovlar natijasida ham monopoliya vujudga kelishi mumkin.

8. Noto‘g‘risini toping.

A. Sotuvchilar raqobatlashishi natijasida narx pasayadi.
B. Xizmat ko‘rsatish sohasida raqobat bo‘lmaydi.
D. Xaridor bilan xaridor raqobatlashishi mumkin.
E. Xaridorlar raqobatlashishi natijasida narx ko‘tariladi.

9. Qaysi bandda bozorlar nomlari monopollashish darajasining o‘sishi tartibida joylashtirilgan?

A. Sof raqobat, oligopol raqobat, monopol raqobat, sof monopol bozor.
B. Sof raqobat, monopol raqobat, sof monopol, oligopol raqobat bozori.
D. Sof raqobat, monopol raqobat, oligopol raqobat, sof monopol bozor.
E. Monopol raqobat, sof monopol, oligopol raqobat, sof raqobat bozori.

10. Raqobat muhiti bo‘lishi uchun qanday sharoitlar bo‘lishi kerak?

A. Sotuvchilar va xaridorlarning ko‘p bo‘lishi.
B. Tovar narxiga hech qaysi firma ta’sir o‘tkaza olmasligi.
D. Bozorga kirishga hech qanaqa to‘siqlarning bo‘lmasligi.
E. Yuqoridagilarning barchasi.

11. Quyidagi xususiyatlarning qaysi biri bozor iqtisodiyotiga xos emas?

A. Tadbirkorlik.
B. Xususiy mulkchilik.
D. Monopoliyani qo‘llab-quvvatlash.
E. Raqobat.

Soliq yukini kamaytirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish iqtisodiyotni rivojlantirishning eng muhim omillaridan biridir.

Shavkat Mirziyoyev

VI bob. Soliq tizimi

28- MAVZU SOLIQLAR VA ULARNING TURLARI



FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Soliqlar davlat tomonidan undiriladigan, qonunda ko‘rsatilgan majburiy to‘lovlardir. Mamlakatimiz fuqarolari soliq to‘lovchi sifatida davlatga to‘laydigan qanday soliqlarni bilasiz?
2. Soliqlarni to‘lash majburiy ekanligi, to‘g‘rimi yoki noto‘g‘ri?
3. Soliq to‘lovlari ularni to‘lovchilarga qanday ko‘rinishlarda qaytib keladi?
4. Soliqlarning to‘lanishidan birinchi navbatda kim manfaatdor?

Soliq — fuqaro, firma va korxonalardan davlat budjetiga undiriladigan, qonunda ko‘rsatilgan majburiy to‘lovdir. Soliqlar davlat budjetining asosiy daromad manbai hisoblanadi.

Soliq — fuqaro, firma va korxonalardan davlat xazinasiga undiriladigan, qonunda ko‘rsatilgan majburiy to‘lov.

Mamlakatda soliqlarni joriy etishdan maqsad:
— ijtimoiy tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishni pul bilan ta’minlash;

— aholi daromadlarini qayta taqsimlash;
— ba'zi ishlab chiqarish sohalarini qo'llab-quvvatlashdan iborat.

Davlat jamiyat oldidagi qator ijtimoiy vazifalarni o'z zimmasiga olar ekan, unga katta miqdordagi pul mablag'lari zarur bo'ladi. Shu bois, davlat ko'rsatiladigan xizmatlar uchun o'z fuqarolari, firma va korxonalardan soliq ko'rinishidagi to'lov undiradi. Demak, mamlakat fuqarosi sifatida har birimiz bizga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat, ta'lim, mudofaa xizmati, jamoat tartibini saqlash kabi xizmatlar uchun davlatga soliq ko'rinishida haq to'lar ekanmiz.

Ikkinchi tomondan, davlat muayyan sohada faoliyat ko'rsatayotgan firma va korxonalar to'laydigan soliqlar miqdorini kamaytirib, ularga ma'lum soliq imtiyozlari berishi mumkin. Bu esa korxonalar faoliyatini rag'batlantirib, ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmining oshishiga olib kelishi mumkin. Demak, soliqlar yordamida davlat korxonalar iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirib turishi mumkin ekan.

Shuningdek, davlat aholining kam ta'minlangan qatlamlaridan kamroq, boy tabaqalaridan ko'proq soliq undirib, aholi daromadlarining qayta taqsimlanishiga hissa qo'shishi mumkin.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar davlat budjetiga yoki davlatning maqsadli jamg'armalariga kelib tushadi. Soliqdan tushgan mablag'lar ta'lim, sog'liqni saqlash, huquqni muhofaza qilish tizimlari, davlat boshqaruv organlari ehtiyojlariga, qarilik pensiyalari va boshqa to'lovlarni amalga oshirishga yo'naltiriladi.

Mamlakatimizda soliq va boshqa majburiy to'lovlar O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi deb ataluvchi huquqiy hujjat asosida belgilanadi. Soliq va boshqa majburiy to'lovlarni belgilash, joriy etish, hisoblash hamda davlat xazinasiga va maqsadli jamg'armalariga to'lash bilan bog'liq munosabatlar O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi asosida amalga oshiriladi.

Soliq kodeksi soliqqa tortish to'g'risidagi barcha qonun hujjatlarining asosini tashkil qiladi va soliq munosabatlarini tartibga solib turadi.

Iqtisodiy huquq asoslari

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar ushbu kodeks bilan belgilanadi, o'zgartiriladi yoki bekor qilinadi.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, 2- modda

Soliq munosabatlariga oid barcha rasmiy hujjatlar Soliq kodeksiga zid bo'lmasligi lozim. O'zbekistonda hozirgi kungacha soliq stavkalarini

belgilash Soliq kodeksida emas, balki O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori orqali har yilga alohida belgilab kelindi. Undan tashqari turli qonun osti hujjatlar orqali soddalashtirilgan soliqqa tortuvchi faoliyat turlari, aksizga tortiluvchi tovarlar kabi ro‘yxatlar tasdiqlanib turilar edi. Shuning uchun ham Soliq kodeksidan boshqa ayrim huquqiy hujjatlar ham soliq qonunchiligining muhim tarkibiy qismi deb ta’kidlash joiz.

Soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining qabul qilinishi mamlakatimiz soliq tizimida ulkan o‘zgarishlar qilinishiga sabab bo‘ldi. 2019- yil boshidan O‘zbekiston soliq qonunchiligiga o‘nlab o‘zgarishlar kuchga kirdi. Bu o‘zgarishlarga sabab mamlakatimiz o‘z rivojlanishining yangi – jadal bosqichiga o‘tganligidadir. Hozirgi davrdagi yangicha zamonaviy talablarga yangi *"Soliq kodeksi"* javob beradi.

Mamlakatimizdagi mavjud soliq qonunchiligi asosida fuqarolar va korxonalar tomonidan to‘lanadigan soliq turlariga quyidagilar kiradi: foyda solig‘i, daromad solig‘i, aksiz solig‘i, mol-mulk solig‘i, yer solig‘i, qo‘shilgan qiymat solig‘i, tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to‘lanadigan soliq va boshqalar.

Soliqlardan tashqari soliqlarga tenglashtirilgan ayrim majburiy to‘lovlar ham bor-ki ularni to‘lash ham soliq to‘lovchilar uchun majburiydir. Ularga quyidagilar kiradi: ijtimoiy to‘lov, fuqarolarning budjetdan tashqari jamg‘armalarga sug‘urta badallari, budjetdan tashqari sug‘urta jamg‘armalariga majburiy ajratmalar, davlat boji, bojxona to‘lovlari, turli yig‘imlar va h.k.

Soliqlar bevosita va bilvosita soliq turlariga bo‘linadi. Fuqaro va korxonalardan bevosita davlat xazinasiga undiriladigan soliqlar *bevosita soliqlar* deb ataladi. Korxona foydasi (daromadi)dan olinadigan soliq, yer solig‘i, daromad solig‘i kabilar bevosita soliqlar jumlasiga kiradi.

Bevosita soliq — fuqaro va korxonalardan bevosita davlat xazinasiga undiriladigan soliq.

Fuqarolar tomonidan to‘g‘ridan to‘g‘ri davlatga emas, balki avvaliga muayyan tovarlarni sotuvchi korxonalarga to‘lanadigan, so‘ng esa korxona tomonidan davlatga o‘tkaziladigan soliqlar *bilvosita soliqlar* deb ataladi. Bilvosita soliqlarga qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i kabilar kiradi.

Davlat fuqarolaridan, ya’ni jismoniy shaxslardan daromad solig‘i, mol-mulk solig‘i va yer solig‘i undiradi.

Bilvosita soliq — fuqarolar tomonidan avvaliga muayyan tovarlarni sotuvchi korxonalarga to‘lanadigan, so‘ng korxona tomonidan davlatga o‘tkaziladigan soliq.

Shuni ham aytib o‘tish kerakki, ba’zi soliqlar to‘g‘ridan to‘g‘ri davlat xazinasiga kelib tushadi. Bunday soliqlar *davlat soliqlari* deb ataladi. Davlat soliqlariga qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i, korxonalar foydasi (daromadi)dan olinadigan soliqlar, fuqarolardan olinadigan daromad solig‘i kabilar kiradi.

Mahalliy hokimiyat, viloyat, tuman boshqaruv organlari ixtiyoriga beriladigan soliq turlari *mahalliy soliqlar* deb yuritiladi. Bunday soliq turlariga yer solig‘i, mol-mulk solig‘i kabi soliqlar va qator mahalliy yig‘imlar hamda soliqdan tashqari ba’zi majburiy to‘lovlar kiradi.

Bilasizmi?

Mamlakatimizda ikki va undan ortiq daromad manbayiga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar har yili 1- aprelgacha o‘tgan yil uchun soliq deklaratsiyasini to‘ldirib, soliq inspeksiyalariga topshirishlari shart. Deklaratsiyada o‘tgan yilgi barcha daromadlar va undan to‘langan soliq miqdori ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak.

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

1. Soliqlarni joriy qilishdan maqsad nima?
2. Soliqlar yordamida qanday qilib aholi daromadlari qayta taqsimlanadi?
3. Korxonalardan qanday soliqlar olinadi? Fuqarolardan-chi?
4. Bevosita va bilvosita soliqlarning bir-biridan farqi nimada?
5. Soliqlarni to‘la hajmda va vaqtida to‘lash shartmi?
6. Har bir soliq to‘lovchi luqmasi halol bo‘lishi uchun, avvalambor, nima qilishi zarur, deb o‘ylaysiz?
7. Davlat soliqdan to‘plangan mablag‘larni qanday maqsadlarga yo‘naltiradi?

Buni yodda tuting!

- Davlat budjetining asosiy manbai hisoblangan soliqlarsiz, davlat o‘z vazifalarini to‘laqonli bajara olmaydi.
- Soliqlar davlat tomonidan fuqaro va firmalardan majburiy tarzda undiriladi.
- Soliqlarning bevosita va bilvosita turlari mavjud.

29- MAVZU

SOLIQQA TORTISH ASOSLARI

FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Rasmdagilardan soliq to‘lashi lozim bo‘lgan shaxslarni ajratib ko‘rsating.
2. Rasmlardagi narsalardan qaysilari uchun uning egasi soliq to‘lashi kerak deb o‘ylaysiz?
3. Soliq to‘lashi lozim bo‘lgan va soliq to‘lamasligi kerak bo‘lgan odam bir-biridan nimasi bilan farqlanishi kerak deb o‘ylaysiz?
4. To‘plangan soliqlardan eng avvalo naf ko‘ruvchi shaxslarni yuqoridagi rasmlardan ko‘rsating va bunday deb o‘ylashingiz sababini tushuntiring.

Soliq to‘g‘risidagi barcha qonun hujjatlari quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

– *majburiylik*, bu tamoyilga asosan, soliqlar barcha fuqarolar uchun majburiy to‘lov hisoblanadi;
– *aniqlilik* tamoyiliga ko‘ra, soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni qachon, qancha miqdorda hamda qay tartibda to‘lash tushunarli tarzda ifodalangan bo‘lishi lozim;

– *adolatlilik* tamoyiliga asosan, soliq solish umumiy bo‘lib, soliq tizimida imtiyozlarni belgilashda ijtimoiy adolat tamoyillariga rioya qilinadi;
– *yagonalik* tamoyiliga ko‘ra, soliq tizimi O‘zbekistonning butun hududida barcha soliq to‘lovchilarga nisbatan yagona hisoblanadi;
– *oshkoralik* tamoyiliga ko‘ra, soliq solish masalalarini tartibga soluvchi har qanday me’yoriy-huquqiy hujjatlar rasmiy nashrlarda e’lon qilinishi shart;
– *soliq to‘lovchining haqligi* tamoyiliga ko‘ra, soliqqa oid hujjatlarda aniqlangan noaniqliklar soliq to‘lovchi foydasiga hal qilinadi.

Soliq munosabatlarida ikki tomon — soliq to‘lovchilar va soliq undiruvchilar qatnashadi. Soliq undiruvchi tomon ham soliq munosabatlari subyekti hisoblanib, unga davlat tomonidan soliq undirishga vakolat berilgan organlar kiradi. Davlat soliq xizmati, bojxona, moliya tashkilotlari davlatning vakolatli organlari hisoblanadi. Soliq obyekti deb, soliq to‘lash lozim bo‘lgan daromad, mol-mulk yoki tovarga aytiladi.

Amalda soliq to‘lovi soliq obyektiga qaratilgan bo‘ladi. Soliq obyekti egasi esa bu soliqni to‘lashi lozim bo‘ladi. Soliqning jami miqdori soliq solish stavkasiga bog‘liq. Soliq solinadigan obyektlar daromad, mulk yoki tovarlar turli o‘lchov birliklarida o‘lchanadi. Masalan, daromad va foyda — pul birligida, yer maydoni — kvadrat metrda, tovar — donalarda o‘lchanadi.

Har bir soliqqa tortiladigan obyekt turiga davlat tomonidan alohida soliq sifatida to‘lanishi lozim bo‘lgan miqdor belgilanadi. Bu miqdor *soliq stavkasi* deb yuritiladi.

Soliq subyektlari — soliq to‘lovchilar va soliq undiruvchilar.

Soliq obyekti — soliqqa tortish lozim bo‘lgan daromad, mol-mulk yoki tovar.

Soliq stavkasi, qat’iy – pul birligida, nisbiy – foizlarda berilishi mumkin. Masalan, ilgargi yillarda avtotransport egalari sotib olgan har bir litr benzini uchun ma’lum miqdorda qat’iy soliq to‘lashgan. Qo‘shilgan qiymat solig‘i esa jami yaratilgan qo‘shimcha qiymat narxining 20 foizi miqdorida, ya’ni nisbiy stavkada belgilangan.

Soliq stavkalari soliqqa tortiladigan daromad obyektining miqdoriga ko‘ra: *proporsional, progressiv, regressiv* turlarga bo‘linadi.

*Proporsional soliq stavkasi*da soliqqa tortilayotgan obyekt qanday bo‘lishidan qat’i nazar bir xil ulushda soliq to‘lanadi. Masalan,

2019- yil 1- yanvardan boshlab korxonaning mol-mulki qiymati ko‘p yoki kam bo‘lishidan qat’i nazar undiriladigan mol-mulk solig‘i stavkasi 2% ni tashkil qiladi.

Soliq stavkasi — soliq obyektining har bir birligi uchun davlat tomonidan belgilangan me’yor.

*Progressiv soliq stavkasi*da daromad obyekti ko‘payishi bilan soliq stavkasi ham oshib boradi. Bu soliq stavkasi 2019- yilgacha mamlakatimizda faqat jismoniy shaxslar daromadidan undiriladigan soliqda qo‘llanilar edi. 2019- yil 1- yanvardan boshlab bu soliq stavkasi ham o‘zgarmas 12% stavkasiga almashtirildi.

*Regressiv soliq stavkasi*da esa daromad oshib borishi bilan soliq stavkasi kamayib boradi.

Soliq to‘lovchi deganda nafaqat odamlar – fuqarolar, balki korxonalarni ham tushunish mumkin. Chunki ularning har biridan alohida undiriladi. Fuqarolar va korxonalar to‘laydigan soliqlar bir-biridan farq qiladi.

Quyida ular to‘laydigan soliqlar turlarini keltiramiz.

Davlat fuqarolardan, ya’ni jismoniy shaxslardan daromad solig‘i, mol-mulk solig‘i va yer solig‘ini undiradi.

Korxonalardan, ya’ni yuridik shaxslardan olinadigan soliq turlariga: korxona foydasi (daromadi)dan to‘lanadigan soliq, aksiz solig‘i, korxona mol-mulkidan to‘lanadigan soliq, yer solig‘i, qo‘shilgan qiymat solig‘i, tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to‘lanadigan soliq va boshqalar kiradi. Respublikamiz qonunlariga muvofiq tashkil etilgan korxonalar, firmalar, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish muassasalari *yuridik shaxslar* hisoblanadi.

Bilasizmi?

O‘zbekiston Respublikasining 24- dekabr 2018- yil “Soliq va budjet siyosatining 2019- yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun asosida mavjud "Soliq kodeksi"ning o‘nlab moddasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi, bir nechta modda esa umuman chiqarib yuborildi.

Jismoniy shaxs — O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar.

Yuridik shaxs — O‘zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq tashkil etilgan korxonalar, firmalar, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish muassasalari.

Amir Temur

(1336—1405)

Sohibqiron Amir Temur o‘z saltanatida juda ham samarali soliq tizimini shakllantirgan. U yurtdagi soliq siyosati adolatli bo‘lishiga katta e’tibor bergan. “Temur tuzuklari”da soliq haqida shunday yozadi: “Xirojni yig‘ish vaqtida ikki vazir tayinlansin. Biri to‘plangan molni yozib, raiyat ahvolini tekshirib tursin, boj oluvchilar fuqaroga zulm qilib, ularning ahvoliga zarar yetkazmasinlar. Viloyatlarda yig‘ilgan tamom mol-ashyoni kirim daftariga yozishlari lozim. Ikkinchi vazir esa chiqim daftariga yozib, yig‘ilgan mollarni sipoh maoshiga taqsim qilsin”.

Amir Temur davlati xazinasida hisob-kitob ishlari aniq yo‘lga qo‘yilgan. Bu hozirgi zamondagi davlatning budjet siyosatiga juda ham o‘xshab ketadi.

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

1. Mamlakatimiz soliq qonunchiligi hujjatlari nimaga asoslanadi?
2. Soliqqa tortishning asosiy tamoyillarini sharhlang.
3. Soliq solish subyekti va obyektining bir-biridan farqlarini ayting.
4. Soliq stavkasi nima va u qanday shakllarda qo‘llaniladi?
5. Soliq stavkasining turlarini sanang va ularga misollar keltiring.

Buni yodda tuting!

- Mamlakatimizdagi soliq tizimi majburiylik, aniqlilik, adolatlilik, yagonalik, oshkoralik va soliq to‘lovchining haqligi tamoyillariga asoslanadi.
- Soliq stavkalari soliqqa tortiladigan daromad obyektining xususiyatiga ko‘ra: proporsional, progressiv, regressiv tarzda belgilanadi.

30- MAVZU

SOLIQ TO‘LOVCHILARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. 1-2- va 4-5- rasmlarda tasvirlangan fuqarolarning soliq to‘lovchi sifatida qanday huquqlari bo‘lishi mumkinligini taxmin qilib ko‘ring.
2. 4- rasmda tasvirlangan tadbirkorning soliq to‘lovchi sifatida huquqlari buzilgan taqdirda u kimga murojaat qilishi lozim deb o‘ylaysiz?
3. 2- rasmdagi quruvchining va 5- rasmdagi tikuvchining majburiyatlari bilan 1- va 4- rasmdagi tadbirkorlarning majburiyatlari o‘rtasida qanday farq bo‘lishi mumkin? Huquqlari o‘rtasida-chi?
4. Soliq to‘lovchilarning huquqlarini kafolatlash kimning zimmasida?
5. Soliq to‘lovchining majburiyatlarini bajarishlarining 3- va 6- rasmlardagi shaxslar hayoti bilan qanday aloqasi bor deb o‘ylaysiz.

Soliq to‘lovchilar bir qator huquq va majburiyatlarga ega. Ularning huquq va majburiyatlari amaldagi Soliq kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi qonuni va soliq bo‘yicha boshqa huquqiy hujjatlarda belgilab qo‘yilgan.

Davlat soliq to‘lovchilarning huquqlarini qonun vositasida kafolatlab, soliq to‘lovchining manfaatini himoya qilish bilan bir paytda soliq tizimida ro‘y berishi mumkin bo‘lgan adolatsizliklarning oldini oladi.

Soliq to‘lovchining o‘z huquqlarini bilishi esa unga o‘z manfaatlarini himoya qilish uchun zamin yaratadi. Soliq to‘lovchilarning huquqlari davlat tomonidan kafolatlanadi.

Soliq to‘lovchilarning asosiy huquqlari quyidagilar:

– soliqqa oid masalalar bo‘yicha soliq organlaridan zarur maslahatlar va turli ma’lumotlar olish;
– davlat tomonidan belgilangan soliq imtiyozlaridan foydalanish;
– belgilanganidan ortiqcha to‘langan soliqlarni qaytarish bo‘yicha soliq organlariga murojaat qilish;
– soliq organlaridan o‘zining budjet oldida soliqlar bo‘yicha qarzi bor yoki yo‘qligi haqida zarur ma’lumotlarni olish;
– o‘zining soliq to‘lovchi sifatida huquqlari buzilgan taqdirda tegishli joylarga shikoyat qilish;
– soliqchi to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq yig‘imlarini hisoblashda xatoga yo‘l qo‘ygan bo‘lsa, shu xatolarni o‘z ixtiyori bilan mustaqil tuzatish.

Yuqorida sanab o‘tilgan huquqlarning kafolatlanishi soliq to‘lovchini osoyishtalik va ertangi kunga ishonch bilan faoliyat ko‘rsatishga imkon yaratadi. Natijada, soliq to‘lovchining faoliyatidan davlat va butun jamiyat bahramand bo‘ladi.

Har bir jismoniy yoki yuridik shaxs soliq to‘lovchi sifatida jamiyatimiz va davlatimiz oldida qator majburiyatlarni o‘z zimmasiga olishi va bajarishi shart. Chunki, soliq to‘lovchilar zimmasidagi vazifalarni bajarib, soliq to‘lovlarini o‘z vaqtida amalga oshirsa, bundan butun jamiyat manfaatdor bo‘ladi.

Soliq to‘lovchining majburiyatlari quyidagilar:

– jismoniy yoki yuridik shaxs bo‘lishidan qat’i nazar, belgilangan muddatda soliq organlarida ro‘yxatdan o‘tish;
– korxona manzili o‘zgargan paytda mahalliy soliq organlarini bu haqda o‘z vaqtida xabardor qilish;
– soliqlarning qonun bo‘yicha belgilangan miqdorini o‘z vaqtida to‘lash;
– jismoniy shaxs daromadlar to‘g‘risidagi deklaratsiyani, yuridik shaxslar esa soliqlar bo‘yicha zarur hisob-kitoblarni mahalliy soliq organlariga o‘z vaqtida taqdim qilishi;
– soliq bo‘yicha imtiyozlardan foydalanilgan taqdirda, ushbu imtiyozlar huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni mahalliy soliq organlariga o‘z vaqtida taqdim etish;
– soliq qonunchiligi buzilgan taqdirda soliq organlarining ushbu buzi-

lishni bartaraf etish bo‘yicha talablarini bajarish.

Soliq to‘lovchining yuqorida sanab o‘tilgan majburiyatlarni bajarishi soliq tizimida noqonuniy vaziyatlar ro‘y berishining oldini oladi. Uning o‘z majburiyatlarini bilishi va sidqidildan bajarishi soliq undiruvchi – davlat uchungina emas, balki soliq to‘lovchining o‘zi uchun ham juda muhimdir. Chunki, bu uning noxush vaziyatlarga tushib qolishining oldini oladi va osoyishtalikda faoliyat ko‘rsatishi uchun zamin yaratadi.

Soliq to‘lovchilar yuqorida keltirilgan majburiyatlarga rioya qilmagan taqdirda, soliq qonunchiligida ko‘zda tutilgan tartibda javobgarlikka tortiladilar.

Soliqqa oid huquqbuzarlik bir necha xil oqibatlarga olib kelishi mumkin:

Soliqlarni va majburiy to‘lovlarni o‘z vaqtida to‘lash har bir fuqaro va korxona uchun muqaddas burchdir. Intizomli soliq to‘lovchini davlat va jamiyat hurmat qiladi va har tomondan qo‘llab-quvvatlaydi. Lekin shunday jismoniy va yuridik shaxslar ham bo‘ladi-ki, ular o‘z majburiyatlariga mas’uliyatsizlik bilan yondoshadilar. Bu esa o‘z navbatida soliqqa tortish sohasidagi huquqbuzarliklarga olib keladi. Masalan, savdodagi tushumni yashirish (kamaytirib ko‘rsatish), kirim qilinmagan to‘lovlarni saqlash kabi huquqbuzarliklar bir nechta toifadagi huquqbuzarliklar deb qaralishi mumkin:

a) soliq huquqbuzarligi sifatida;
b) ma’muriy huquqbuzarlik sifatida;
d) jinoyat sifatida;
e) fuqaroviy-huquqiy xatti-harakat sifatida.

Bunda huquqbuzarlikning ko‘lami, birinchi marta yoki takroran amalga oshirilganligi, ehtiyotsizlik oqibatida yoki qasddan amalga oshirilganligi kabi holatlar inobatga olinadi.

Bu huquqbuzarliklar uchun jazo belgilanishi bilan bir paytda yashirilgan (kamaytirilgan) soliq miqdori ham, albatta undiriladi.

Ayrim hollarda huquqbuzar o‘z ixtiyori bilan zararlarni qoplaganida, u javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin.

Iqtisodiy huquq asoslari

Jismoniy shaxslarning soliqqa oid huquqbuzarliklar sodir etganligi uchun javobgarligi o‘n olti yoshdan boshlab vujudga keladi.

O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, 107- modda

Tarixga nazar

Buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy oddiy odamlarga soliq to‘lashdan bosh tortmaslikni maslahat bergan va bunday xatti-harakat “o‘z sheriklariga jafo qilishlik bilan barobardir”, degan. Alisher Navoiyning soliq haqidagi, boj-hiroj to‘lash haqidagi fikrlari mustaqil davlatimiz soliq tizimi haqidagi bilimlarning tarixiy asoslarini bilib olishga yordam berishi tabiiydir.

Amir Temur o‘z iqtisodiy qarashlarida soliq masalasiga alohida ahamiyat bergan. Sohibqiron o‘z davrida soliq siyosatini xalq manfaatidan kelib chiqqan holda amalga oshirgan. U agar aholi soliq tizimi orqali kambag‘allashib ketsa, davlat ham oqibatda kambag‘allashib boradi, aholining boy-badavlat yashamog‘i uchun adolatli soliq tizimi zarur, deb hisoblagan.

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING!

1. Soliq to‘lovchilarning qanday huquqlari bor?
2. Bu huquqlar kim tomonidan va qanday kafolatlanadi?
3. Davlat tomonidan soliq to‘lovchining huquqlari kafolatlanishining sababi nimada deb o‘ylaysiz?
4. Soliq to‘lovchining o‘z huquqlarini bilishi unga qanday vaziyatlarda asqotishi mumkin?
5. Soliq to‘lovchining majburiyatlarini sanab bering.
6. Soliq to‘lovchining majburiyatlarini sidqidildan bajarishidan kimlar manfaatdor?
7. Soliq to‘lash bo‘yicha huquqbuzarliklar uchun qanday jazo choralari qo‘llanilishi mumkin?

Buni yodda tuting!

- Davlatimiz qonunchiligi soliq to‘lovchi huquqlarini himoya qiladi.
- Soliq to‘lovchining o‘z majburiyatlarini bajarishidan butun jamiyat manfaatdor.
- Soliq to‘lovchi o‘z huquqlari va majburiyatlarini bilishi va ularga amal qilishi lozim.
- Soliq to‘lash bo‘yicha huquqbuzarlik uchun jazo muqarrardir.

VI BOBNI TAKRORLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

A. SAVOLLAR

1. Soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash soliq to‘lovchi sifatida har bir shaxs uchun ham qarz, ham farzdir, degan fikrni qanday izohlaysiz?
2. Soliq to‘lashning savob ish ekanligini asoslang.
3. Majburiy to‘lovlarning qanday turlarini bilasiz?
4. Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlardan tushgan mablag‘lar qanday maqsadlarda ishlatiladi?
5. Buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiyning soliq haqidagi fikrlari to‘g‘risida gapirib bering.
6. Soliq kodeksi haqida nimalarni bilasiz?
7. Soliqqa tortishning asosiy tamoyillarini aytib bering.
8. Soliq to‘lovining o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
9. Soliq to‘lovchilarning asosiy huquqlari va majburiyatlari haqida gapirib bering.
10. Davlat va mahalliy soliqlarning bir-biridan farqi nimada?
11. Buyuk bobokalonimiz Amir Temurning soliq to‘g‘risidagi qarashlari haqida nimalar bilasiz?
12. Soliq to‘lovchi yuridik va jismoniy shaxslarning farqini tushuntirib bering.
13. Soliqlarning qanday turlari mavjud?
14. Bevosita va bilvosita soliqlarga misollar keltiring. Ularning bir-biridan farqi nimada?

B. TOPSHIRIQLAR

Har bir atamaga mos talqinni toping.

ATAMALAR:

1. Soliq.
2. Soliq kodeksi.
3. Jismoniy shaxs.
4. Yuridik shaxs.
5. Soliq obyekti.
6. Soliq subyektlari.
7. Soliq stavkasi.
8. Soliq to‘lovchilar.
9. Vakolatli organlar.

TALQINLAR:

a) soliq to‘lash lozim bo‘lgan daromad, mol-mulk yoki tovar;
b) O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari hamda fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar;
d) soliqqa tortish to‘g‘risidagi barcha qonun hujjatlarining asosini

tashkil qiladigan va soliq munosabatlarini tartibga soluvchi hujjat;
e) soliq to‘lovchilar va vakolatli organlar;
f) fuqaro, firma va korxonalardan davlat xazinasiga undiriladigan, qonunda ko‘rsatilgan majburiy to‘lov;
g) soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni amalga oshirish majburiyati zimmasida bo‘lgan har qanday jismoniy yoki yuridik shaxslar;
h) O‘zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq tashkil etilgan, o‘z mulki bilan sudda da’vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot;
i) davlat tomonidan qonun asosida soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni undirish vazifasi qo‘yilgan va vakolati berilgan davlat organlari va tashkilotlari;
j) soliq obyektining har bir birligi uchun davlat tomonidan belgilab qo‘yilgan me’yor.

D. TESTLAR

Berilgan savolga mohiyat jihatidan eng to‘g‘ri va to‘liq javobni belgilang.

1. To‘langan soliqlar qayerga borib tushadi?
A. Nafaqa jamg‘armasiga.
B. Davlat budjetiga.
D. Korxonalar hisobiga.
E. Har hil jamg‘armalarga.

2. Soliqlardan tushgan mablag‘lar qaysi sohalarga yo‘naltiriladi?
A. Ta’lim.
B. Davlat boshqaruv organlari.
D. Sog‘liqni saqlash.
E. Barcha javoblar to‘g‘ri.

3. Soliq to‘lovlarini joriy etish, soliq stavkalarini belgilash hamda soliq to‘lash bilan bog‘liq boshqa munosabatlar qaysi qonun hujjati asosida amalga oshiriladi?
A. Fuqarolik kodeksi.
B. Soliq kodeksi.
D. Konstitutsiya.
E. Soliq qo‘mitasining qarorlari.

4. To‘g‘ridan to‘g‘ri davlat xazinasiga kelib tushadigan soliqlar qanday nomlanadi?
A. To‘g‘ri soliqlar.
B. Egri soliqlar.

D. Davlat soliqlari.
E. Mahalliy soliqlar.

5. Mamlakatimizda o‘tgan yilda ikki va undan ortiq daromad manbasiga ega bo‘lgan fuqarolar joriy yilning qaysi sanasigacha soliq deklaratsiyalarini to‘ldirib soliq inspeksiyalariga topshirishlari shart?
A. 1- yanvargacha.
B. 1- martgacha.
D. 1- aprelgacha.
E. 31- dekabrgacha.

6. Qaysi javobda soliq to‘lovchilarning huquqlaridan biri keltirilgan?
A. Soliq imtiyozlaridan foydalanish.
B. Soliq organlarida ro‘yxatdan o‘tish.
D. Soliqlarni o‘z vaqtida to‘lash.
E. Soliq deklaratsiyasini o‘z vaqtida topshirish.

7. Qaysi javobda faqat davlat soliqlari keltirilgan?
A. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i, aksiz solig‘i.
B. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i, qo‘shilgan qiymat solig‘i.
D. Yer osti va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlar.
E. Barcha javoblar to‘g‘ri.

8. Qaysi javobda faqat mahalliy soliqlar keltirilgan?
A. Mol-mulk solig‘i va aksiz solig‘i.
B. Yer solig‘i va qo‘shilgan qiymat solig‘i.
D. Mol-mulk solig‘i va yer solig‘i.
E. Qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘i.

9. Agar aholi soliq tizimi orqali kambag‘allashib ketsa, davlat ham oqibatda kambag‘allashib boradi, aholining boy-badavlat yashamog‘i uchun adolatli soliq tizimi zarur deb hisoblagan buyuk bobokalonimiz kim?
A. Alisher Navoiy.
B. Amir Temur.
D. Mirzo Ulug‘bek.
E. Zahiriddin Muhammad Bobur.

10. Qaysi javobda faqat yuridik shaxs maqomiga ega soliq to‘lovchilar keltirilgan?

A. Respublikamizdagi korxonalar va O‘zbekiston fuqarolari.
B. Chet el korxonalari va chet el fuqarosi.
D. O‘zbekiston fuqarolari va chet el fuqarolari.
E. Respublikamizdagi korxonalar va chet el korxonalari.

11. O‘zbekiston Respublikasida soliq stavkasining qaysi turlari amaliyotda qo‘llanadi?
A. Progressiv.
B. Proporsional.
D. To‘g‘ri va egri.
E. Yuqoridagilarning barchasi.

12. Qaysi javobda soliq munosabatlarining subyektlari to‘liqroq keltirilgan?
A. Soliq to‘lovchilar va vakolatli o‘rganlar.
B. Chet el fuqarolari.
D. Mamlakat fuqarolari va korxonalar.
E. Nafaqaxo‘rlar va ishchilar.

13. Qaysi javobda faqat bevosita soliqlar keltirilgan?
A. Aksiz va yer solig‘i.
B. Qo‘shilgan qiymat solig‘i va daromad solig‘i.
D. Aksiz va qo‘shilgan qiymat solig‘i.
E. Daromad va mol-mulk solig‘i.

14. Qaysi javobda faqat bilvosita soliqlar keltirilgan?
A. Aksiz va yer solig‘i.
B. Qo‘shilgan qiymat solig‘i va daromad solig‘i.
D. Aksiz va qo‘shilgan qiymat solig‘i.
E. Daromad va mol-mulk solig‘i.

15. Qaysi javoblarda soliq munosabatlarining subyektlari hisoblangan vakolatli organlar berilgan?
A. Davlat soliq xizmati organlari.
B. Bojxona organlari.
D. Moliya organlari.
E. Yuqoridagi barcha javoblarda.

BILIMINGIZNI SINAB KO‘RING

8- sinf bo‘yicha o‘tilganlarni takrorlash uchun test savollari (yakuniy nazorat ishi namunasi)

1. Tanlovning muqobil qiymati — bu ...

A. imkoniyatlar ichidan naflilik jihatidan birinchi o‘rinda turadigani.
B. tanlangan imkoniyatning o‘zi.
D. tanlov natijasida voz kechilgan imkoniyatlarning barchasi.
E. tanlov natijasida voz kechilgan, eng katta nafga ega bo‘lgan imkoniyat.

2. Inson ehtiyojlari...

A. cheklangan, chunki inson cheklangan vaqt oralig‘ida hayot kechiradi.
B. poyonsiz, chunki inson orzu-istaklarining cheki yo‘q.
D. cheklangan, chunki resurslar cheklangan.
E. poyonsiz, chunki biz yashayotgan makonning chegarasi yo‘q.

3. Iqtisodiyotni nima sababdan o‘rganamiz?

A. Iqtisodiyotni bilgan odam tejamli bo‘ladi.
B. Iqtisodiyotni bilgan odam yaxshi tadbirkor bo‘ladi.
D. Iqtisodiyotni yaxshi bilgan odam oqilona iqtisodiy qaror qabul qila oladi.
E. Yuqoridagilarning hammasi to‘g‘ri.

4. Noto‘g‘ri jumlani aniqlang.

A. Barcha iqtisodiy tizimlar tanlov muammosiga duch keladi.
B. Inson ma’naviy ehtiyojlarsiz to‘laqonli hayot kechira olmaydi.
D. Inson cheksiz makonda yashaydi, shu bois, iqtisodiy resurslarning ham poyoni yo‘q.
E. Inson ehtiyojlarining poyoni yo‘q.

5. Iqtisodiyotning asosiy muammosi — bu ...

A. tabiiy resurslarning cheklanganligi.
B. inson ehtiyojlarining cheksizligi.
D. inson ehtiyojlarini qondirish.
E. insonning cheksiz ehtiyojlarini qondirish uchun zarur resurslarning cheklanganligi.

6. Ishlab chiqarish omillari — bu...

A. mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv.
B. faqat bino, inshootlar, asbob-uskuna va dastgohlar.
D. faqat ishchilar malakasi va texnologiya.
E. tabiiy omil, mehnat omili, kapital va tadbirkorlik omillari.

7. Qaysi ta'rif umumiyroq keltirilgan?
Mehnat unumdorligi — bu...
A. bir resurs birligidan foydalanib, ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori.
B. vaqt birligi ichida ishlab chiqarilgan tovar miqdori.
D. bitta ishchi ishlab chiqargan mahsulot hajmi.
E. bitta ishchi ishlab chiqargan mahsulotning puldagi qiymati.

8. Mehnat taqsimoti ...
A. narxlarning oshishiga olib keladi.
B. mehnat unumdorligini kamaytiradi.
D. daromadlarni tekisroq taqsimlash imkoniyatini yaratadi.
E. mehnat unumdorligini oshiradi.

9. Mehnat unumdorligiga nima ta'sir ko'rsatadi?
A. Texnologiyalarni qo'llash.
B. Ixtisoslashuv.
D. Ishchilarning kasb mahorati.
E. Yuqoridagilarning hammasi.

10. Quyidagi xususiyatlarning qaysi biri markazlashgan rejali iqtisodiyotga xos emas?
A. Rejali ishlab chiqarish.
B. O'rnatilgan narxlar.
D. Buyruqbozlik.
E. Erkin narxlar.

11. Bozor iqtisodiyoti deganda nima tushuniladi?
A. Bozor munosabatlari qoidalari asosida boshqariladigan iqtisodiyot.
B. Oila-uy xo'jaligini yuritishda bozor munosabatini hisobga olish.
D. Sotuvchi va xaridor o'rtasida narxni bozor tomonidan belgilanishi natijasidagi iqtisodiyot.
E. Kishilar o'rtasidagi erkin iqtisodiy aloqa, muomala.

12. "Nima, qanday va kim uchun ishlab chiqarish kerak?" degan muammoga qayerda duch kelinadi?
A. Faqat an'anaviy iqtisodiyotda.
B. Faqat markazlashgan rejali iqtisodiyotda.
D. Faqat bozor iqtisodiyotida.
E. Har qanday iqtisodiy tizimda.

13. Agar ishlab chiqaruvchi barcha resurslarini ishga solsa, ko‘pi bilan 100 dona *A* tovardan va 200 dona *B* tovardan ishlab chiqaradi. *A* tovardan 120 dona ishlab chiqarishga qanday erishish mumkin?

A. Hech bir sharoitda bunga erishib bo‘lmaydi.
B. Qattiq tejamkorlik asosida erishish mumkin.
D. *B* tovarni ishlab chiqarishni kamaytirish evaziga erishish mumkin.
E. Faqat qo‘shimcha sarmoya sarflab erishish mumkin.

14. Aralash iqtisodiyot qaysi iqtisodiy tizimlarning elementlarini o‘z ichiga oladi?

A. Faqat markazlashgan va an’anaviy iqtisodiyotning.
B. Faqat an’anaviy va bozor iqtisodiyotining.
D. Hamma iqtisodiy tizimlarning.
E. Markazlashgan va bozor iqtisodiyotining.

15. Quyida keltirilgan misollarning qaysi birida ishlab chiqarishni tashkil qilisha mehnat taqsimoti amalga oshirilgan?

A. Bir fabrika oshxona mebeli, ikkinchisi esa yotoqxona uchun yumshoq mebel ishlab chiqaradi.
B. Bir firma kompyuter, ikkinchisi esa printer ishlab chiqaradi.
D. Bir bo‘yoqchi devorni bo‘yashga tayyorlaydi, ikkinchisi devorni bo‘yaydi.
E. Braziliya kofe, Hindiston choy ishlab chiqaradi.

16. Bozor — bu ...

A. sotuvchi va xaridor uchrashadigan joy.
B. tovar va xizmatlar ayirboshlash joyi.
D. ishlab chiqarishni iste’mol bilan bog‘laydigan vosita.
E. noto‘g‘ri javob yo‘q.

17. Tovarning narxi — bu ...

A. sotuvchining tovar uchun olmoqchi bo‘lgan pul miqdori.
B. xaridorning tovar uchun to‘lamoqchi bo‘lgan pul miqdori.
D. tovarni ishlab chiqarish uchun sarflangan jami xarajat miqdori.
E. sotuvchi tovarni sotishga, xaridor esa tovar uchun to‘lashga rozi bo‘lgan pul miqdori.

18. Pul qanday xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak?

A. Quyidagilarning barchasi.
B. Pishiq va barqaror.
D. Kamyob va soxtalashtirish qiyin.
E. Qulay va ixcham.

19. Tovar ishlab chiqarish uchun zarur bo‘ladigan resurslar narxi o‘zgarganida ...

A. taklif miqdori o‘zgaradi.
B. talab ham, taklif ham o‘zgarmaydi.
D. tovarga bo‘lgan talab o‘zgaradi.
E. tovar taklifi o‘zgaradi.

20. Quyidagi omillardan qaysi biri talabga ta’sir etmaydi?
A. Tovarni iste’mol qiluvchi aholi sonining o‘zgarishi.
B. Iste’molchilar daromadlarining o‘zgarishi.
D. Bozorga tovarning ko‘p miqdorda keltirilishi.
E. Tovar narxi oshishining kutilishi.

21. Taklif miqdori bu — muayyan vaqt davomida...
A. xaridorlarning ma’lum narxda sotib olishlari mumkin bo‘lgan tovar miqdori.
B. sotuvchilarning ishlab chiqarishi mumkin bo‘lgan tovar miqdori.
D. sotuvchilarning ma’lum narxda sotishlari mumkin bo‘lgan tovar miqdori.
E. sotuvchilar tomonidan bozorga keltirilgan jami tovar miqdori.

22. Tovarga bo‘lgan talab miqdori uning taklif miqdoridan ko‘p bo‘lsa, bozorda ...
A. tovar sotilmasdan to‘planib qoladi.
B. tovar taqchilligi yuzaga keladi.
D. muvozanat vujudga keladi.
E. sotuvchilar o‘rtasida raqobat yuzaga keladi.

23. Sotuvchilar o‘rtasidagi raqobat natijasida tovarlar ...
A. sifati yomonlashadi, narxi oshadi.
B. narxi o‘zgarmaydi, sifati yomonlashadi.
D. turi ko‘payishi mumkin.
E. narxi tushadi, sifati esa yaxshilanadi.

24. Quyidagi xususiyatlarning qaysi biri bozor iqtisodiyotiga xos emas?
A. Tadbirkorlik.
B. Xususiy mulkchilik.
D. Monopoliyani quvvatlash.
E. Raqobat.

25. “Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi” tamoyili...
A. davlatning bosh islohotchi bo‘lishi lozimligini bildiradi.
B. qonun va qonunlarga rioya etish ustuvor bo‘lishi zarurligini bildiradi.
D. ham ichki, ham tashqi iqtisodiy munosabatlarni mafkuradan xoli

www.idum.uz сайтидан юклаб олинди

qilish zarurligini bildiradi.
E. kuchli ijtimoiy siyosat olib borish yuzasidan ta'sirchan chora-tadbirlar ko'rilishini bildiradi.

26. Iqtisodiyotga oid ilk kitob kim tomonidan yozilgan?
A. Adam Smit. B. Arastu.
D. Ksenofont. E. Alfred Marshall.

27. Tovarga bo'lgan talab va taklif quyidagi jadval ko'rinishida berilgan. Tovarning muvozanat narxi (so'm), miqdori (dona) va sotuv hajmini aniqlang.

Tovar narxi	400	800	1200	1600
Talab miqdori	15	10	5	0
Taklif miqdori	8	10	14	20

A. 400 so'm, 10 dona, 4000 so'm.
B. 800 so'm, 10 dona, 4000 so'm.
D. 800 so'm, 10 dona, 8000 so'm.
E. 1200 so'm, 10 dona, 8000 so'm.

28. Soliqqa tortiladigan daromad, mol-mulk yoki tovar qanday nomlanadi?
A. Soliq subyekti. B. Soliq obyekti.
D. Soliq stavkasi. E. Soliq.

29. Jismoniy shaxs hisoblangan soliq to'lovchi qaysi javobda keltirilgan?
A. Poyafzal ishlab chiqaruvchi xususiy firma .
B. Un ishlab chiqaruvchi zavod.
D. Nashriyot ishchisi.
E. Barcha soliq to'lovchilar.

30. Yuridik shaxs hisoblangan soliq to'lovchi qaysi javobda keltirilgan?
A. Poyafzal ishlab chiqaruvchi xususiy firma .
B. O'qituvchi.
D. Nashriyot ishchisi.
E. Barcha soliq to'lovchilar.

31. Qaysi javobda soliq to'lovchining majburiyatlaridan biri keltirilgan?
A. Davlat tomonidan belgilangan soliq imtiyozlaridan foydalanish.
B. Soliqlarning belgilangan miqdorini o'z vaqtida to'lash.
D. O'zining soliq to'lovchi sifatida huquqlari buzilgan taqdirda tegishli joylarga shikoyat qilish.
E. Soliq organlaridan soliqdan qarzi bor yoki yo'qligi haqida

www.idum.uz сайтидан юклаб олинди

ma'lumot olish.

32. Soliq obyektining har bir birligi uchun davlat tomonidan belgilab qo'yilgan me'yor?

A. Soliq. B. Soliq stavkasi.
D. Soliq obyekti. E. Soliq subyekti.

33. Bir fuqaro o'zining 300 birlik daromadidan 36 birlik, ikkinchi fuqaro 440 birlik daromadidan 44 birlik daromad solig'i to'lashdi. Bularga ko'ra daromad solig'i stavkasi qanday?

A. Proporsional. B. Progressiv.
D. Regressiv. E. To'g'ri javob berilmagan.

34. Bozorda tovarga bo'lgan talab miqdorining taklif miqdoriga teng bo'lgandagi narx — ... deb ataladi.

A. tovarning qat'iy narxi; B. tovarning asl narxi;
D. tovarning mustaqil narxi; E. tovarning bozor narxi.

35. Tovar narxini o'zgartirmasdan uning sifatini yaxshilash, reklamani kuchaytirish kabi omillar orqali raqobatlarga ta'sir ko'rsatish ... deb ataladi.

A. raqobat; B. narxlar vositasiz raqobatlashish;
D. bozorni tartibga solish; E. narxlar vositasida raqobatlashish;

36. Sof raqobat bozori, monopolistik raqobat bozori, oligopolistik bozor, sof monopol bozor bu — ...dir.

A. monopoliya turlari;
B. bozorlarning kimga tegishli ekanligini bildiruvchi atamalar;
D. bozor qatnashchilarining bozorga nisbatan fikrlarini ifodalovchi atamalar;
E. tovarning bozor narxi.

37. Davlat ahamiyatiga ega bo'lgan va atayin monopollashtirilgan ayrim ishlab chiqarish sohalari, tarmoqlari yoki korxonalar ... deb ataladi.

A. davlat monopoliyalari; B. atayin monopoliyalar;
D. tabiiy monopoliyalar; E. erkin monopoliyalar.

38. Mamlakatimizdagi monopoliyaga qarshi qonunchilikning asosiy vazifasi ...dan iboratdir.

A. monopoliyaga barham berish, tadbirkorlik va raqobatni qo'llab-quvvatlash;
B. monopoliyalarni cheklash;
D. bozorda talab va taklifning muvozanatlashtirishga erishish;
E. bozor munosabatlarida davlatning rolini oshirish.

www.idum.uz сайтидан юклаб олинди

39. Xususiy mulkchilikka asoslangan, barcha iqtisodiy yechimlar bozor mexanizmlari yordamida aniqlangan tizim ... deb ataladi.

A. bozor munosabatlari;
B. iqtisodiy tizim;
D. bozor tizimi;
E. bozor iqtisodiyoti.

40. Bozor iqtisodiyotida ...

A. rejalar asosiy omillardir;
B. davlat bozorning asosiy qatnashchisidir;
D. narxlar erkin bo‘ladi;
E. to‘g‘ri javob yo‘q.

41. Qaysi javobda faqat bevosita soliqlar keltirilgan?

A. Aksiz va yer solig‘i.
B. Qo‘shilgan qiymat solig‘i va daromad solig‘i.
D. Aksiz va qo‘shilgan qiymat solig‘i.
E. Daromad va mol-mulk solig‘i.

42. Qaysi javobda faqat bilvosita soliqlar keltirilgan?

A. Aksiz va yer solig‘i.
B. Qo‘shilgan qiymat solig‘i va daromad solig‘i.
D. Aksiz va qo‘shilgan qiymat solig‘i.
E. Daromad va mol-mulk solig‘i.

43. Qaysi holatda bir kunlik mehnat unumdorligi yuqori?

A. 12 ta ishchi 120 ta detal tayyorlaydi.
B. 8 ta ishchi 95 ta detal tayyorlaydi.
D. 11 ta ishchi 105 ta detal tayyorlaydi.
E. 20 ta ishchi 200 ta detal tayyorlaydi.

44. Quyidagi rasmlarda tasvirlangan narsalarning qaysi biri pul vazifasini bajara oladi?

A.

B. 

D.

E.

www.idum.uz сайтидан юклаб олинди

S32 Sariqov Ergashvoy Sotvoldiyevich.
Iqtisodiy bilim asoslari: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8- sinfi uchun darslik/E.S.Sariqov, B.Q.Xaydarov. — T.: 2019. — 160 b.

ISBN 978-9943-5874-0-3

UO‘K 37.015.6(075)
BBK 65.01ya7
S-32

Ergashvoy Sotvoldiyevich Sariqov,
Bahodir Qayumovich Xaydarov

IQTISODIY BILIM ASOSLARI

8- sinf uchun darslik

O‘zbek tilida

"Huquq va Jamiyat" nashriyoti, 2019,
Toshkent sh, Jumamasjid ko‘chasi 6-uy.

Muharrir	Sh. Dadasheva
Texnik muharrir	A. Umarova
Bosh dizayner	"H&J" jamoasi
Sahifalovchi	D. Iskandarbekov

Litsenziya AI №022, 27.10.2018 yil.

Bosishga ruxsat etildi 10.07.2019 y. Bichimi $70\times90^{1}/_{16}$. «Tayms» garniturasi. Kegli 11. Ofset usulida bosildi. Shartli tabog‘i 11,7. Bosma tabog‘i 10,94.
Adadi 506 584 nusxa. 19-01 sonli buyurtma.
Shartnoma 21/01

"Huquq va Jamiyat" nashriyoti matbaa bo‘limi.
Toshkent, Yunusobod 6, Jumamasjid ko‘chasi.
Guvohnoma №10-2750, 13.06.2017 yil

www.idum.uz сайтидан юклаб олинди

Ijaraga berilgan darslik holatini ko‘rsatuvchi jadval

T/r	O‘quvchining ismi va familiyasi	O‘quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi	Darslikning topshiril-gandagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						

Darslik ijaraga berilib, o‘quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to‘ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko‘chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo‘q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta’mirlangan. Ko‘chgan varaqlari qayta ta’mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqovaga chizilgan, yirtilgan, asosiy qismdan ajralgan yoki butunlay yo‘q, qoniqarsiz ta’mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo‘yab tashlangan. Darslikni tiklab bo‘lmaydi.